

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH INSTITUTI



Marakaev Rim Yusupovich,
Sayfiddinov Sadriddin, Yusupov Usmonjon Turg'unalievich,
Hasanov Husniddin Tolibovich

QURUQ ISSIQ IQLIM SHAROITIDA
SHAHARSOZLIK
(O'quv qo'llanma)

5A340201 – Bino va inshootlar qurilishi (Energiya samarali binolar)
magistratura mutaxassisligi uchun

Toshkent 2014

ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmada O'zbekistan quruq issiq iqlimi sharoitida shaharlarni qurish va yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllanish sharoitida shaharsozlikni rivojlantirish asoslarini inobatga olib, ularni baholash me'yor va qoidalari, talab va tavsiflari hamda kompleks ma'lumotlar keltirilgan.

Kompleks shaharsozlik echimlari qoidalari ijtimoiy, iqlimiy, defografik, ekologik, geofizik va boshqa hususiyatlar inobatga olinib, ilmiy jihatdan asoslab berilgan, bu esa o'z o'rnida talabalarga tasdiqlangan dastur hajmida fanni o'zlashtirish imkonini beradi.

Aholi turar joylarini rejalashtirish va obodonlashtirish – injener-quruvchilar va arxitektorlarning birgalikda olib boradigan ish jarayoni bo'lib, bu boradagi harakatlar aholiga eng yaxshi moddiy va ijtimoiy-ekologik xizmat ko'rsatishga yunaltirilgandir.

O'quv qo'llanma 5A340201 –“Bino va inshootlar qurilishi (Energiya samarali binolar)” magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan bo'lib, fanni chuqur tushunish, o'zlashtirish va uni amalda injenerlik faoliyatida qo'llashga yordam beradi.

АННОТАЦИЯ

В учебное пособие приведены, комплексные данные, характеристики, требования, нормы и правила планировки и застройки городов Узбекистана в условиях жаркого сухого климата, их оценки с учетом основ развития градостроительства в условиях формирования новых социально-экономических отношений.

Обоснованы положения комплексных градостроительных решений с учетом социальных, климатических, демографических, экологических, геофизических и других особенностей, позволяющих усвоение дисциплины в объеме утвержденной программы.

Планировка и благоустройство населенных мест - совместный творческий процесс инженеров - строителей, архитекторов и градостроителей направленный на наилучшее материальное и социально-экологическое обслуживание жителей.

Содержание учебного пособия для магистров по специальности 5A340201 - «Строительство зданий и сооружений (Энергоэффективных зданий)» рассчитана на глубокое понимание, усвоение и практическую реализацию программы дисциплины в курсовом проектировании, а также дальнейшей инженерной деятельности.

ANNOTATION

The manual contains complex data, characteristics, requirements, regulations and guidance for town-planning of Uzbekistan under hot arid climate conditions, assessment of town-planning taking into account the basis of development subject to generate new social-economic relations.

The justified regulations for complex town-planning taking into account social, climatic, population, ecological, geophysical and other features allow the students to learn the subject in the scope of the approved programme.

Planning and improvement of population areas are considered to be a joint creative working process made by engineers and construction workers and directed to provide the people with the best welfare and social ecological services.

The table of contents for holders of master's degree on "Construction of buildings (Power efficient buildings)" is intended to better understanding, learning and practical implementation of the programme during the study and in future engineering works.

Mazkur o'quv qo'llanma **“Quruq issiq iqlim sharoitida shaharsozlik”** fani dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda loyihalashtirilayotgan binolarni hududlarga joylashtirish uchun qurilish rayonlarining iqlimiy sharoitlarini hisobga olish talab keltirilgan.

Fanning o'qitishdan maqsad – bino va inshootlarni qurilish va loyihalash sohasida keng doiraga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Vazifasi quruq issiq iqlim sharoitida aholi yashash joylarni bosh tarhini me'moriy-qurilish loyihalashni ijodiy masalalarini echa olish ko'nikmasini shakllantirish, hamda O'zbekistonning milliy arxitekturasi tajribasini o'rganish va o'zlashtirish.

O'quv qo'llanma 5A340201 – “Bino va inshootlar qurilishi (Energiya samarali binolar)” magistratura mutaxassisligi talabalri uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Adilbek Djumaniyazovich Kuryazov

(ToshuyjoyLITI, bosh arxitektor)

Qobil Sodiqovich Abdurashidov

T.f.d., professor (TAQI)

MUQADDIMA

O'zbekiston qadimiy rivojlanish tarixiga, boy madaniy meros va yuqori arxitekturaviy an'analarga ega bo'lgan davlat. Ko'pgina katta va kichik shaharlar yoshi minlab yillarga teng. O'zbekiston hukumati va YuNESKO qarorlariga ko'ra 1997 yilda Buxoro va Xivaning 2500 yilligi, 2001 yilda Termez shahrining 2500 yilligi, 2000 yilda – Qarshi va samarqand shaharlarining 2700 yilligi, 2010 yilda qadimiy va navqiron Toshkent shahrining 2000 yilligi tantanalari keng nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning yuritgan oqilona, irodali va uzoqni ko'ra bilib yuritgan siyosati tufayli hozirgi kunda dunyo hamjamiyati bizning qadimiy shaharlarimiz haqida tarixiy haqiqatni bilish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu say'i harakatlar munosib e'tirof etildi, mamlakatimiz prezidentiga 2006 yilda YuNESKO xalqaro jamiyatining "Borobudur" oltin medali taqdim etildi. Qadimiy shaharlar – Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, termez, Qarshi, Marg'ilonning paydo bo'lganligining ming yilliklarini keng nishonlanishi O'zbekistonning ajoyib me'moriy merosi namoyishi vazifasini o'tadi. Dunyoning yana qaysi erida qadimiy shahaolarning bunday jamlanishini ko'rish mumkin? Shuni alohida ta'kidlash joizki, hamma tantanalar qadimiy arxitektura obidalari fonida o'tkazildi. Samarqand qadimiy forumi – uchta sharqiy universitet – Ulug'bek, Sherdor madrasalari va Tilla-qori madrasa-masjidi quchog'idagi Registon maydonida o'tkazildi. Bu ulug'vor ansambl o'zbek xalqining shonli hukmdorlari Mirzo Ulug'bek (XV) va Yalangto'sh Baxodir (XVIII asr) buyrug'i va ishtirokida paydo bo'lgan. Buxorodagi qadimiy forum – Arslonxon (XII asr) dan buyuk Amir Temurgacha (XIV asr) bo'lgan mashhur hukmdorlar buyrug'iga binoan barpo etilgan Jome'-Kalon masjidi yoniga joylashga Arslonxon minorasi maydonida o'tkazildi.

O'zbekiston kuch va imkoniyatlari, intellektual salohiyati boshqa barcha sohalarda bo'lgani kabi qurilish va yaratish sohasida ham o'sib bormoqda. Tabiiy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, hududiy rivojlanishning yagona

majmuaviy siyosatini olib borish, yangi shaharsozlik usullarini shakllantirish va ularni davlat talablariga mos keladigan hamda aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan darajaga etkazish, bu borada nafaqat bilimlarni oshirish, balki hamon sovet tajribasiga asoslangan shaharsozlik foaliyatini ham qayta ko'rib chiqish zarur.

**1-bob. O'zbekistonda shaharsozlikning arxitekturaviy
rivojlanish yo'llari. Quruq issiq iqlim
sharoitida shaharsozlik.**

O'zbekiston mustaqilligining 20 yillik davrida mamlakatimizda ulkan yaratuvchanlik ishlari amalga oshirildi. Bunday harakatlar mamlakatimiz qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. O'zida milliy me'morchilik an'analari va zamonaviy arxitektura hamda shaharsozlikning yutuqlarini aks ettirgan muhtasham saroy va maydonlar, ko'rkam xiyobon va parklar, keng ko'chalar va yo'llar, ulkan ko'priklar, chiroyli turar joy mavzelari va uylar, ijtimoiy ob'ektlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Yigirma yil avvalgi aholi yashash sharoiti bilan hozirgi kundagi shahar va qishloklar turmush tarzini solishtirganda bunga yanada ko'proq amin bo'lish mumkin.

O'zbekiston kuch va imkoniyatlari, intellektual salohiyati boshqa barcha sohalarda bo'lgani kabi qurilish va yaratish sohasida ham o'sib bormoqda. Tabiiy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, hududiy rivojlanishning yagona majmuaviy siyosatini olib borish, yangi shaharsozlik usullarini shakllantirish va ularni davlat talablariga mos keladigan hamda aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan darajaga etkazish, bu borada nafaqat bilimlarni oshirish, balki hamon sovet tajribasiga asoslangan shaharsozlik faoliyatini ham qayta ko'rib chiqish zarur.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shaharsozlikni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqidagi 25.04.2000 yildagi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Shahar hamda aholi punktlarini qurilishi va bosh tarxini ishlab chiqish tartibini tasdiqlash haqida"gi 14.08.2000 yildagi qarori va 2002 yilda chop etilgan "Shaharsozlik kodeksi"ga ko'ra belgilab berilgan shaharsozlikni rivojlantirish hamda loyihalash bo'yicha qator qoidalarini qayta tashkil etishni taqozo etadi.

Zamonaviy shaharsozlik qurilishi shahar xo'jaligi, uni rekonstruktsiya qilish (qayta qurish) texnologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati hamda madaniyatini

rivojlantirishdagi ishlarning real holatini to'liq inobatga olishga intiladi. Shaharga inson tomonidan yaratiladigan ikkinchi tabiatga bo'lganidek munosabat bildirish, jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligini inobatga olishni, ekologik, xom ashyo va boshqa krizislarni bartaraf etish haqida g'amho'rlik qilishni talab etadi va faqat ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va b. sistemalarni hamohangrivojlanishida shaharsozlik talablarini to'liq uyg'unlashishigina shaharlarni o'zaro bog'liq, ekologik muvozanatlashgan holda rivojlanishi imkonini beradi. Aholi turar joylarini rejalashtiri va obodonlashtirish – injener-quruvchilar, arxitektor va shaharsozlarning birgalikda olib boradigan ish jarayoni bo'lib, bu boradagi harakatlar aholiga eng yaxshi modiy va ijtimoiy-ekologik xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgandir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillarning barchasi shaharsozlik, arxitekturaviy va qurilish muammolarining keng ko'lamini his etishni, injener-quruvchilarni esa shaharsozlik ishlarini bajarishda yuqori ma'suliyatga ega bo'lishlarini talab etadi.

Mazkur o'quv qo'llanma 5A340201 – “Bino va inshootlar qurilishi (Energiya samarali binolar)” mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan bo'lib, fanni chuqur tushunish, o'zlashtirish va uni amalda injenerlik faoliyatida qo'llashga yordam beradi.

O'quv qo'llanma tarkibida O'zbekiston quruq issiq iqlimi sharoitida shaharlarni rivojlantirish va qurish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanish sharoitida shaharsozlikni rivojlantirish asoslarini inobatga olib, ularni baholash me'yor va qoidalari, talab va tavsiflari hamda kompleks ma'lumotlar keltirilgan.

Kompleks shaharsozlik echimlari qoidalari ijtimoiy, iqlim, defografik, ekologik, geofizik va boshqa xususiyatlar inobatga olinib, ilmiy jihatdan asoslab berilgan, bu esa o'z o'rnida talabalarga tasdiqlangan dastur hajmida fanni o'zlashtirish imkonini beradi.

1.1. O'zbekistonning arxitektura-shaharsozlik jihatidan qayta tiklanish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning yuritgan oqilona, irodali va uzoqni ko'ra bilib yuritgan siyosati tufayli hozirgi kunda dunyo hamjamiyati bizning qadimiy shaharlarimiz haqida tarixiy haqiqatni bilish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu say'i harakatlar munosib e'tirof etildi, mamlakatimiz prezidentiga 2006 yilda YuNESKO xalqaro jamiyatining "Borobudur" oltin medali taqdim etildi. Qadimiy shaharlar – Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, termez, Qarshi, Marg'ilonning paydo bo'lganligining ming yilliklarini keng nishonlanishi O'zbekistonning ajoyib me'moriy merosi namoyishi vazifasini o'tadi. Dunyoning yana qaysi erida qadimiy shahaolarning bunday jamlanishini ko'rish mumkin? Shuni alohida ta'kidlash joizki, hamma tantanalar qadimiy arxitektura obidolari fonida o'tkazildi. Samarqand qadimiy forumi – uchta sharqiy universitet – Ulug'bek, Sherdor madrasalari va Tilla-qori madrasa-masjidi quchog'idagi Registon maydonida o'tkazildi. Bu ulug'vor ansambl o'zbek xalqining shonli hukmdorlari Mirzo Ulug'bek (XV) va Yalangto'sh Baxodir (XVIII asr) buyrug'i va ishtirokida paydo bo'lgan. Buxorodagi qadimiy forum – Arslonxon (XII asr) dan buyuk Amir Temurgacha (XIV asr) bo'lgan mashhur hukmdorlar buyrug'iga binoan barpo etilgan Jome'-Kalon masjidi yoniga joylashga Arslonxon minorasi maydonida o'tkazildi. Maydonning sharqiy tomonida Buxoro davlati hukmdori, o'zbek she'riyati klassik shoiri Ubaydullaxon Shayboniy (XVI asr) tomonidan barpo etilgan Mir-Arab madrasasi joylashgan. Xivadagi Kunya-Ark oldida joylashgan maydonda Xiva xoni, o'zbek she'riyati klassik shoiri Feruz-Muhammad-Rahimxon (XVIII asr) tomonidan barpo etilgan ulkan madrasa joylashgan.

"Milliy g'oya, kerak bo'lsa, milliy g'urur tiklanish va o'sish jarayonida tarixiy xotira, jonajon o'lka, xalqning haqqoniy, ob'ektiv tarixini tiklash muhim o'rin egallaydi" (I.A.Karimov).

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida mamlakatimiz shaharlarini yangilashning muhim arxitekturaviy-shaharsozlik loyihalari amalga oshirildi.

Shahar maydonlari, ularning tarixiy shakllangan "eski shahar" qismlari qayta qurildi. Noyob jamoat binolari, xzamonaviy mehmonxona, kollej va listeylar, sport majmualari qurildi, bozorlar ko'rinishi yangilandi; individual tartibdagi loyihalar bo'yicha turar-joy uylari qurilishi uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Oxirgi yillarda butun mamlakat transport infratuzilmasini rivojlantirish va qayta qurishga alohida e'tibor qaratildi. Yo'llar, ko'priklar va boshqa muhandislik inshootlari qurilishi bo'yicha muhim ishlar bajarildi. Dunyo bozori bilan qisqa va qulay bog'lanishga intilish muhim strategik vazifaga aylandi. Bu masalani hal etish uchun mamalakatimiz rahbari tomonidan tanlangan rivojlanish yo'li – mavjud tarixiy margrut – Buyuk ipak yo'lini tiklash ishlari to'laqonli olib borilmoqda. Zamonaviy O'zbekiston hududi qadimdan Sharq va G'arb chorrahasida joylashgan bo'lib, bu yo'l orqali Evropani Osiyo va Osiyoni Shimoliy Afrika bilan bog'laydigan karvon yo'llari o'tgan.

Ming yillik tarixga ega O'zbekiston me'morchiligi zamonaviy olim va tadqiqotchilar uchun noma'lumligicha qolib kelgan. Faqat O'zbekiston milliy madaniyati rivojlanishi bilan O'rta Osiyo tarixiy o'tmishi asta-sekin o'rganila boshlandi.

O'zbekiston hududida o'tkazilgan qazilma ishlari materiallariga ko'ra, neolit davridayoq ibtidoiy dehqon qabilalari qurilish ishlarini hamda Sirdaryo va Amudaryo bo'yidagi hosildor yyerlarni sug'orish ishlarini ham bilganlar. Bu hududda o'ziga xos madaniyatli shaharlar gullab yashnagan. Qadimiy Eron va yunon manbalaridan (bizning eramizgacha bo'lgan 1000 yillikda) Baqtriya (Amudaryo havzasi va uning yuqori hamda o'rta oqimi yerlari), So'g'd yoki So'g'diyona (Zarafshon va Qashqadaryo havzasi), Xorazmiya (Amudaryo va Orolbo'yi yerlari) singari yirik tarixiy madaniy viloyatlar nomlari ma'lum bo'lgan, ular sirasiga Parkana (Farg'ona vodiysi) va Choch yoki Shosh (Toshkent oazisi) ham kirgan. Ularning hammasi qadimiy rivojlangan tsivilizatsiya bo'lgan.

O'zbekistonning qadimiy shaharlari: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent va b. Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan minglab yillik rivojlanish tarixiga egadir. Bu shaharlar Axemendilar istilosini, Aleksandr Makedonskiy askarlari hujumlarini boshlaridan kechirganlar, Qo'shon imperiyasi tarkibiga kirgan (Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo), arablar, Somoniylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar va b. Hukmronligida rivojdanganlar; bu shaharlar Chingizxon o'rdasi tomonidan yengilgan va ezib tashlangan. Bu hudud xalqlariga qonxo'r hujumchilar keltirgan azob-uqubatlarni davolashga deyarli yuz yil kerak bo'ldi.

Buyuk ajdodimiz Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan yaratuvchanlik ishlari avj olib ketdi. Yangi xonlik poytaxti – Samarqand ayniqsa yashnab ketdi. O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyati buyuk Amir Temur nabirasi Mirzo Ulug'bek davrida, deyarli XV asr mobaynida gullab yashnadi. Keyinchalik o'rta osiyolik tarix maydoniga Shayboniylar (XVI asr) va Ashtraxaniylar (XVII-XVIII asrlar boshi)sulolalari kirib keladi. Bu davr arxitektura-qurilish faoliyati Buxoro, Samarqand, Karmana, Toshkent, Xiva, Qo'qon va b. Singari yirik shaharlarda markazlashgan tus oladi.

Tarkibiga zamonaviy O'zbekiston hududi ham kirgan Markaziy Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasi tarkibiga Turkiston general-gubernatorligi mustamlakasi sifatida kirdi.

Chor Rossiyasi chekkasidagi XX asrdagi O'zbekiston arxitektura va shaharsozligitiklanishi xalq xo'jaligi, iqtisod, madaniyat, turmush tarzining chuqur islohotlari zaminida tiklana bordi. O'rta Osiyoni Rossiya tarkibiga kirishi bilan O'zbekiston me'morchiligi evropa me'morchiligi bilan yonma-yon rivojlana bordi. O'zbek xalqi hayotida yangi bob boshlandi. Mustamlakalik yillari arxitekturasini o'rganish muhim, chunki aynan shu davrdagi zamin va arxitekturaviy ko'rinish O'zbekiston zamonaviy shaharlarida katta iz qoldirgan.

Zamonaviy bosqichda shaharlar va ularni markazlarini rekonstruktsiya qilishda arxitekturani rivojlantirishning asosiy ziddiyatlari bevosita ahamiyatga ega.

Rus fuqaro muhandis va arxitektorlari Skobelev (hozirgi Farg'ona), Kogon singari yangi shaharlarni loyihaladilar va qura boshladilar, tarixiy jihatdan shakllanib bo'lgan – Toshkent, Samarqand, Andijon shaharlarida yangi mavzelar barpo eta boshladilar. Tarixiy shaharlar uchun loyihalar joriy tarxlashga asoslangan, to'g'ri, ko'kalamzorlashtirilgan ko'chalar, shahar bog' va xiyobonlari, ariqlar tarmog'i, ko'chalarga ko'priklar qurila boshlangan. Bunday shaharlar radial-markaziy tarxlash markaziga odatda jamoat maydoni joylashtirilgan. Shaharlarni obodonlashtirishda ham ma'lum taraqqiyot kuzatilgan.

Toshkent va Samarqand singari qadimiy shaharlar misolida mustamlaka siyosati natijasida shaharlarda ikkita tarkibiy qism hosio bo'lishini ko'rish mumkinyu Bu davrda Toshkent, ko'pgina boshqa feodal shaharlari singari, qo'rg'onli inshootlar devorlari qatori bilan o'ralgan bo'lgan. Radius bo'yicha joylashgan yo'llar shahar darvozalaridan (ularning soni 12 ta bo'lgan) markaz – qo'rg'on devorlari va shahriston (shahar) yoniga joylashgan bozorga olib borgan. Eski shahar kompozitsiyasi markazida Xo'ja Axror masjid va madrasasi (XV asr) joylashgan, uning yonida havo rang gumbazli Ko'kaldosh madrasasi (XVI asr), shaharning turli qismlarida qurilgan madaniy inshootlar joylashgan. Asr boshida Toshkent shahri ko'rinishini uylar, hunarmandlar ustaxonalari, savdo rastalari, mahalla masjidilari, choyxona va yog'och sinchdan qurilgan yassi tomli boshqa imoratlar tashkil qilgan.

Eski Toshkent yoniga, Bo'zsuv kanali chap qirg'og'iga, rus ma'muriyati joriy tarxli yangi shahar quradi. Shaharning yangi qismi bosh markazli (hozirgi Mustaqillik maydoni) yagona tarxli echimli, ko'chalarni to'g'ri to'rtburchakli to'r ko'rinishida loyihalangan. XX asr boshlariga kelib, "yangi" shahar radial halqali, umumshahar markali tarx bilan shakllanib bo'lgan. To'rtta tarxiy mintaqalar – cherkov maydoni ansambli (hozirgi Sayilgoh), hukumat binolari majmuasi (hozirgi Mustaqillik maydoni hududi), Konstantinov xiyobonining bir guruh jamoat va madaniy-tomoshabop binolari joylashgan hududi (Amir Temur xiyoboni), Bozor maydoni (hozirgi buyuk Turon ko'chasi hamda Alisher Navoi nomidagi teatr

oldidagi maydon) – mustamlaka yillaridagi Toshkent umumshahar markazi tarkibiy asosini tashkil qilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Samarqand etarlicha rivojlangan arxitektura-tarxiy echimga ega bo'lgan. Unda asosan turar joy mavzelari – o'zining jamoat markazlari – guzarlariga ega bo'lgan seoiteb mintaqasi aniq ko'rinib turgan. Har bir guzar tarkibiga odatda, oqar suvli suv havzasi – xovuz atrofida joylashtiriladigan masjid, choyxona, do'kon-magazinlar kirgan.

Shahar ma'muriy markazi qo'rg'on devorlari bilan o'ralgan, hukmron doiralar rasmiy qarorgohi hisoblangan Arkada joylashgan. Xuddi shu joyning o'zida davlat boshqaruvi tashkilotlari ham joylashgan. Uning yonida shaharning ishbilarmon va hunarmand-savdo-sotiq markazi, “kumush rastalar” joylashgan. Bevosita savdo markazi, diniy jamoat markazi (Registon) bosh yo'llar bo'ylamasiga va kesishgan joylariga joylashgan, aslida xuddi shu joyda shahar paydo bo'lgan.

XX asr boshlariga kelib, Samarqand markazi, O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi, ikkita markaz – “eski” va “yangi” qismdan iborat bo'lib qolgan, ularni bir ko'cha bog'lab turgan (hozirda Universitet ko'chasi), qator ma'muriy binolar barpo etilgan.

Kaspiy temir yo'li (1899 y.), keyinchalik esa Orenburg temir yo'li (1906 y.) qurilishi Rosiiya evropa qismi bilan bog'lanish imkonini berdi va Turkiston shaharlariga muhim ijtimoiy o'zgartirishlar kiritdi.

Mukstamlaka siyosati natijasida hosil bo'lgan ikkita tarkibli shaharlar: yangiva eski Toshkent, yangi va eski samarqand, na umumiy kompozitsion sxema va na qurilish tavsifi bilan o'zaro bog'lanmagan edi. Eski shaharlar o'zining o'rta asrlardagi qiyofasini saqlab qolgan edi, monumental binolar – o'rta asrlar arxitekturasining ulug'vor obidalari nurash holatiga kelib qolgan edi. Tarxlashning taraqqiy etgan usullari, yangi jamoat binolarining qurilishi, ularni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, suv bilan ta'minlash va boshqa ishlar yangi qurilayotgan shaharlar va eski shaharlar yangi hududlarida amaldga oshirilar edi. Ikki xalq – rus va o'zbek xalqlarining o'zaro muomala va munosabatlari ikkita me'moriy

madaniyatni o'zaro boyitish va to'ldirishga olib keldi. Keyinchalik esa O'zbekistonda bu uyg'unlik me'morchilikda o'z aksini topdi va rivojlana bordi.

Birinchi jahon urushi (1914 y.) va Oktyabr inqilobi munosabati bilan mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishdar natijasida arxitekturaning yangi davri boshlandi.

Boshida Turkiston Avtonomiyasi tarkibida, keyinchalik 1924 yildan sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan O'zbekiston birinchi jahon va fuqarolar urushining vayronagarchiliklarini, to'xtab qolgan sanoat va qishloq xo'jaligini tiklashga bor kuchini sarflab, og'ir damlarni boshidan kechirdi. Bunday yangi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar arxitektura rivojlanishida yangi ziddiyatlar paydo bo'lishiga olib keldi.

Bu davrga kelib, O'zbekistonda 500 dan ortiq sanoat korxonalari qurildi, bu esa respublika tashqi ko'rinishini tubdan o'zgartirib yubordi (Boysun GEK, Farg'ona, Toshkent kanallari, Tashselmash, Tekstil kombinati va h.k.). Birinchi yirik sanoat korxonalari barpo etilishi O'zbekistonda yangi shaharlar vujudga kelishiga olib keldi. Shahar tarkibida, tarxlarga qat'iy amal qilib, yirik obodonlashtirilgan turar joy majmualari qad ko'tara boshladi. Yangi shaharlar obodonlashtirilgan mikrorayonlari betartib qurib tashlangan eski shahar mavzelaridan keskin farq qila boshladi. O'sha davrda qurilgan shaharlardan Yangiyo'l (1934 y) va Chirchiq shaharlari e'tiborga loyiqdir.

Chirchiq – O'zbekistonda qurilgan shaharlarning birinchilaridandir. Shahar tez o'sib bordi, har yili yangi mikrorayonlar, mavzelar qo'shilib bordi, aholi soni o'sib bordi. 1939 yilda Chirchiqda 14,9 ming aholi yashagan. Chirchiq shahri tarxlanishining birinchi loyihasi 1933-36 yillarda Moskva Gidroqurilishproekt instituti tomonidan ishlab chiqilgan va bu loyiha 1947 yilgacha shahar qurilishi va tarxlanishining asosini tashkil qilgan.

Toshkent shahrini yangi shahar qismini o'zgartirish loyihasidan uning qayta qurilishi tarixi boshlanadi, bunda tarxiy sxema saqlanib qolinib, yangi jamoat markazlari rivojlantirib borilgan. Toshkent shahrining ayrim hududlarini qayta qurish g'oyasi uning 1925-1931 yillardagi bosh tarxida ko'zda tutilgan (yangi

mavzelnari vokzal orti qismlarga bo'lish, shahar tekstil kombinatini majmuaviy qurilishi va h.k. shular jumlasidandir). Mazkur loyiha chetlashtirilgan edi, lekin uning ayrim g'oyalari keyingi yillarda amalga oshirilgan edi (Navoi shohko'chasi, 1930 y., "Spartak" stadioni, 1932 y., mutaxassislar uyi, "Tashselmash" va boshqa sanoat hududlari).

Toshkentning birinchi tasdiqlangan bosh tarxida (Mosloyiha, 1938-1939 yy) aholi soni 900 ming kishiga mo'ljallangan, 13,8 ga hududni qamrab oladigan magistral ko'cha tarmog'ining radial-xalqali tarkibi qabul qilingan (Moskva shahri namunasi bo'yicha), bu yo'l shaharning oltita ma'muriy hududini birlashtirib, bu ma'muriy hududning har birida turar joy, jamoat va boshqa binolarning tarmog'i joylashtirilgan. Katta e'tibor shaharning eski va yangi qismlarini uyg'un birlashtirish, ularni suv bilan ta'minlash va ko'kalamzorlashtirishga, park va xiyobonlar, sun'iy suv havzalari yaratishga qaratilgan.

Samarqand shahrining birinchi bosh tarxi (arx. M.Bulatov, 1937-1938 yy) aholi soni 136 ming kishiga mo'ljallangan, 3,9 ming ga hududni qamrab oladigan yagona shahar arxitekturaviy-tarxiy tarkibini yaratish hamda uning yangi va eski qismlarini birlashtirishni ko'zda tutgan. Loyiha shaharni hamma yo'nalishlarda bir tekisda rivojlantirishni va shahar bosh markazini yangi va eski shahar tutashgan joyga joylashtirishni ko'zda tutgan.

Bosh tarxlarda Toshkent va Samarqand hududlari mintaqalarga aniq bo'lingan, sanoat va fuqaro qurilishi uchun joylar belgilangan edi. Shaharlarga ko'kalamzorlashtirish va suv bilan ta'minlash loyihalari, transport magistsrallari sxemalari berilgan, bu loyihalarni hayotga tadbiq etishning yorqin misoli parklar, bog'lar, xiyobonlar, sun'iy suv havzalari yaratilishi bo'ldi. Toshkent, Samarqandni qayta qurish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihalar, olib borilgan amaliy ishlar respublikaning boshqa shaharlarini rekonstruktsiya qilish bo'yicha yaxshi maktab vazifasini o'tadi. Buxoro (1937 yil, arxitektor F.Dolgov; 1940 yil arxitektor D.Meerson), Farg'ona (arxitektor A.Zotov), Andijon va boshqa ko'plab shaharlarning qayta qurish loyihalari bajarildi. Moskva shahrini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish loyihalash printsiplari Toshkent, Samarqand va O'zbekiston

respublikasining boshqa shaharlarini bosh tarxini loyihalashda asos vazifasini o'tadi.

Nisbatan qisqa urush yillari O'zbekiston qurilish tarixining hamma sohalarida chuqur iz qoldirdi, bu yillarda qator muammolar paydo bo'ldi. Aql bovar qilmaydigan darajada murakkab va bajarilishini ortga surib bo'lmaydigan muammo shahar aholisini keskin oshib ketishi va shaharlarda sanoat korxonalarini ko'plab qurilishi bo'lib qoldi, bu esa shaharlar tarxlash loyihalarini tuzishni va ularni tubdan qayta qurishni talab eta boshladi. Toshkent shahriga urush yillarida yirik korxona va o'zining kadrlari bilan ko'chirilgan tashkilotlar, shaharningqayta qurish yangi bosh tarxini tuzish zaruriyatini taqozo etdi.

Bosh tarx yangi loyihasida shahar hududi kattalashtirilgan, yangi sanoat ob'ektlarini joylashtirishni inobatga olib, mintaqalashga o'zgartirishlar kiritilgan, qator transport magistrallari o'tkazish mo'ljallangan, hududiy parklar tarmog'i kengaytirilgan, shahar markaziy maydoni rekonstruktsiyasi ko'zda tutilgan, shahar tarkibiga o'simlik dunyosi va suv havzalari faol kiritilgan. Tarixiy jihatdan shakllanishga ulgurgan shaharlarni qayta qurish asosiga, ularning "yangi" va "eski" qismlari orasidagi chegarani o'chirish urinishlari belgilanib olindi. Bu g'oyani hayotga tadbiq etishni Toshkent shahridagi Navoi ko'chasidagi qayta qurish ishlari boshlab berdi.

1954 yilda Uzdavlatloyiha (arxitektor Yu.Bulicheva) tomonidan bajarilgan Samarqandni birinchi navbatda qurilishi bosh tarxi va loyihasiga ko'ra keyingi yillarda Registon maydoniga yaqin joyda joylashgan va Toshkent hamda Registon ko'chalaridagi tarixiy obidalarga olib chiquvchi mavzelarni qayta qurish ko'zda tutilgan.

Toshkent shahrini qayta qurish 1954 yildagi bosh tarxida Mustaqillik maydoni 1938 yildagi rekonstruktsiya bosh tarxidagi chegaralarini asosan saqlab qolgan. Kompozitsion negiz sifatida mavjud maydon O'zbekiston Hukumati Uyi bilan birgalikda saqlanib qolingan.

XX asr 50-yillaridan boshlab O'zbekiston arxitekturasida va shaharsozligida yangi yo'nalish boshlangan – donali chiziqli qurilish o'rniga ko'chalarga turar joy

va jamoat binolari qurila boshlandi, “erkin tarxlash” usuli keng qo’llanila boshlandi. Bundan tashqari yildan yilga O’zbekiston aholisi soni o’sib bormoqda. Aholi sonini qayd etishning 1959 yilgi ma’lumotlariga ko’ra 1959 yilda Toshkent shahri aholisi 912 ming kishini tashkil etgan, bu qiymat 1954 yildagi bosh tarxda hisoblangan qiymatdan 112 ming kishiga ortib ketgan. Bu holat, seliteb hududlarini tashkil etish printsiplari, texnika va qurilish sanoatining rivojlanishi bu bosh tarxni qayta ko’rib chiqish zarurligini keltirib chiqardi. Toshkent shahri bosh tarxi yangi varianti printsiptial qoidalarida shahar va shaharoldi mintaqasini yagona organizm sifatida ko’rib chiqish g’oyasi ilgari surilgan, shahar aholisi sonini 1,2 million kishi deb qabul qilingan;

Shahar muhitini yanada yangilash va rekonstruktsiya qilish tarxlash tarkibini tartibga keltirishni ko’zda tutadi. Shaharni fazoviy tashkil etishda hudud tarxiy karkasini shakllantirish – umumshahar tarkibiy magistrallarini, jamoat markazlarini shahar hududi o’sishiga mos ravishda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shaharning kompozitsion jihatdan tugallangan, tarixan shakllangan asosiy radiuslari: shahar asosiy seliteb va ishlab chiqarish mintaqalarini umumshahar markazi bilan bog’lovchiPushkin, Beruniy, Usmon Nosir ko’chalari yanada rivojlanib bormoqda. Toshkent markazi – shahar rivojlanishining birinchi navbatda ob’ektidir. Bu erda muhim rolni shahar markaziy qismi qurilishi loyihasi (1964 y) tanlovi o’ynadi, TASHGIPROGOR instituti tomonidan ishlab chiqilgan loyiha mualliflarining me’moriy mahorati yuksak baholandi. Toshkent markaziy qismiga asos qilinib,ikkita tarixan shakllangan markazlar eski va yangi shaharni kompozitsion o’q bilan keng xiyobon ko’rinishida me’moriy-tarxiy vositalari bilan bog’lash g’oyasi olingan. Toshkent shahri qurilishi va rivojlanishi bosh tarxi bo’yicha tugunli maydonlar sistemasi markazning alohida majmualarini shahar janubi-g’arbiy qismidagi seliteb hududlar bilan kompozitsion funktsional bog’laydi.

Markaz uchun Istiqlol va Xadra maydonlari o’zaro bog’langan vizual dueti muhim shaharsozlik ahamiyatiga ega. Ular orasidagi masofa – Amir Temur xiyobonidan Chorsu maydonigacha cho’zilgan markaz negizi enidiryu. Toshkent

markazi g'arbiy chegarasini Chorsu maydoni tugallaydi, uning kompozitsiyasi markazi Chorsu mehmonxonasidir.

Samarqand shahri bosh tarxi (O'zshaharsozlikLITI, 1981 yil). Yangi bosh tarx vazifasi – ochiq tarxiy tarkibli, mintaqalari rastional taqsimlangan ixcham shahar yaratish, har birining aholisi 100-150 mingta bo'lgan ettitarxiy hududni tashkil etish, uzluksiz va boshqariladigan harakatli rivojlangan magistral sistemalari yaratish, muhandislik uskunalarini takomillashtirishdan iborat.

Funktsional jihatdan yangi mintaqalar, avvalambor ixtisoslashgan umumshahar markazlari yaratiladi. Oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalari, turizm, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qurilish sanoati bilan bir qatorda shahar xalq xo'jaligi yo'nalishi asosini belgilaydi. Registon ansambli – yirik jamoat forumi, o'rta asrlar Samarqandining markaziy maydoni. Hozirgi kunda yangilangan registonda madrasaning uchta binosi qad ko'targan (Sherdor, Tillaqori – XVP asrga mansub va ulug'bek madrasasi – XV asrga mansub). Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan katta restavrastiya va obodonlashtirish ishlari o'tkazilgan. Amir Temur, Shoxi-Zinda va boshqa ko'plab masjidlar restavrastiya qilingan va obodolashtirilgan.

Buxoro bosh tarxi. 2500 yoshga to'lgan Buxoro bosh tarxi kompozitsion qurilishi XVI asrda shakllangan shahar tarixiy topografiyasiga asoslangan. XX asr boshlarida Buxorodagi devor ichida 50 ta bozor, devor tashqarisida esa 20 ta bozor, ko'plab karavon-saroylar bo'lgan. Hozirgi kunda bu keng Buxoro viloyatining ma'muriy markazi va shu bilan birga o'rta asrlar ko'plab obidalarini o'zida mujassamlashtirgan noyob shahar-muzey hamdir. Bu mintaqada shakllangan tarxiy tarkib saqlangan, yangi imoratlar aniq chegaralangan va ularning balandligi me'yorlashtirilgan. Buxoro ko'proq janubiy yo'nalishda, Kogon temiryo'l stanstiyasi bilan birlashadigan tomonda rivojlanib bormoqda. Janubi-sharqda joylashgan sanoat, asosan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalaridan tashkil topgan. Zamonaviy Buxoro – katta qurilishlar shahri bo'lib, tez orada zamonaviy shaharga aylandi, unda zamonaviy arxitektura namunalari va ulug'vor qadimiy obidalar hamohang uyg'unlashgan. Buxoro – Buyuk ipak yo'lidagi yirik savdo

markazi. Tarixiy obidalar yonida zamonaviy arxitektura namunalari – jahon standartlariga mos keladigan sanoat korxonalar, madaniyat tashkilotlari, mehmonxonalar, restoranlar, sport inshootlari qad ko'targan.

Xiva bosh tarxi. Xiva tarxi loyihasi (1964 yil). Bu O'rta Osiyoda yagona yaxlitligicha saqlangan shahar-obidadir. Anxanaviy tarzda Xivada ikkita shahar shakllangan: ichki – Ichan-Qal'a va tashqi – Dishan-Qal'a, Ichan-Qal'ada shahar xochsimon tarzda bosh ko'chalar bilan o'qlarga bo'lingan (avvalgi karl Marks va Xiva ko'chalari), bu ko'chalar janubiy va shimoliy, g'arbiy va sharqiy devorlardagi to'rtta shahar darvozalarini o'zaro bog'laydi. Ichki shahar Ichan-Qal'a hududi – shaharsozlik va arxitektura obidalari majmuasi sifatida davlat qo'riqxonasi deb e'lon qilingan, shu munosabat bilan qayta tarxlash loyihasi uni maksimal darajada saqlab qolish va restavrasiya qilishni, obodonlashtirishni hamda qulay transport va yo'lovchilar o'tish joylarini tashkil qilishni ko'zda tutadi. Shahardagi mikroiklimni yaxshilash maqsadida yagona o'simlik dunyosi sistemasi yaratilgan. Xiva – bizning ajoyib o'lka gavhari, xalq yaratuvchanligi va san'ati timsoli, bizning madaniy va milliy an'alarimiz davomiyligi va mo'jizasi. Xiva – bizning barhayot tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, ularning ma'naviy boyliklari ko'rinishi va umuminsoniy taraqqiyot gavharidir. Xiva shahri uchun o'zaro uyg'unlashib joylashgan jamoat binolari (madrasa, masjid, maqbaralar, savdo, sport inshootlari), minoralar va yangi ulug'vor fuqaro va sanoat bino, inshootlari va majmualari xos.

Farg'ona bosh tarxi. Uning aholisi 1939 yilda 40 mingga yaqin kishini, 50-yillarda 110 ming kishini tashkil qilgan. Tezkor o'sish yirik korxzonalar, zavodlar, ilmiy markazlar, oliy o'quv yurtlari, kollejlari, sport majmualari va b. markazlashishi bilan shartlashgan. Shahar asosan janubiy yo'nalishda kengaytirilib borilgan (Kergeli, Marg'ilon).

Namangan bosh tarxi. Namangan shahri Farg'ona vodiysi shaharlaridan O'zbekistondagi shaharlar ichida kattaligi jihatidan 3-o'rinda turadi. 70-80-yillarda uning oldida, ko'pgina boshqa shaharlar kabi tezkor sur'atlar bilan o'sayotgan aholi sonini umumiy ta'lim maktablari, ijtimoiy-madaniy va demografik ehtiyojlarini qondirishdek muammolar turar edi. Namangan qadimiy shaharlar

sirasiga kirmaydi. Uning tarixi 260 yil deb belgilanadi, shaharning uning o'zigagina xos ko'rinishi, masshtabi va tarixiy ma'lumotlari mavjud.

Navoi shahri bosh tarxi. Navoi shahri shaharsozlikning zamonaviy printsiplariga asoslanib qurilgan. Yangi shaharda 1958 yilda yirik mavzeli turar-joy uylari, aholiga xizmat ko'rsatish binolari bilan majmuaviy holatda qurilgan. O'zbekistonning yangi sanoat shahri zamonaviy shaharsozlik talablariga nisbatan to'liq javob beradi, sanoat mintaqalarini, insonlar dam olishi va mehnatini ta'minlovchi turar joy binolarini, jamoat va maishiy tashkilotlar tarmog'ini, muhandislik uskunalari va transportni rasional majmuaviy tashkil etishda namoyon bo'ladi. Kelajak shahri uchun rel'efi bo'yicha sokin, shimoli-janubga 8 kmga cho'zilgan, eski tuman Karmana markazi va temiryo'l stanstiyasi kichik aholi yashash punkti orasida joylashgan hudud tanlangan. Markaziy maydon, shaharning asosiy tarxiy tuguni shaharning ikkita kompozitsion o'qlari orasida joylashgan. Bu holat unga hozirgi kunda mavjud shaharga ham, istiqbolda rivojlantiriladigan tumanlarga ham tegishlilikini ta'minlab beradi. 1961 yilda ishlab chiqilgan bosh tarxga ko'ra, Navoiy shahri 50 ming kishiga, istiqbolda 70 ming kishiga mo'ljallanib loyihalangan. Lekin sanoat salohiyati tezkor o'sib borgan va 1975 yilga kelib aholi soni istiqboldagi raqamdan oshib ketgan, 1982 yilning oxirida 100 ming kishiga etgan. Hozirgi kunda shaharda 200 ming kishi istiqomat qiladi. Bu vaziyat loyihaviy echimlarga o'zgartirishlar kiritish va yangi bosh tarx ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etdi, bu loyihada XXI asr boshida aholi soni 300–400 mingta kishiga etishi ko'zda tutiladi. Shaharning chiziqli–o'qli kompozitsiyasi uning ketma–ket va mulohazali qurilishi imkoniyatini beradi. Yagona shahar tarkibiy qismlarini turar–joy, obodonlashtirish, zaruriy jamoat va xizmat ko'rsatish binolari bunday rivojlanishi qurilishni to'liq majmuaviyligiga erishish imkonini beradi.

O'zbekistonning yirik sanoat korxonalari qurilishlari O'zbekistonda Chirchiq va Navoiy singari – kimyo sanoati markazlari, Olmaliq, Zarafshon va Bekobod – rangli va qora metallurgiya markazi, Angren – ko'mir sanoati markazi bo'lgan shaharlar barpo qilinishini boshlab berdi. Bu shaharlarga xos xususiyatlar

– ommaviy turdagi turar–joy qurilishi bilan chegaralangan bir xillikdir, bu holat ularning tashqi ko‘rinishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.


1966 yil 26 aprelda sodir bo‘lgan kuchli zilziladan so‘ng Toshkent shahri bosh tarxiga jidiy o‘zgartirishlar kiritish talb etildi. Zilzila natijasida 2,5 mln. kv.m turar joy tiklanib bo‘lmaydigan darajada shikastlangan. Hamma ittifoq respublikalari yordamida va shaxsiy zahiralar ishga tushirilib, 3 yil ichida (1966-1968) umumiy madoni 2,7 mln kv.mga yaqin turar joy binolari qurildi, bu hajm zilzila yetkazgan zarani to‘liq qoplab ketgan. Bu ulkan qurilish sur‘atlari loyihalashning keng qo‘lanilishi va rivojlantirilishi, quvvatli qurilish sanoati bazasini yaratilishi bilan belgilangan. Toshkentning yangi mikrorayonlarda butun mamlakat arxitektorlari va quruvchilari tomonidan katta ishlar bajarilgan. Mikrorayon farqli jihati uning me‘moriy-tarxiy tashkil etilishi bo‘lib, unda berilgan hudud demografik va aholi oilaviy tarkibi, turmush tarzi va maishiy xizmatko‘rsatish inshootlari faqat shu hudud uchungina xosdir. Uncha katta bo‘lmagan mavzu – mahalla aholisi uchun fator vazifalarni ilg‘or umumiyligini saqlab qolish – alohida xususiyatdir. Shu munosabat bilan mikrorayonni tarxlash mahalla markazi binosi atrofida guruhlanadigan 2-3 ming kishiga mo‘ljallangan turli qavatli turar joyuylarini barpo etishni ko‘zda tutadi. Mahalla markazi binosi o‘lchamlari zaruriy jamoat tadbirlarini o‘tkazish imkonini beradi. Xuddi shunday mikrorayonlar Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Nukus va boshqa shaharlarda ham ko‘pincha mahalliy shaharsozlik sharoitlari va iqlim xususiyatlari inobatga olinmasdan quriladi.

Ma‘lumki, jamoat binolarining qurilish joylari iqlimi, landshafti, shaharsozlik va tabiiy omillar shaharsozlik sharoitlari va arxitekturaviy-badiiy ko‘rinishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, chunki shaharlarni loyihalash bevosita ularni o‘rab turuvchi hudud bilan o‘z vazifasi va me‘moriy-badiiy jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bunday omillar qatoriga belgilangan yer maydoni o‘lchamlari, uning shakli, ko‘cha, maydon, suv yuzasiganisbatan joylashishi, qurilish atrofidagi sistema kiradi.

Markaziy Osiyoda birinchi Toshkent metropolitenini barpo etilishi (1977 y.) katta yutuq sifatida e'tirof etiladi, metropoliteni 2 ta yo'nalishi: Chilonzor (yo'nalish uzunligi 16,8 km, stanstiyalar soni – 12 ta) va O'zbekiston (yo'nalish uzunligi 14,2 km, stanstiyalar soni – 11 ta) mavjud.

Toshkentdagi metropoliteni nafaqat foydalanishda qulayligi va ekologik sof transport turi bo'lib, balki takrorlanmas me'moriy– badiiy stanstiyalari bilan ajralib turadi. Yirik muhandislik inshootlari Toshkent radiotelevizion minorasi, “Quyosh” telekompleksi qurilishi Toshkent shahriga xos.

ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО. ТАШКЕНТ. ЭТАПЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ. СХЕМЫ



1

1. Ташкент. План регулировки центральной части города. 1924г.;




2

2. Ташкент. Центральная часть. 1931 г., арх. А. Сильченков;




3

3. Ташкент. Центральная часть. 1936 г., арх. Н. Семёнов;



4

4. Ташкент. Центральная часть. 1939 г., арх. А. Кузнецов;




5

5. Ташкент. Центральная часть. 1924 г.





Ташкент. Схема планировки соцгорода Текстильного комбината. 1930 г.



Ташкент. Схема планировки центральной части. 1954 г. Ташгипрогор.



Ташкент. Схема ген. плана города. 1970 г., арх. Ю.Пурецкий.




Ташкент. Конкурсный проект на правительственный центр. 1946-1947 гг.:

Проект арх. А. Воронина, М. Дудина


Проект арх. А.Бабаханова

Рис. 2


ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО. САМАРКАНД. ЭТАПЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ. СХЕМЫ




Фрагмент ансамбля Шахи-Зинда.



1. Проект планировки 1938-1939 гг. Узпланпроект, арх. М.Булатов;
2. Проект планировки 1954 г. Узгоспроект;
3. Проект планировки 1968 г. Узгоспроект.



Схематический план исторического развития города.



1




2



3

Административный центр; 2. Застройка новых объектов около Регистана. Проектные предложения застройки ул. Ташкентской; 3. Схема развития города, связывающая старую часть с новой. Узшахарсозлик ЛИТИ.


ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО. НОВЫЕ ГОРОДА



Навои. Центральная часть города. Общий вид, схема плана.



1




2

3

1. Навои. Фрагмент застройки с памятником А.Навои. 2001г.; 2. Навои. Площадь перед Домом культуры «Фархад», схеме плана; 3. Навои. Схема административно-общественного центра города, 1963-1970 гг., арх.-ры А.Коротков, И.Орлов и др.

АРХИТЕКТУРА ЖИЛИЩА: 1950-1980 гг.

Комплексы жилых домов



Массив Чиланзар. Планировки первых жилых кварталов, 1956-1957 гг.
Арх. О Газенкоир, И. Демкинская, О. Рушковский и др.



Ташкент. Планировка и застройка микрорайона Б-7 юго-западного района города, 1960-1962 гг.
Арх-ры Л. Адамов, Г. Александрович и др.



Ташкент. Микрорайоны Ташкента, застроенные после землетресения 1966 г.



1



2 3



6

4



7

8



1. 9-ти этажный жилой дом в микрорайоне Ц-7, Киев ЗНИИПЭП; 2. Микрорайон Ц-4, Ц-5, Ц-6, 1966 г., "Гипрогор" г. Москва; 3. Микрорайоны Ц-7 (Украина), 1966 г.; 4. Микрорайон Ц-27и застройка; 5. Застройка квартала Ц-5, блокированными жилыми домами; 6. Ташкент. Проект застройки экспериментального микрорайона "Калькауз" (Ц-19), 1978г. Арх-ры С.Адылов, А. Коссинский, Г.Коробовцев; 7. Экспериментальный четырехэтажный блок-секционный жилой дом с двориками на этажах в микрорайоне Ц-27; 8. 16-этажный жилой дом из монолитного железобетона, 1985 г. арх. О.Айдинова

ОБЩЕСТВЕННЫЕ ЗДАНИЯ: 1950-1980 гг.




Ташкент. Стадион "Пахтакор"; 1955 г.,
арх-ры М.Булатов, Л.Караш

Ташкент. Дворец искусств; 1964 г.,
арх-ры В. Березин, С.Сутягин и др.



1




2 3



4

3. С1. Ташкент. Главный корпус Ташкентского Государственного Университета, 1971г. арх-ры Е.Калашникова и др.;
2. Ташкент. Выставочный зал Союза художников Узбекистана, 1974 г.; 3. Санаторий "Узбекистан" в Сочи; 4. Малые архитектурные формы во дворе Санатория "Узбекистан" в Сочи.




1



2



3




4



5


1. Ташкент. Чайхана "Самарканд Дарбаза"; 2. Самарканд. Проектные предложения застройки ул. Ташкентской около пл. Регистан; 3. Нукус. Здание музыкально-драматического театра. Общий вид, план 2 этажа; 4. Навои. Центральная площадь. Дом Советов, 1980 г.; 5. Ташкент. Кафе "Голубые купола" на бульваре, 1970 г.

ПРОБЛЕМЫ РЕКОНСТРУКЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ




Коканд. Культурный центр с музыкально-драматическим театром и музеем

Коканд. Памятники архитектуры



Ташкент. Реконструкция района Чорсу.




Ташкент. Площадь Дружбы народов




Дворец Дружбы народов

РЕКОНСТРУКЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ ГОРОДОВ



Андижан. Фрагмент центра (макет).



Карши. Фрагмент центра (макет).

Shaharsozlik. Toshkent. Loyihalash bosqichlari. Sxemalar. (16-betdagi sxemalar). 1. Toshkent. Shahar markaziy qismitarxi 1924 y; 2. Toshkent. Markaziy qism 1931 y. arx. A.Sinelnikov. 3. Toshkent . markaziy qism 1936 y.arx.N.Semenov; 4. Toshkent. Markaziy qism 1939 y. arx.A.Kuznestov; 5. Toshkent. Markaziy qism. 1924 y. Toshkent to'qimachilik kombinati ijtimoiy shaharchasi tarxlash sxemasi 1930 y. Toshkent. Markaziy qism tarxlanishi sxemasi 1954 y. TASHGIPROGOR. Toshkent. Shahar tarxi sxemasi 1970 yil arx. Yu.Purestkiy. toshkent hukumat markazi tanlov loyihasi 1946-1947 yy. arx. A.Voronina, M.Dudina loyihalari, arx. A.Babaxanov loyihasi.

Shaharsozlik. Samarqand. Loyihalash bosqichlari. Sxemalar.

Shohi-Zinda majmuasi fragmenti. 1. 1938-39 yillar tarxlash loyihasi. Uztarxloyiha, arx. M.Bulatov; 2. Tarxlash loyihasi 1954 y O'zdavloyiha; 3. Tarxlash loyihasi 1968 y O'zdavloyiha. Shaharni tarixiy rivojlantirish sxematik tarxi. Ma'muriy markaz; 2. Registon yonidagi yangi ob'ektlarni qurilishi. Toshkent ko'chasi qurilishi bo'yicha loyihaviy takliflar. 3. Eski va yangi shaharni o'zaro bog'lovchi shaharni rivojlantirish sxemasi, O'zshaharsozlik LITI.

Shaharsozlik. Yangi shaharlar. Navoiy. Shahar markaziy qismi. Umumiy ko'rinish, tarx sxemasi. 1. Navoiy. A.Navoiy haykali, qurilish fragmenti, 2001 y.; 2. Navoiy.“Farxod” madaniyat uyi oldidagi maydon, tarx sxemasi; 3. Navoiy shahri. Shahar markazi ma'muriy-jamoat sxemasi, 1963-1970 y.. arxitektorlar A.Korotkov, I.Orlov va b.

Turar joy arxitekturası. 1950-1980 yy. Turar-joy majmualari. Chilonzor mavzesi. Birinchi turar joylarini tarxlash, 1956-1957 yy. O.Rushkovskiy va boshq.

Toshkent. Shahar B-7 janubi-g'arbiy mikrorayoni qurilishi va tarxi. 1960-1962 yy. Arx-lao L.Adamov, G.Aleksandrovich va b.

Toshkent. 1966 yildagi zilziladan keyingi qurilgan Toshkent mikrorayonlari. 1. TS-7 mikrorayondagi 9-qavatli turar joy binosi, Kiev ZNIIEP; 2. TS-4, TS-5, TS-6 mikrorayonlari, 1966 y. Moskva shahri Giprogor; 3. St-7 mikrorayonlari (Ukraina), 1966 y.; 4. St-27 mikrorayoni, uni qurilishi; 5. TS-5 mavzesini yuloklangan turar joy binolari bilan barpo etilishi; 6. Toshkent. “Kalkovuz” sinov

mikrorayoni qurilishi (TS-19) loyihasi, 1978 y. Arx-lar S.Adqlov, A.Kossinskiy, G.Korobstev; 7. St-27 mikrorayonidagi blok-sekstiyali tajriba 4-qavatli turar joy binosi; 8. Monolit temirbetondan qurilgan 16 qavatli turar joy binosi, 1985 y. arx. O.Aydinova.

Jamoat binolari 1950-1980 yy. Toshkent. "Paxtakor" stadioni; 1955 y., arx-lar M.Bulatov, I.Karash. Toshkent. San'at saroyi, 1964 y., arx-lar V. Berezin, S.Sutyagin va b. 3. Toshkent Davlat Universiteti bosh binosi. 1977 y. arx-lar E.Kalashnikova va b.2. Toshkent. O'zbekiston rassomlari uyushmasi ko'rgazma zali, 1974 y.; 3. Sochidagi "O'zbekiston" sanatoriyasi; 4. Sochidagi "O'zbekiston" sanatoriyasi kichik arxitektura shakllari. 1. Toshkent shahri. "Samarqand-Darvoza" choyxonasi; 2. Samarqand. Registon maydoni oldidagi toshkent ko'chasini qurilishi bo'yicha loyihaviy takliflar; 3. Nukus. Musiqali drama teatri binosi. Umumiy ko'rinishi, 2-qavat tarxi; 5. Navoiy shahri. Markaziy maydon. Majlislar uyi, 1980 y.; 5. Toshkent. "Moviy gumbazlar" kafesi, 1970 y.

Tarixiy shaharlarni qayta qurish muammolari. Qo'qon. Musiqali drama teatri va madaniyat markazi. Qo'qon. Arxitektura yodgorliklari. Toshkent. Chorsu hududini qayta qurish. Toshkent. Xalqlar do'stligi (Istiqlol) maydoni. Xalqlar do'stligi (Istiqlol) saroyi.

1.2. Zamonaviy shaharlarni qayta qurish.

O'zbekiston shaharlari qurilishi va loyihalashining o'tgan yillardagi amaliyoti ilmiy tadqiqotlarini umumlashtirish va sistemalashtirishni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular hozirgi kun sharoit va vazifalariga mos kelmaydi, zamonaviy shaharsozlik tarxlashiga printsipial jihatdan yangi yondoshish talab etiladi. Avvalgi, limitlangan va ortiqcha detallashtirilgan ishlanmalardan farqli o'laroq, hozirgi paytda shaharsozlikning aholi farovon turmushini ta'minlaydigan muammolari hal qilinmoqda. Shaharlar bosh tarxlarida zudlik bilan eski shahar infratuzilmasi echimini hal etish, madaniy merosni saqlab qolish, bog'– park san'atini qayta tiklash va ekologiyani yaxshilash, muhandislik– transport va boshqa xalq xo'jaligi tarkiblarini yangi ustuvor yo'nalishlarini tanlashni talab etadi. Bu borada O'zbekistonda jamiyat taraqqiy etishi ijtimoiy–iqtisodiy

xususiyatlari bilan bog'liq shaharsozlikni rivojlantirish yangi bosqichi boshlandi. Shaharsozlik va arxitektura masalalariga alohida e'tibor qaratib, mamalakatimiz Prezidenti I.A.Karimov rahbarligidagi hukumat a'zolari mustaqillikka erishilgan birinchi kunlardan oq direktiv hujjatlar qabul qilgan:

- "Shaharsozlik qonuni" mstomalaga kiritilgan (2002 y.). bu qonun shaharsozlik amaliyoti uchun muhimdir.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 26 apreldagi "Shaharsozlik va arxitekturani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori;

- "Shahar tipidagi aholi yashash punktlari va tuman markazlari, shaharlar qurilishi va bosh tarxlarni ishlab chiqish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" (2000 yil 14 avgust № 9 320);

- "Shahar tipidagi aholi yashash punktlari va tuman markazlari, shaharlar qurilishi va bosh tarxlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida" (№ 165 2005 yil 30 avgust).

Respublika arxitektorlarini shaharsozlik borasidagi ijodiy faoliyati yangilangan "ToshkentboshplanLITI" singari loyihalash va ilmiy-tadqiqot institutlarida olib borilmoqda ("Toshkent shahri bosh tarxi va shahar oldi mintaqasini 2015 yilgacha bo'lgan davr sxemasi", "Toshkent viloyati tuman tarxlash sxemasi", "Chimyon-Chorvoq dam olish zonasini rivojlantirish sxemasi" va b). "Uzshaharsozlik" instituti tomonidan zamonaviy shaharlarni yangi talablar asosida qayta qurish, Namangan, Navoi, Qo'qon, Termez va b. shaharlarning bosh tarxlari va detalli tarxlash loyihalari tuzib chiqilgan. Mustaqillik yillaridagi asosiy shaharsozlik hujjati vazifasini o'taydigan, uning yordamida yangi sharoitlarda shaharsozlik tarxini ishlab chiqishga uringan birinchi yirik ish "Toshkentboshplan" instituti tomonidan yaratilgan "Toshkent shahrini 2015 yilgacha bo'lgan davrga rivojlantirish bosh tarxi sxemasi"dir. "Bosh tarx sxemasi" mustaqil davlat poytaxti sifatida O'zbekiston ijtimoiy– iqtisodiy rivojlanishini o'zida aks ettiruvchi, avvalgiga nisbatan shahar muhiti va infratuzilmasi sifat standarti yuqori bo'lgan, etakchi shahar Toshkentning ketma– ket rivojlanishini ko'zda tutadi. Loyihaning

diqqatga sazovor joyi shahar va uning shahar oldi mintaqasini birgalikda rivojlantirish tarxi tuzilganligidadir.

1.3. Shaharsozlik va urbanizatsiyalash asoslari

Shaharsozlik – shaharlar va aholi punktlarini loyihalash va qurilishi nazariyasi va amaliyotidir, uning yordamida loyihalash va qurilish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, sanitar-gigienik, texnik-qurilish, transport va me'moriy-badiiy masalalar kompleks hal qilinadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, aholini joylashtirish sistemasini tanlashda shahar yoki poselka rivojlanish istiqbollari, tabiiy va hududiy resurslardan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish, aholi sonini o'sishi va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni optimal tashkil etishni inobatga olib, hal etiladi.

Sanitar-gigienik vazifalar aholi yashashi uchun sog'lom sharoitlarni yaratish, seliteb va sanoat mintaqalri orasida sanitarhimoyalash mintaqalarini aniqlash, ko'kalamzorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, shovqin va tuproq, havo va suv havzalarini ifloslanishini oldini olishni ko'zda tutadi.

Issiq iqlimli hududlarda sanitar-gigienik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun tashqi muhit optimal mikroiklimi yaratish, quyoshdan himoya, binolarning zaruriy yo'nalishini belgilash, hududlarni quritish yoki suv bilan ta'minlash hamda qulay shamol tartibidan foydalanish mumkin.

Texnik-qurilish masalalari qurilish uchun tanlangan hudud muhandislik-geologik sharoitlarini o'rganish, qurilish zamonaviy vositalari va darajalarini aniqlash, transport va yo'lovchi yo'llari rastional sistemalarini tanlash, hududni muhandislik jihatdan tayyorlash va injenerlik obodonolashtirish (suv quvuri, kanalizastiya, issiklik, sovuq, gaz va elektr bilan ta'minlag, past elektr quvvatli aloqa va b.) bo'yicha chora- tadbirlar ko'rish bilan bog'liq hal etiladi.

Me'moriy- badiiy vazifalar shahar umumiy arxitektura- tarxiy tarkibini, magistrallar va ko'chalar tarmog'ini, mahalliy tabiiy- iqlim xususiyatlarini, milliy-maishiy an'analar, tarixiy obidalar va xalq madaniyati namunalarini inobatga olib, shahar alohida qismlarini, shu jumladan, markaz kompozitsiyalarini funktsional qurilishini aniqlash bilan bog'liq.

Shaharsozlik masalalarini echishda majmuaviylik majburiy shart bo'lib hisoblanadi. Masalaga majmuaviy yondoshmagan holda shaharning sun'iy yaratilgan muhiti aholi mehnat qilishi, madaniy– maishiy ehtiyojlarini qondirishi va dam olishi uchun normal sharoitlar bilan ta'minlay olmaydi.

Shaharlar vaqt o'tishi bilan rivojlanib, jamiyat muayyan ehtiyojlarini qondirib, tashqi ko'rinishi o'zgarib boradi. Tarixan shakllanib bo'lgan shahar ijtimoiy hayoti esa mahalliy aholi dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Ijtimoiy va funktsional omillar bilan bir qatorda geografik muhit va mikroiklim ham shahar shakllanishining muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Geografik muhit, jamiyat jarayonlarining tabiiy negizi bo'lib, doimiy ravishda insonlar jamiyatiga o'z ta'sirini o'tkazib keladi, lekin turli tabiiy sharoitlar muhit shakllanishiga kuchli ta'sirini o'tkazib, uning o'sishini tezlashtirida yoki sekinlashtiradi.

Shahar – nafaqat aholi joylashgan joy, balki sifat jihatidan murakkab tarkibli, ijtimoiy, fan–texnika, iqtisodiy, iqlim va boshqa talablarga javob beradigan funktsional vazifasiga ko'ra tashkil qilingan hududdir.

Zamonaviy shaharlarda insoniyat ega bo'lgan ulkan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Kapitalistik dunyoda bu boyliklar notekis taqsimlangan, bu jihatlar shaharsozlikda va shaharlarni ziddiyatli rivojlanishida o'z aksini topadi.

Shahar va moddiy madaniyat o'zaro yaqin bog'liq. Shaharlar tez o'sishini ta'minlab beruvchi urbanizatsiya va industriallashtirish, ularda moddiy va ma'naviy boyliklar to'planishi hamda aloqa hamma turlarini jadallashtirish jarayonlari sodir bo'lib boradi.

Issiq iqlimli hududlarda shaharsozlik muammolari ko'ndalang turadi, bu hududlardagi me'yordan ortiq quyosh radiastiyasi, qum bo'ronlari, past darajadagi namlik aholi yashaydigan joylarni tashkil etishni murakkablashtiradi.

Shaharsozlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi fan va texnika taraqqiyotining o'sishi bilan birgalikda issiq iqlimli mintaqalarda shahar hududini kengayishi, ularda yashaydigan aholi zichligi bilan bog'liq murakkab muaammolar paydo bo'ldi.

Inson hayoti va jamiyatdagi munosabatlar atrof–muhit, tabiiy sharoit bilan bog'liq holda kechadi. Shu sababli tabiatdan foydalanish muayyan masalalari xalq xo'jaligi, fan–texnika taraqqiyoti va shaharsozlik rivojlanishi bilan uzviy aloqada hal etilishi lozim.

Hayot muhiti – nafaqat tabiiy omillar va iqtisodiy sistemalar bo'lib, balki inson tomonidan yaratilgan sun'iy muhit hamdir. Hayot muhitini belgilovchi sharti uning mikroiklimi tavsifidir. Yer yuzidagi iqlim turlari inson hayoti va faoliyatining turli shart–sharoitlarini belgilab beradi; bir tomondan, uni tabiat inijliklariga ko'nikishga majbur etsa, ikkinchi tomondan – tabiat kuchlarini o'zgartirishga undaydi.

Issiq hududlardagi tabiiy–iqlim sharoitlari, yildagi issiq kunlar soni ko'pligini e'tiborga olib, turar joy tashqarisidagi fazodan foydalanish maqsadga muvofiqligini belgilab beradi. Issiq iqlim sharoiti ma'lum darajada inson organizmiga salbiy ta'sirini o'tkazadi, bu esa uni hayot faoliyati uchun optimal sharoitlar yaratish chora–tadbirlarini ko'rishga undaydi.

Ming yillar avval buyuk Ibn Sino “Tib qonunlari”da shaharlar qurilishi uchun joy tanlashda mahalliy mikroiklim va tabiiy xususiyatlarga bog'liq masalalarga katta e'tibor qaratgan: “O'ziga yashash uchun joy tanlagan inson u erning tuprog'i, er qanchalik balandda yoki pastda joylashganligi, ochiq yoki yopiq joymi, suvi qanday, ochiq va tashqariga chiqadimi, balandda yoki pastda joylashganligini, mazkur joyda shamol esadimi, shamollar sog'lommi yoki sovuqmi hamda uning yonida qanday dengiz, botqoqlik, tog' va konlar borligini aniq bilishi lozim” va h.k.

Hozirgi kunda bizning yurtimizda hamda dunyoning boshqa qator ilmiy–tadqiqot institutlarida shaharsozlik chora–tadbirlari majmuasini aniqlash asosini tashkil etuvchi issiq iqlim tabiiy–iqlimiy sharoitlarini ilmiy asoslangan baholash usullari ishlab chiqilmoqda. Bu ishga olimlar, iqtisodchilar, iqlimshunoslar, vrachlar va fanning boshqa sohalari qator mutaxassislari jalb qilingan va ularning ish faoliyatiga quyidagi masalalarni hal etish kiradi:

- shaharsozlik loyihasini iqlim asosini aniqlovchi omillarni tahlil qilish (shu jumladan, mikroiklim, qurilish fizikasi, inson fiziologiyasi kommunal gigienasi va b.);

- shaharsozlik zamonaviy fan va amaliyoti hamda xalq me'morchiligi ilg'or tajribalari materiallarini o'rganish;

- urbanizatsiyalashtirilgan muhit chegarasidagi mikroiklim kuzatishlari usullariga ishlov berish;

- mahalliy mikroiklim shakllanishiga shahar qurilishi turli usullarini ta'sirini tadqiq qilish.

Bunday tadqiqotlar natijasida shahar muhiti iqlim modelini tuzish va quyidagi asosiy shaharsozlik loyihaoldi materiallarini ishlab chiqish mumkin: mikroiklimi bo'yicha hududlash xaritasi, muayyan joy uchun bioqulaylik tavsifi, quyoshdan himoya moslamalarini qo'llash, qum bo'ronlari, past namlik bilan kurashish bo'yicha me'yor va qoidalar ishlab chiqish, issiq iqlim omillarini va sanoat zararli chiqindilarini inson organizmiga salbiy ta'sirini neytrallashtirish bo'yicha sanitar–gigenik talablarni belgilash. Insoniyat hali ob–havoni boshqarish, iqlimni o'zgartirish, quyosh energiyasidan xalq xo'jaligida etarlicha foydalanish salohiyatiga ega emas.

Hamma tarixiy davrlar shaharsozligiga xos jihat o'sha davr muayyan talablari, tabiiy–iqlim sharoitlarini hamda kelajak ilg'or chizgilarini o'zida mujassamlashtirishidadir. Dunyo tsivilizatsiyasi qadimiy markazi – qadimiy Messopotamiyaga shaharlar qurilishiga oid ilk yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlar mansub. Antik davr buyuk shaharsozi rimlik me'mor Vitruviy bo'lib, olim tomonidan hozirgi kungacha o'z qadrini yo'qotmagan shaharsozlik va arxitekturaga doir tajribalar umumlashtirilgan va qurilish qoidalari sistemalashtirilgan “Arxitektura haqida o'nta kitob” yozilgan. Qadimiy hindistonlik Monasar asarida ko'chalari to'g'ri to'rtburchakli tarmoqli shahar shakli rivojlanishiga ta'rif berilgan. Bu traktada shuningdek, issiq iqlim sharoitida shahar qurilishi uchun eng qulay joy tanlash printsiplari keltirilgan. MDH hududida mashhur qadimiy shaharlar qatoriga eramizdan avvalgi to'rtinchi asrda

bunyod etilgan Jombos–Qal’a–Xorazm shahri kiradi, uning tarkibiga ikkita umumiy uy kiradi, ular orasidan olov ibodatxonasiga olib boradigan ko’cha o’tgan. Umumiy uylar tarxlanishida hozirga shahartarxi shakllanishi kuzatiladi.

Feodalizm shaharsozligida ko’cha tarmog’ini radial– xalqali tashkil etish keng qo’llanilgan, bunga sabab, mahkam qo’rg’onlar atrofida hunarmandlar uy–joylari joylashganligi bo’lgan. Antik davrda shaharsozlik ayniqsa gullab yashnagan. Yunon shaharlarida gippodamali sistema nomini olgan to’g’ri to’rtburchakli taarhlash keng qo’llanilgan. Qachonlardir Rim imperiyasi bilan chegaradosh bo’lgan ko’plab shaharlar, qisqa qulay aloqalar yaratilishi va issiq iqlim sharoitida hududni yaxshi shamollatish imkonini beruvchi bu sistemani yanada rivojlantirib borganlar.

Avtomobilsozlikni rivojlanishi va shaharlardagi sanoat sohalarini o’sishi, ularning ijtimoiy–iqtisodiy va me’moriy–tarxiy tarkibini qayta tiklanishiga olib keldi. Shaharsozlik oldida qurilishni rejali boshlash uchun zarur joy tarxi loyihasini tuzish, transport va sanoat rayonlari, yirik shaharlar injenerlik uskunalarini etkazib berish muammosi paydo bo’ldi. Markaziy Osiyo – tabiiy xilma–xilliklar, qumliklar, dashtlar, gullagan bog’lar va uzumzorlar, qorli tog’lar, chuqur daralar va cheksiz yashil vodylarga to’la keng o’lkadir. Uning markaziy qismi (O’zbekiston)dan qadim–qadimdan Osiyoni Evropa va Shimoliy Afrika bilan bog’laydigan karvon yo’llari o’tgan. Markaziy Osiyoning VII–VIII asrlarida paydo bo’lgan qadimiy shaharlari Baqtriya, So’g’d, Xorezm va boshqalarning tarixi me’moriy obidalar, xalq qahramonlari jasurligini vasf etuvchi afsonalarda ming yillardan beri saqlanib kelmoqda. Arablar istilosi va musulmon davlatlar tashkil topishi bilan bog’liq O’rta Osiyo erta feodal davri (VIII–XI asrlar) o’zidan keyin buyuk me’moriy obidalar qoldirgan.

XI–XII asrlar konstruktiv yangiliklar paydo bo’lish, alebastr yoki yog’ochdan o’yib ishlangan noyob bezak san’ati – boy naqshlar, g’isht terish vositasida me’moriy bezak hosil qilish davri bo’lgan.

Samarqand, Buxoro, Xivada me’morchilik majmualarining buyuk namunalari saqlanib qolgan, ular orasida Registon (XV–XVII), Go’ri–Amir

(1404), Shohi–Zinda (XIV–XV), Minorai Kalon (XV–XVI), Mir–Arab madrasasi (XVI), Abdulazizxon madrasasi (XV), Nosh–Hovli saroyi, Muhammad Olimxon madrasasi, Kalta Minor minorasi – XIX asrga mansub.

XIX asr oxiri XX asrlar boshida O'zbekiston turar joy arxitekturasida respublikaning turli iqlim va geografik sharoitlarini o'zida aks ettirgan xalq asrlik tajribasi namoyon bo'la boshladi. Masalan, Buxorodagi uy yopiq ichki hovliga ega. Xivada quriladigan uyga qulay mikroiqlim yaratish maqsadida shamol aylanib turadigan baland ochiq ayvon o'rnatish xos. Yangi zamonaviy shaharlar yaratildi va ular orasida O'zbekistonning – Navoiy, Zarafshon, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod singari yosh shaharlari bor.

1.4. Shaharlar tarixiy qismini rekonstruktsiya qilish asoslari

Shahar rivojlanishi – muayyan ijtimoiy–iqtisodiy sharoitlar bilan belgilangan jarayondir. Rivojlanayotgan shaharda, uning tarixiy qadriyatlariga qaramay, me'moriy–badiiy, muhandislik–qurilish va sanitar–gigienik yutuqlari inobatga olinib, tarixiy o'zgarish va yangilanish jarayonlari kechadi. An'analar, yangilik va davom ettirish muammolari shahar hayoti va faoliyati, mikroiqlim sharoitlari, unda yashash qulayligi, o'zgarishning iqtisodiy asoslanganligi bilan bog'liq. Tarixiy shahar asosiy tarkibi uning vaqt bo'yicha shakllanish qonuniyatlari bo'lganligi sababli, bunday qonuniyatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Mikroiqlim umumiy tavsifi;
- Bosh kompozitsion o'qlar va ularni dunyo tomonlari bo'yicha yo'naltirilishi;
- Ustun shamollar yo'nalishi;
- Alohida obidalar orasidagi fazoviy bog'liqlik;
- Keng qamrovli qabul qilish mintaqalari;
- Tarixiy muhit;
- Joy landshafti;
- Mavjud ommaviy qurilgan ob'ektlar ta'siri va b.

Rekonstruktsiya jarayoni yangi Buxoro va Samarqand qurilishida yaqqol ko'zga tashlanadi, bu erda shahar hosil qiluvchi omillar – foydali qazilmalar –

qadimiy tarixiy qismdan bir necha barobar katta shahar yangi rayonlarini qurish zaruriyatini paydo qildi.

Har bir davr o'zining shaharsozlik va tarxiy usullari va printsiplarini ishlab chiqqan, ular esa o'z navbatida qayta–qayta qo'llanilib, an'anaviy qurilish usullariga aylanib borgan. An'ana qadriyati uning zamonaviy shahar rivojlanishiga qanchalik mos kelishi bilan aniqlanadi. Shahar rivojlanishi jarayonida yangi qurilish ishlari avvalgi davrlar muhiti yaqinida yoki chegarasida amalga oshiriladi. Shu sababli eski shaharlarda shahar fazoviy tavsiflari va tarxiy tuzilmalari transformastiyasi kuzatiladi.

Inson shaharsozlik faoliyatining ko'p qismi mavjud shaharlar keyinchalik rivojlanishiga bog'liq va uning rivojlanishi tarkibiga ijtimoiy, funktsional, texnik, kompozitsion va iqtisodiy masalalar bo'yicha qator ishlanmalar majmuasi kiradi.

Shaharlarni rekonstruktsiya qilishda quyidagi masalalar hal etiladi:

- shahar o'sishini, qayta qurilishi va tarxiy tarkibini yangilashini nazorat qilish;
- hududiy mintaqqalash va tarxiy rayonlashni tartibga keltirish;
- aholi ommaviy dam olish shakli sxemasini ishlab chiqish;
- shahar muhitini, uning havo va suv havzalarini sog'lomlashtirish, transport va ishlab chiqarish shovqinini pasaytirish;
- maksimal ko'kalamzorlashtirish va shahar fazosi aerastiyasini ta'minlash;
- me'yordan ortiq insolyastiyadan va ultrabinafsha nurlaridan himoyalanih;
- aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash;
- turar joy binolari va xizmat ko'rsatish binolarini qayta jihozlash va ularning yangi turlarini yaratish;
- korxonalardan saniitar uzilish mintaqalarini o'rnatish;
- umumshahar, umumrayon markazlarini jamoat tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirishni inobatga olib va tarixiy obidalarni saqlab qolib qayta qurish va kengaytirish;
- shahar rivojlanishi va transport soni ko'payishini inobatga olib, shahar magistral tarmoqlari, ko'chalarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish;

- tashqi transport sistemalari, yo'llar trassirovkasini tartibga keltirish;
- shahar hududini muhandislik tayyorgarligi bo'yicha chora–tadbirlar o'tkazish;
- suv quvuri, kanalizatsiya, issiqlik va gaz bilan ta'minlash tarmoqlarini yangilash va takomillashtirish va b. shular jumlasidandir.

1.5. Hududiy rejalashtirish asoslari

Rayonli tarxlash asoslari – bu iqtisodiy, injener–texnik, sanitar–gigienik, arxitekturaviy–tarxiy va boshqa chora–tadbirlar majmuasi bo'lib, rayonda aholini rastional joylashtirish hamda xalq xo'jaligi turli tarmoqlarini o'zaro bog'lash, hududdan va uning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Rayonli tarxlash vazifalariga quyidagilarni aniqlash kiradi:

- rayon istiqbolli iqtisodiy rivojlanishini (seliteb, sanoat, qishloq xo'jaligi, shaharoldi va b.);
- aholi yashash joylari turi va o'lchamlari istiqbollarni aniqlash;
- tanlangan hudud optimal o'lchovlari va unda aholi joylashtirishni;
- hudud zahiralarini, qurilish hamma turlarini amalga oshirish uchun maydonlarni;
- transport yo'llari va mahalliy aloqalarni.

Rayonli tarxlash sxemalari mamlakatni xalq xo'jaligi rivojlanishi rejasi asosida tuziladi va ulardan shahar, poselka va turli vazifali alohida binolar bosh tarxlarini tuzishda foydalaniladi. Rayonli tarxlash sxemasi tarkibiga uni rivojlantirish masalalarini hal etishning quyidagi jihatlari kiradi:

Iqtisodiy muammolar (sanoat, shaharoldi va qishloq xo'jaligi sohalarini to'g'ri joylashtirish va nisbatini samarali tanlash);

Rayon xalq xo'jaligi profili (ustun profili va uning ilg'or usullarini ishlab chiqish);

Aholi yashash punktlarini tashkil etish va ularga aholini joylashtirish (aholini joylashtirish sistemalari, aholi sonini istiqbolli hisobi, boshqa rayonlar bilan aloqa printsiplari);

Tabiatni o'zgartirish (iqlimni muhofaza qilish, uning salbiy xossalarini inobatga olish, ko'kalamzorlashtirish, suv bilan ta'minlash);

Muhandislik jihatdan obodonlashtirish (muhandislik jihozlash ko'rsatkichlari – suv quvuri, kanalizatsiya, elektr va issiqlik bilan ta'minlash);

Transport (transport, yuk turi, ularning harakat jadalligi);

Dam olish joyi (ommaviy dam olish joyi, turizm va sog'lomlashtirish tashkilotlari hududlari, ularning sig'imi, xizmat ko'rsatish doirasi, transport aloqalari);

Qurilish navbati (moliyaviy harajatlar, hisobiy muddatlar, istiqbolli ziddiyatlar).

Rayonli tarxlash turlari: sanoat, seliteb, qishloq xo'jaligi, kurort, turizm, dam olish zonalari, shahar oldi rayonlarini tarxlash. Ularning har biri uchun mos belgi, yo'riqnomalar, loyihalash talab va me'yorlari mavjud.

1.6. Issiq iqlim mintaqalarida joylashgan shaharlar bosh tarxi

loyihasining tarxlash ko'rsatkichlari

Shahar qurilishi uchun sanitar–gigienik jihatdan sog'lom va rel'efi bo'yicha qulay hudud tanlanadi, bunda mehnat qilish, yashash va dam olish joylarini rastional joylashtirish imkoniyatlari hamda hudud tabiiy sharoitlari va texnik–iqtisodiy, sanitar–gigenik, me'moriy–tarxiy va b. ko'rsatkichlar bo'yicha variantlar solishtirilishi tahlili asos qilib olinadi.

Shaharsozlikda tabiiy va sun'iy muhitni uyg'unlashtirish qator landshaft, tuproq va boshqa tabiiy sharoitlar hudud rel'efi, suv bosish darajasi va grunt suvlari sathi, ularning fizik–mexanik xossalari, seysmik balliligiga bog'liq. Tarxiy cheklovlar sxemalarining mavjudligi hududni funktsional jihatdan mintaqalash sxemasini ishlab chiqish imkonini beradi, bunda shahar transport harakatlanishini, trassalash, obodonlashtirishning muhandislik tarmoqlarini tashkil etish masalalari ham hal etiladi.

1.6.1. Issiq iqlimli mintaqalarda shahar aholisi sonini hisoblashasoslari

Shahar bosh tarxini tuzishda uning istiqbolli rivojlanishi va birinchi navbatdagi qurilishi uchun hudud o'lchamlari va aholisi soni belgilanib olinadi. Shaharni keyinchalik rivojlantirish hisobiy muddat tashqarisida zahiradagi sanoat, turar joy va boshqa vazifali hududlar rivojlanishi yo'nalishi aniqlanib amalga oshiriladi. Mehnat faoliyatiga ko'ra shahar aholisi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Shahar hosil qiluvchi – shahar hosil qilish ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalarda, shu jumladan sanoat va qishloq xo'jaligi, og'ir, yengil va oziq ovqat sanoati korxonalarida hamda omborlar va modiy–texnika ta'minoti bazalarida, qurilish montaj tashkilotlarida, tashqi transport korxona va tashkilotlarida band insonlardan tashkil topadi;

Xizmat ko'rsatuvchi – mazkur shaharga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda band insonlar;

Va, nihoyat, havaskor bo'lmagan guruh, ularning tarkibiga bolalar, nafaqaxo'rlar, uy xo'jaligi bilan band shaxslar, oliy o'quv yurtlari va kollejlari talabalari, bemorlar va qariyalar kiradi.

Yirik va katta shaharlar uchun xizmat ko'rsatuvchi guruh soni aholining loyihaviy soniga nisbatan aholi yosh tarkibi, alohida xizmat ko'rsatish turlari darajasi va qamrab olingaligiga ko'ra birinchi navbatdagi qurilish uchun 19–21% va hisobiy muddatga 23–27%, o'rta va kichik shaharlar uchun mos ravishda 15–17% va 19–22 % deb qabul qilinadi.

Shaharlar aholisi loyihaviy sonini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi (SHNQ 2.07.01–03*–2009, 13 ilova): 68–betdagi formula, bu erda A – shahar hosil qiluvchi kadrlarning absolyut soni, T – mehnatga yaroqli aholi soni, % da; a – mehnatga layoqatli, uy va tomorqa xo'jaligida band aholi soni, % da; b – mehnatga layoqatli yoshdagi talabalar soni, % da; n – ishlaydigan nafaqaxo'rlar soni, % da; m – ishlaydigan nafaqaxo'rlar soni, % da; B – aholining xizmat ko'rsatuvchi guruhi soni, % da.

Shaharsozlik amaliyoti shuni ko'rsatadiki, issiq iqlimli hududlarda shahar qurilishi va tarxlanishi loyihasini ishlab chiqishda bu rayonlar shahar aholisi istiqbolli sonini aniqlashga ma'lum o'zgartirish kiritish zarur.

Yuqorida aytib o'tilganidek, shahar aholisi soni, shahar hosil qiluvchi guruh soniga ko'ra aniqlanadi. Mehnat balansi usuli deb nom olgan bu usul bizning holatda biroz o'zgartirilishi lozim.

1.7. Shahar va poselkalar sinflanishi

SHNQ – 2.07.01–03 da aholi yashash joylarini qabul qilingan sinflanishi bu hududlarning ma'muriy bo'linishi va xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga ko'ra qabul qilingan, lekin aholi soni aniqlovchi omil bo'lib hisoblanadi.

Shahar aholisi son ko'rsatkichiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Aholi soniga ko'ra shahar va qishloq aholisi yashash joylarining taqsimlanish jadvali

1.1-jadval

Shaharlarguruhlari	Shaharlar aholisi soni, ming kishi	Shahar poselkalari, ming kishi	Qishloq aholi punktlari aholisi, ming kishi
Eng yirik	1000 dan ortiq	–	–
Yirik	250 dan ortiq 1000 tagacha	10 dan ortiq	5 dan ortiq
Katta	100 dan ortiq 250 tagacha	5 dan ortiq 10 gacha	3 dan ortiq 5 gacha
O'rta	50 dan ortiq 100 ta gacha	3 dan ortiq 5 gacha	1 dan ortiq 3 gacha
Kichik	50 tagacha	3 gacha	1 gacha

Shaharlar va boshqa aholi yashash punktlari ularning ma'muriy, xalq xo'jaligi va madaniy–tarixiy ahamiyati hamda joylashish joyi, tabiiy–iqlimiy sharoiti, me'moriy va madaniy obidalarining mavjudligi va boshqa mahalliy xususiyatlariga ko'ra sinflanadi.

Poytaxt shaharlar o'zining alohida xususiyatlariga ko'ra alohida mustaqil guruhga mansub bo'ladi. Poytaxt shaharda uning va butun mamlakatni boshqarish

funktsiyalarini rivojlanishi bilan bog'liq faoliyatning har xil turlari jamlanadi. Shaharda umumdavlat boshqaruvi organlari va madaniy–jamoat organlarini jamlanishi poytaxt va shaharni alohida jamoat ishlari markazlarini ikkita arxitekturaviy–tarxiy majmua ko'rinishida shakllantiradi. Shu sababli poytaxt shaharlarda ikkita ma'muriy–jamoat markazari–umumdavlat va shahar markazlari ko'zda tutiladi.

1.8. Issiq iqlim sharoitidagi shaharlar tarxiy tarkiblari alternativasi

Muayyan joy mikroiklim sharoitlari shaharsozlik tarkibi shakllanishiga, shahar–turar joy mintaqasi kompozitsion ko'rinishiga o'z ta'sirini o'tkazadi, uni tashkil qilishning spetsifik jihatlari va me'moriy ko'rinishini belgilab beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, muayyan tarxlash uchun joyning tabiiy–iqlim holati quyidagi iqlim ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi: quyosh radiatsiyasi, harorat, namlik, shamol tartibi va h.k. Iqlimshunoslar mikroiklimni shu joy geografik muhitiga yil fasllari davomidagi ta'sirini inobatga olib, kompleks baholash usulidan foydalanishni tavsiya etadilar. Ayrim holatda, shahar arxitekturaviy–kompozitsion echimida, shaharni cho'l issiq nafasi–qum bo'ronlaridan, yuqori quyosh radiatsiyasidan himoya qilish zarur bo'lsa, boshqasida –*shittlar* bilan kurashish masalasini havo sovuq oqimlarini qo'llab, hal etishga to'g'ri keladi.

Shu jihatdan, issiq iqlim sharoitida shaharlar qurilishi va tarxlashda muayyan joy tabiiy–iqlimiy sharoitlari xususiyatlarini inobatga olish shaharsozlikda muhim o'rin tutadi.

Issiq iqlimli sharoitlarda joyning turli mikroiklimiy omillarini inobatga olib baholashda hudud landshaft sharoitlari va rel'efi xususiyatlarini ham qamrab olish zarur, chunki turli shaklli rel'eflarda harorat tebranishlari, nishablar tikkaligi va yo'nalishi, tuproq rangi va tarkibi, o'simlik qatlami turi va b. bog'liq bo'ladi; shu vaqtning o'zida faqat shu joygagina xos shamol tartibi spetsifik sharoitlari shakllanadi. Shahar tarxiy tarkibi – shahar hududining o'zaro bog'liq elementlari uyg'unlashgan sistemasi bo'lib, shahar bosh tarxi loyihasini tuzish va ko'cha tarmoqlarini belgilash uchun asos vazifasini o'taydi. Shahar ko'cha tarmog'i tarxiy

sistemi, uning yo'nalishlari tabiiy-iqlimiy muhitga ta'siridan o'zgarishi mumkin va quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- mazkur geografik kenglik uchun geliometrik o'q (yilning eng issiq davridagi sutka mobaynidagi tashqi havo maksimal harorati paytidagi quyosh azimutidan foydalanib aniqlanadi);

- issiq–nam iqlim sharoitidagi qurilish aerastiyasiga qulay ta'sir etuvchi ustun shamollar mavjudligi (brizlar, passatlar va b.);

- quruq issiq iqlim sharoitidagi qurilishga ustun qumli va issiq shamollar zararli ta'siridan himoya qilish shartlari.

Shahar bosh tarxida arxitekturaviy–fazoviy kompozitsiyani aniqlash shahar tarkibiy–tarxiy rivojlanish sharoitini hisobga olishga asoslangan, ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- Shahar rivojlanish turi va yo'nalishini asoslash;

- Butun shahar va uning alohida qismlari uchun hududiy zahiralarini belgilab olish;

- Aholini joylashtirish va ishlab chiqarishdagi mehnat joylariga qayta taqsimlash dinamikasi;

- Tarkibni bosqichma– bosqich rivojlanish sxemasini aniqlash;

- Shahar rivojlanishining birinchi navbatini belgilab olish.

Arxitekturaviy–tarxiy tarkib qabul qilinganidan so'ng, tabiiy va tarixiy–geografik sharoitlar va xalq xo'jaligi rivojlanishi yo'nalishiga ko'ra, yopiq yoki chiziqli turdagi bosh tarx loyihasi sxemasi tuziladi. Yopiq tarkibli bosh tarx sxemasi issiq quruq iqlim sharoitida joylashgan ixcham tarxli shaharlar uchun xosdir. Bunday shahar radial–xalqali yo'nalishlar chegarasida rivojlanadi. Chiziqli tarkibli bosh tarx loyiha bo'yicha belgilangan yo'nalishlarda ketma–ket va erkin rivojlanib, har bir bosqichda butunning tugallangan qismi bo'lishi bilan farqlanadi, shaharni chiziqli tarxlab, markazni bo'ylama kompozitsion o'q bo'yicha rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shahar hududini tasmasimon qurilishi salbiy tomoni – uning cho'zilib ketganligi va va ayrim tumanlarni asosiy markazdan uzoqda

joylashganligi, bu masalani hal etish uchun esa tezkor transport rivojlantirilishini talab etishidir.

Bosh tarxlar hisobiy muddatlar bilan chegaralanib, bu chegarada optimal echimli qilib ishlab chiqiladi, hisobiy muddat chegarasidan oshib ketgan shaharga kelsak, amaliyotda bironta holat yo'q–ki, bosh tarxni belgilangan muddatdan tashqarida keyinchalik o'zgartilmagan bo'lsa.

Shu tufayli, shahar optimal o'lchovlarini aniqlashda, bosh tarxda shahar istiqbolli rivojlanishi uchun fazoviy kengayishni tashkil etishni ta'minlash lozim, shahar arxitekturaviy–tarxiy tarkibi uning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi dinamikasini inobatga olinib, tuzilishi lozim. Faqatgina shaharning o'zgartirilishi imkoni bor tarxiy tarkibi asosiy funktsional mintaqalarni o'sish jarayonida o'zaro mustahkam aloqalarni saqlab, rivojlantirish imkonini beradi.

1.9. Shahar funktsional mintaqalanishi

Joyning tabiiy sharoitlari – rel'efi, suv havzalari, yashil mavzelaarning mavjudligi va h.k. – shahardagi arxitekturaviy–tarxiy va funktsional aloqalarni tashkil etish talablarini belgilab beradi.

Mikroiqlimiy xususiyatlar, birinchi navbatda, shaharning turli mintaqalarini vazifasiga ko'ra qurilishiga, ularning o'lchamlari va shakliga muhim ta'sirini o'tkazadi, mintaqalarni taqsimlash va ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni optimal variantlarini aniqlab beradi. Masalan, ultrabinafsha nurlari ta'siri sanoat korxonalari va transportdan ajralib chiqadigan tutunlar tufayli pasayadi. Shu munosabat bilan zararli sanoat korxonalarini shamol gulini inobatga olib, aholi yashash punktlaridan uzoqroqqa joylashtirish, tirband avtomobilmagistrallari va transport moslamalarini turar joylaridan rel'ef va o'simliklar olami bilan to'sib qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Issiq iqlim sharoitli mintaqalarda shaharlar markaziy qismi kuchli qizishga duchor bo'lganligi sababli, maksimal darajada hududni ko'kalamzorlashtirish, rivojlangan suv inshootlari sistemasini o'rnatish va imkon darajasida rel'eflar o'zgarishidan foydalanib, soya joylarga xizmat ko'rsatish tashkilotlarini o'rnatish zarur. Shuningdek shahar funktsional mintaqalarini ajratib turuvchi, tashqaridan

salqin shamollarni jalb qiluvchi hamda joylarda konveksion oqimlarni shahar aerastiyasi sifatida hosil qiluvchi yashil yo'laklar o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Shahar hududi funktsional vazifalariga ko'ra, o'zaro bog'liq asosiy mintaqalar – shahar markazi, seliteb, sanoat, kommunal–ombor, transport, sanitar–himoya va park mintaqalariga bo'linadi.

Shahar markaziy qismi. Umumshahar markaziy qismini shahar ma'muriy–boshqaruv, madaniy–oqartuv va savdo funktsiyalarini ta'minlovchi hamma tashkilotlar tashkil qiladi.

Asosiy transport kommunikastiyalari kesishgan joyda, odatda, shahar markazi yadrosi shakllanadi, shu asosda butun shahar tarxi kompozitsion asosi belgilanadi. Shahar markazidan tashqari yangi rivojlanayotgan shaharlarda ixtisoslashgan markazlar – sport, ilm, sog'liqni saqlash va b. uchun joylar ko'zda tutiladi.

Seliteb mintaq. Hududi bo'yicha ancha katta joy bo'lib, uning tarkibiga turar joy qurilish ob'ektlari, odamlarni yashash va ish joylari hamda madaniy–maishiy tashkilotlar va korxonalari bilan bog'laydigan shahar ko'chalari sistemalari kiradi. Seliteb mintaq uchun sanitar–gigienik jihatdan sog'lom, yaxshi insolyastiyalanadigan i shamollatiladigan hududlar ajratiladi. Sanoat mintaqasiga nisbatan seliteb mintaq shamol esadigan tomonda va daryo oqimi yuqori qismiga joylashgani ma'qul. Seliteb hududda turar joy binolari majmualari, ma'muriy ho'jalik, madaniy va xizmat ko'rsatish tashkilot va korxonalari, zararsiz ishlab chiqarish sanoat korxonalari, turar joy rayon va mikrorayonlari joylashtiriladi. Gidrometeoxizmat ma'lumotlariga asosan, yilning yozgi va qishki fasllari o'rtacha shamol guli bo'yicha shamollar ustun yo'nalishini qabul qilish lozim.

Sanoat mintaqasi. Uning tarkibiga yirik sanoat korxona va inshootlari, temir yo'l va avtomobil yo'llari, zavod oldi maydonlari va h.k.lar kiradi, bu hudud turar joy rayonlari va ularning markazlari bilan yaqin bog'liqlikda bo'lishi zarur. Sanoat mintaqalarida og'ir yuk aylanmalariga ega bo'lgan korxonalar mavjudligi

tufayli, bunday mintaqalar temir yo'llari va port inshootlariga nisbatan shunday joylashtirilishi lozim—ki, bunda kirish yo'llarini ular bilan bog'lash qulay bo'lsin.

Kommunal–ombor mintaqasi quyidagi omborlar va kommunal korxonalar joylashtiriladigan alohida rayonlardan iborat: ularga temir yo'l tarmoqlari xizmat ko'rsatadigan omborlar, transport barcha turlari uchun garajlar va avtoparklar, shahar kommunal xo'jaligi inshootlari (suv quvuri, kanalizatsiya va b.), shaharga ombor va kommunal xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa bino va inshootlar. Kommunal–ombor mintaqasi tashqi transport va shahar rayonlari bilan qulay bog'langan bo'lishi zarur.

Tashqi transport mintaqasi – unga tashqi aloqalar vositalari, temir yo'l va stanstiyalari, port inshootlari, aerodromlar, avtovokzallar, daryo va dengiz portlari kiradi. Suv, temir yo'l va avtomobil yo'llari tashqi transport hududi shunday joylashtirilishi lozim—ki, bunda turar joy rayonlari vokzallar va portlar bilan qulay bog'lanishi va temir yo'llar seliteb hududni kesib o'tmasligi kerak. Daryo va suv havzalariga shahardan erkin o'tish mumkin bo'lishi kerak.

Sanitar–gigienik himoya mintaqasi seliteb mintaqani yaqinda joylashgan sanoat korxonalari zararli ta'siridan himoyalash uchun mo'ljallangan. Bu mintaq tarkibiga o'simliklar dunyosi ekilgan va ochiq fazolar kiradi, uning doirasiga turar joy binosini, madaniy–maishiy xizmat ko'rsatish tashkilot va korxonalari, parklar, sport maydonchalari va h.k.lar joylashtirilishi mumkin. Bu mintaqaga, shuningdek, qum bo'ronlari va cho'l issiq shamollaridan himoya qiluvchi o'simlik dunyosi ham kiradi.

Park mintaqasi tarkibiga umumshahar foydalanishi uchun mo'ljallangan o'simlik dunyosi sistemasi kiradi: yashil mavzalar, parklar, bog' va xiyobonlar. O'simlik dunyosi, harorat– namlik va shamol muhitini me'yorlashtirib, shu bilan birga shahar tarxi kompozitsion tavsifida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Shahar chegarasi tashqarisida shahar oldi mintaqasi joylashgan. Bu hudud shahar chegarasi bilan birikkan bo'lib, uning tarkibiga yirik yashil mavzalar va qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan yerlar kiradi. Shahar oldi mintaqasida uzoq vaqt

dam olish joylari, ayrim hollarda suv omborlari va suv olish joylari, mozorlar, chorva mollari qushxonalari, tashqi transport inshoot va liniyalari joylashtiriladi.

1.10. Arxitekturaviy– tarxiy kompozitsiya xususiyatlari

Shahar hududi funktsional mintaqalanishi sxemasi asosidauning umumiy arxitekturaviy–tarxiy kompozitsiyasi echiladi, bunda shaharning hamma mintaqalari transport vositalari harakatlanish yo'llari va o'simlikdar dunyosi sistemasida joylashgan yo'lovchilar yo'lkalari bilan uzviy bog'lanishga asoslanadi. Shahar me'moriy majmualari fazoviy tartibini belgilovchi shahar kompozitsiyasi turli arxitekturaviy majmualar va ularning tarkibiy qismlari (binolar, transport va muhandislik inshootlari, o'simlik dunyosi va suv fazolari)ni birlashtiruvchi tarxiy o'q va tugunlarga asoslanadi.

Shahar individuallik ko'rinishiga mahalliy joy tabiiy sharoitlari bilan kompozitsiyani yaqin bog'lab erishish mumkin.

Issiq iqlim sharoitida, ko'cha tarmog'ini me'moriy–fazoviy qurilishi, havo tabiiy aylanishini kuchaytiruvchi shamol yo'lklarini ko'zda tutishi lozim hamda turar joy binolari yaqinidagi ko'chalarni ustun shamol va suv kanallari tarmog'iyo'nalishi tomon yo'naltirib qurish lozim bo'ladi.

Shahar qurilishi kompozitsiyasi ifodaliligini oshirish uchun muhim shart balandligi va vertikallari, shakllari va qurilishi gorizontal elementlari uzunligi hamda joy rel'efi past balandliklaridan oqilona foydalanib, shahar umumiy qurilishida akstent va dominantalar yaratish mumkin. Shahar arxitekturaviy kompozitsiyasi badiiy ifodaliligini oshirishda, shuningdek daryolar, ko'llar, ularning yonidagi xiyobonlar tabiiy chegaralari, shahar magistral ko'chalari muhim omillar bo'lib hisoblanadi.

1.10.1. Shahar ko'chalari va transport

Shahar arxitekturaviy–tarxiy tarkibi ko'cha va magistrallar to'ri sistemasini aniqlab beradi. Ko'cha tarmog'i to'g'ri to'rtburchakli, radial–xalqali va erkin bo'lishi mumkin.

To'g'ri to'rtburchakli ko'cha tarmog'i – to'g'ri burchak ostida o'zaro kesishadigan ko'chalar. Bunday ko'rinish yassi rel'ef uchun xos, to'g'ri

to'rtburchak perimetri bo'yicha yo'l qo'yilgan ayrim uzaytirishlar ko'cha tarmog'iga diagonal yo'nalishlarni kiritib bartaraf etiladi.

Radial – xalqali tarmoq shaharning hamma qismlarini markaz bilan oson bog'laydi, lekin etarlicha rivojlanmagan xalqali magistrallarda radial yo'nalishlar, magistral ko'chalar diametri kesishadigan shahar markaziy qismini band qilib qo'yadi.

Shahar erkin ko'cha tarmog'i shahar tabiiy xususiyatlariga bog'langan tabiiy chizilarga ega bo'ladi. Shahardagi transport va yo'lovchilar harakati bevosita ko'cha yo'llari tarmog'i bilan bog'liqda hal etiladi, bu holat shaharni me'yor darajasida faoliyat yuritishini ta'minlaydi, harakatlanishga kam vaqt sarflab, uning alohida qismlari bilan oson bog'lanish imkonini beradi.

Transport aloqalari belgilangan punktlar orasidagi qisqa yo'nalishlarda harakatlanish imkonini berishi zarur, ko'cha tarmoqlari esa sodda, kesishgan joylarida murakkab tugunlarsiz bo'lishi zarur. Zamonaviy shaharda quyidagi jamoat yo'lovchi tashish transport turlari tarqalgan: tramvay, trolleybus, avtobus, taksi, yirik shaharlarda esa – metro faoliyat yuritadi.

U yoki bu shahar transport turini tanlashda yo'lovchilar maksimal soatlikoqimi, harakatlanishga sarflanadigan minimal vaqt, mahalliy sharoitlarni, iqtisodiy maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Katta shaharlardagi transport turlari shovqin hosil qiladi, havoni ifloslantiradi, inson hayoti uchun havfli avariya holatlarga sabab bo'ladi.

Transport tugunlari yoki band magistrallarni kesishish joylarida yo'lovchilar bemalol harakatlanishi uchun xalqali yoki ko'ndalang yo'lovchilar er osti va er usti o'tish joylari o'rnatish lozim.

Transport va yo'lovchilar harakati taqsimlanish printsipli, shahar ko'chalari sinflanishida ifodalanadi. Shahar va uning alohida qismlari tarxiiy tarkibi uchun asos vazifasini bajaradi.

Ko'cha va yo'llar kengligini belgilashda transport va yo'lovchilar harakati hisobiy jadalligi, qurilish turi, joy rel'efi, aholini shovqin, chang, avtomobillardan ajraladigan zararli gazlardan himoya talablari, yomg'ir va oqova suvlari usullari, er

osti injenerlik tarmoqlarini, o'simlik dunyosini, sug'orish kanalari va boshqalarni inobatga olinishi lozim.

Ko'cha toifalari asosiy tavsiflari va sinflanishi

1.2-jadval

Ko'chalar toifalari	Harakatlanish hisobiy tezligi, km/soat	Harakatlanish yo'lagi eni, m	Harakatlanish yo'laklari soni	Trotuar kichik eni	Eng katta bo'ylama nishab, %
I. Betinim harakartli boshqariladigan harakatli magistral ko'chalar	100 80	3,75 3,75	6– 8 4– 8	4,5 4,5	50 50
II. Rayon ahamiyatiga ega bo'lgan magistral ko'chalar	60	3,75	3– 4	3,0	60
III. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'chalar	60	3,5	2– 4	1,5	50
I. Umumshahar ahamiyatiga ega magistral ko'chalar	60	3,5	2– 4		60
II. Mahalliy ahamiyatga ega magistral ko'chalar	40	3,5	2– 4		70

1.2-jadval

Turar-joy qurilishidagi ko'chalar	Asosiy vazifalari	Harakatlanish hisobiy tezligi, km/soat	Harakatlanish yo'lagi eni, m	Harakatlanish yo'lagi soni	Trotuar yo'lovchi harakatlanadigan qismi eni, m
Asosiy	Turar-joy hududlarini bosh ko'cha bilan bog'lash	40	3,0	2	1,0– 1,5
Ikkinchi darajali o'tish joylari	Asosiy turar joy ko'chalari bilan bog'lash	30	3,0	2	1,0
Transport harakatlanadigan joylar	Mavzu ichkarisida joylashgan uylarni ko'cha bilan bog'lash	30	3,0	2	–

Umumshahar vazifali magistral ko'chalar kengligi qizil liniyalar chegarasida betinim harakatlanish uchun 75 m deb, boshqariladigan harakatli ko'chalar uchun – 60m, rayon ahamiyatiga ega ko'chalar uchun – 35 m, ko'p qavatli turar joy binolari joylashgan ko'chalar uchun – 25 m, bir qavatli binolar qurilgan va yopiq suv ketkaziladigan joylar uchun belgilangan sanitar talablar va binolar orasidagi yong'in masofasi saqlanganda – 15 m deb qabul qilinadi. Qabul qilingan ko'chalar kengligi mos texnik– iqtisodiy asoslanganda hamda tabiiy yoritishva insolyastiya talablariga binoan kengaytirilishi mumkin.

Issiq iqlim sharoitidagi shaharlar magistral rayon ahamiyatiga ega bo'lgan ko'chalarida 0,5–0,75 m kattalikdagi himoya yo'lagini ko'zda tutish lozim bo'ladi. Kichik va o'rta shaharlar qizil liniyalardagi shahar ahamiyatidagi magistral ko'chalar enini harakatlanish kichik zichligi tufayli 45 m gacha kamaytirish mumkin.

Shahar transporti loyihalash amaliyoti va SHNQ 2.07.01–03 tavsiyalariga binoan ko'cha va yo'llarni vazifasi va toifasiga ko'ra quyidagicha sinflash mumkin.

Mahalliy ahamiyatga ega ko'cha va yo'llar sirasiga asosiy harakat oqimini yo'lovchilar tashkil etadigansavdo ko'chalari kiradi. Bu ko'chalarni shahar jadal transport harakatidan ozod qilish maqsadga muvofiq, lekin parallel ravishda savdo korxonalariga tovar ashyolari tashish uchun qo'shimcha ko'chalar ko'zda tutilishi lozim.

Harakatlanish qismi bo'ylama nishablari transport harakatlanishi havfsizligi va atmosfera yog'inlarini oqib tushishi zaruriyati bo'yicha aniqlanadi. Umushahar va rayon magistrallari uchun eng katta nishab 5– 6%, tezkor harakatli yo'llar uchun – 4% deb qabul qilinadi. Trotuarlar bo'ylama nishabi 8%dan oshmasligi, nisbatan qiya joy rel'efida trotuarda zinapoyalar o'rnatiladi.

Odatda, ko'cha harakatlanish qismi, trotuarlar va ko'kalamzorlashtirilgan qismlardan iborat bo'ladi, bunda transport harakatlanish joyi ko'cha o'rtasida joylashtiriladi.

1.10.2. Maydonlar va transport echimlari

Shahar maydonlari vazifasiga ko'ra quyidagicha taqsimlanadi: asosiy, yirik jamoat binolari oldidagi maydonlar, stadionlar, teatrlar, ko'rgazmalar, savdo markazlari va b. transport hamdako'prioldi, vokzaloldi, ko'p funksttyali transport tugunlari, zavod oldi, bozor maydonlari.

Shaharlar bosh maydonlari – shaharjamoat markazi yo'lovchilar harakati asosiy tuguni, bu erda namoyishlar yoki xalq sayllari o'tkaziladi. Bu maydonga shaharning asosiy ko'chalari intiladi, transport harakati iloji boricha maydon atrofiga yo'naltiriladi. Bunday maydon kompozitsiyasi shakllanishida ma'muriy jamoat bosh binolari albatta ishtirok etadilar. Issiq iqlim sharoitida maydonlar qattiq qoplamalari o'lchamlari maksimal darajada qisqartiriladi va maydonlar ko'kalamzorlashtiriladi. Maydonlar o'lchamlari arxitekturaviy–fazoviy kompozitsiya tarxiy echimi bilan zaruriy transport va yo'lovchilar harakati oqimi inobatga olinib aniqlanadi.

Issiq iqlim sharoitida bosh maydonni tashkil etishning yorqin misoli – Toshkentdagi Mustaqillik maydonidir.

Jamoat binolari va inshootlari oldida joylashgan noyob tavsifli maydonlar(teatrlar, muzeylar, ko'rgazma pavilonlari, stadionlar va b.) odatda, ko'plab insonlar yig'iladigan joylardir. Ochiq fazo, transport va yo'lovchilarni erkin harakatlanishi, avtomashinalar to'xtash joylari, bino yoki inshootlarga magistral ko'chalar tomonidan o'tish joylarini o'rnatish imkonini beradi. Bunday maydonlarda binolar joylashtirilishining turli usullari qo'laniladi.

Jamoat bino va inshootlari oldidagi maydonlarda tranzit harakatdan yo'lovchilar va mahalliy transport harakatini ajratish zarur (bir yoki ikki pog'onada). Mahalliy harakatlanish mintaqasida yo'lovchilar jamoat transporti to'xtash punktlari va avtomobillar to'xtash maydonlari ko'zda tutilishi lozim. Jamoat bino va inshootlari oldidagi maydonlarda–arxitektura, madaniyat va ommaviy ob'ektlar oldida transportning tranzit harakatlanishi ruxsat etilmaydi.

Transport maydonlarini asosiy vazifalari–jipslashgan ko'chalar va yo'llar bo'yicha tarnsport oqimlarini bir yoki bir nechta sathlarda transport echimlari

vositasida taqsimlash. Bunday maydonlar o'lchamlari transport harakati jadalligi va maydonni kesib o'tuvchi ko'chalar soni bilan aniqlanadi.

1.10.3. Dam olish va turizm muammolari

Dam olish – inson ob'ektiv hayotiy ehtiyoji, uning salomatligi va ish qobiliyatini saqlash muhim vositasidir.

Dam olish va turizm mintaqalari geografiyasi ikkita omil: bir tomondan, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, ikkinchi tomondan qulay tabiiy-iqlimiy, davolash, landshaft sharoitlari, tarixiy-madaniy obidalar mavjudligita'siridashakllanadi.

Tarixiy shaharlarda ko'p miqdorda madaniy obidalar, xalq me'morchiligi noyob namunalari, qiziqarli milliy an'anaviy folklor rayonlarining mavjudligi shaharlarda funktsional va fazoviy rivojlangan dam olish va turizm mintaqalarini yaratishimkonini beradi.

Arxitektura yodgorliklariga boy shaharlardagi turizmning spetsifik tomoni alohida obidalar va ularning majmualaridan estetik zavq olish uchun qulay sharoitning mavjudligigadir.

Uslubiy nuqtai nazardan dam olish va turizm uchun yaroqli hudud sifatini aniqlash uchun quyidagi sharoitlarga asoslanish zarur:

Mahalliy joy tabiiy xususiyatlari, dengiz sathiga nisbatan joylashish balandligi, o'rmon uchastkalari, shamol, yomg'ir va quyoshdan himoyalanganligi, qo'riqxonalar mintaqalarining, akvatoriylarning mavjudligi;

Inson tomonidan yaratilgan sharoitlar (kurortlar, shifobaxsh manbalar, tarixiy obidalar, xalq san'ati, etnografiya va h.k.);

Obodonlashtirish va xizmat ko'rsatish (turistlar tashkilotlari, sport inshootlari, sayohatlar byurosi, turli turistik marshrutlar, avtomashinalarga xizmat ko'rsatish va h.k.).

Dam olish tashkilotlari quriladigan hududni kompleks baholash, funktsional mintaqalanish arxitekturaviy-tarixiy echimi uchun asos vazifasini o'taydi va rayonli tarxlash bosqichida amalga oshiriladi. Boshtarxlash bosqichida qo'shimcha va aniqlashtirilgan ma'lumotlar asosida hududni nisbatan detalli baholanadi.

Sayohatli turizm yo'llarini tashkil qilish uchuntarixiy yodgorliklar va tabiat qo'yni muhim ahamiyatga ega. Me'moriy obidalarni saqlash muammolari va qadimiy hamda zamonaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi muhim vosita – turizmni rivojlantirish orasida uzviy bog'liqlik mavjud.

Shaharning himoyalangan tarixiy muhiti, uning qurilmalari, ko'chalari, o'simlik dunyosi va b. aniq o'ylab chiqilgan funktsional foydaanish sistemasiga ega bo'lishi zarur.


Shu bilan birga shaharni qayta qurishda uning tarixiy qismini butun shahar tarxlanishi echimi bilan birga qabul qilish lozim bo'ladi, bunda eski va yangi shahar uyg'unlashtirilishi lozim. Yangi qurilish ob'ektlari, tabiiyki, qadimiy obidalarga taqlid bo'lmasligi zarur.

1.10.4. Shaharni ko'kalamzorlashtirish


Issiq iqlim sharoitidagi mintaqalarda ko'kalamzorlashtirish sistemalarini yaratish shaharlar va boshqa aholi yashash punktlari mikroiqlimini yaxshilash zaruriyatidan kelib chiqadi. Ko'kalamzorlashtirish sistemasi – shahar arxitekturaviy–tarxiy tarkibiy asosi bo'lib, uning tarkibiga seliteb va sanoat hamda dam olish mintaqalari o'simlik dunyosi, daraxtlar va yashil ekinzorlar kiradi.

O'simlik dunyosi havoni filtrlaydi, quyosh nurlari yaltirashini nivelirlaydi, ovozni sohib yuboradi, quyosh radiastiyasini yutadi, o'zidan namlik ajratib chiqarib, havoni sovutadi, yirik chang zarralarini tutib qoladi. Bu borada butalarni joylashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondoshish zarur, chunki bu manzarali elementlar ko'p hollarda binolarning birinchi qavatlar aerastiya va insolyastiyasi uchun jiddiy to'siqqa aylanib qoladi. Tajribalarga asosan o'simlik dunyosini tarxlashda quyoshni osmon bo'ylab ko'rinib turib, harakatlanishini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Doimiy soyadagi hududlarga faqat gazon va butalar ekish tavsiya etiladi. Binolarga yaqin joyda joylashgan qismlarga maksimal darajada yashil gazonlarni qo'llash muhim. Bunday gazon yo'lkasi eni er yuzasi va gazon chegarasi nur tushishi o'rtacha nuqtasidan o'tkazilgan chiziq orasidagi burchak bilan belgilanadi.

Umumshahar rayon ixtisoslashgan parklari, bog'lari, maydonlari, xiyobonlari, mikrorayonlar hovlilari maydonlari SHNQ 2.07.01–03 me'yorlari bilan belgilangan.



1.1. Rasm. Quyoshli nazorat qilish sxemasi



1.2. Rasm. Bino oldi gazon kengligini hisoblash sxemasi

Issiq iqlimli, o'simlik dunyosi tez rivojlanib ketishi mumkin bo'lgan joylarda, ular yo'lovchilar o'tish yo'lkalari va ochiq suv havzalari tarmoqlashgan joylariga bo'lib tashlanishi zarur.

Shaharlardagi o'simlik dunyosi shahar ahamiyati va kattaligi, uning tarxiy tarkibi, qurilish arxitekturaviy–fazoviy kompozitsiyasi va mahalliy joy muayyan sharoitlari bilan birgalikda yagona sistemani tashkil qiladi.

Shahar hududini keng ko'kalamzorlashtirish muhit issiqlikdan tushadigan yuklarini yumshatadi, uni issiq shamollar, cho'l qumlaridan himoya qiladi, fotosintez vositasida joy mikroiqlimini sozlaydi. Yer yuzasidagi o'simlik qatlami

quyosh radiastiyasining termik nurlarini qaytaradi va shu bilan mahalliy joy harorat tarkibini quvvatli sozlagichi vazifasini o'taydi.

Shahar chegarasida o'simlik dunyosini joylashtirishda qator sharoitlarni hisobga olish zarur:

- ko'kalamzorlashtiriladigan qismlar bo'yicha mos tabiiy ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur (tuproq turi, iqlim, o'simliklar turlari);

- seliteb hududlardagi jamoatchilik joylarini ko'kalamzorlashtirishda shahar sanitar-gigienik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va dam olishni tashkil etish sharoitlarini ta'minlashi zarurligiga e'tibor qaratilishi kerak;

- o'simlik dunyosi, yashil mintaqalar seliteb mintaqalarini shahar, turar joy, mikrorayonlar va yashash guruhlariga bo'linishi bilan bog'lanishi zarur;

- o'simlik dunyosi, yashil mintaqalar asosiy qismi yirik mavzelar ko'rinishida shahar va rayon parklari, bog'lar, xiyobonlar va b. tarkibida bo'lishi zarur.

Ko'kalamzorlashtirish sistemalarini loyihalashda mahalliy joy mikroiklim xususiyatlarini inobatga olish zarur, masalan, dengiz, tog' va o'rmondan esuvchi shamol yo'nalishi va kuchidan foydalanib, toza havoni shahar ichkarisigacha kirib borishini ta'minlash mumkin. Shaharga nohush shamollar (quruq, uzoq davom etadigan sovuq va keskin shamollar)ni kirishini oldini olish uchun esa daryo, ko'llar bo'yiga yashil himoya yo'laklarini tashkil etish ko'zda tutiladi.

Chang bilan kurashishning samarali vositasi – maydonlarni maksimal miqdorini ko'kalamzorlashtirish; fazoni vertikal ko'kalamzorlashtirish va uning chang kirishiga to'siq vazifasini bajarishini ta'minlash; ko'kalamzorlashtirilgan himoya yo'laklarini o'rnatishdir.

Shunday qilib, issiq iqlimli shaharlarda o'simlik dunyosini mikroiklimni yaxshilash maqsadida joylashtirishning quyidagi asosiy shartlari mavjud:

Shahar hududini optimal aerastion tartibini yaratish (qurilish hududini shamolatilishi yoki chang bo'ronaridan himoyalash);

Ochiq va ko'kalamzorlashtirilgan fazolarni o'zaro munosib nisbatlash va joylashtirish, shahar qurilishida havo konvekstion aylanishi issiqlik balansini sozlash.

1.10.5. Aholi yashash punktlari

Aholi joylashtirish sistemasida turli kattalikdagi shaharlar bilan bir qatorda poselka turidagi aholi yashash joylari keng tarqalgan.

Xalq xo'jaligi ixtisosligi bo'yicha poselkalar sanoat, qishloq xo'jaligi, kurortli, chorbog'li, turistik va b.ga bo'linadi. Aholi soniga ko'ra poselkalar kichik (aholisi soni 1 ming kishigacha), o'rtacha (3–5 ming kishigacha) va katta (10 mingtagacha)larga bo'linadi.

Poselka o'lchamlari, uning kattaligi, tarqlash va qurilish tavsifi mehnat sarflash joylari, ichki ho'jalik aloqalari, joylashgan joyi tabiiy xususiyatlari bilan shartlanadi.

Poselka tarxiy tarkibi shaharnikiga nisbatan soddaroq. Ikkita, uchta magistrallar uning tarxi asosini belgilaydi, bosh yo'llar kesishgan joylarida ma'muriy, transport va savdo funktsiyali markaziy maydon joylashtiriladi.

Aholi yashash punkti me'moriy ko'rinishi asosan uning jamoat binolari barpo qilinishi bilan belgilanadi.

Ko'chalar va markaz ifodaliligiga bino va peyzaj yaratib, (rel'ef, o'simlik dunyosi, kiritiladigan fazolar va b.) binolarni o'simlik dunyosi orasiga erkin badiiy yoki ritmik geometrik joylashtirilishi bilan erishiladi.

1.10.6. Texnik–iqtisodiy ko'rsatkichlar

Shahar qurilishi va uni ekspluatatsiya qilish bahosiga rel'ef xarakteri, iqlim, geologik, gidrologik va tuproq sharoitlari, suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni ketkazish va tozalash sistemalari, o'simlik dunyosining mavjudligi, hudud ixchamligi, uning shakli va o'lchamlari, temir yo'l, suv va boshqa tashqi transport turlari bilan bog'liqligi, seliteb hududi va mehnat qilish joylarini o'zro joylashishi, qurilish bazasi rivojlanish sharoitlari va shahar joylashgan joyi iqlimiy xususiyatlari bilan bog'liq boshqa qator omillar ta'sir qiladi.

Shahar yoki boshqa aholi yashash punktini loyihalashda loyihada qabul qilingan echimni iqtisodiy jihatdan samaraliligini tavsiflovchi texnik–iqtisodiy ko'rsatkichlar tuziladi. Bu ko'rsatkichlar aholi yashash punkti kattaligi, aholini joylashtirish sistemasidagi o'rni, tabiiy–iqlimiy sharoitlari va boshqa ko'plab

xususiyatlar (erni xususiy yoki davlat mulki ekanligi, qurilish materiallarini importlash, qurilishni mexanizastiyalashtirilganlik darajasi, ishchi kuchi bahosi va b.)ga bog'liq bo'ladi.

Shahar muhiti mikroiklim xususiyatlari, havo va suv havzasi holati, shovqin darajasi, shahar tarxida qurilish maydonini joylashishi, uning navbati, zichligi, madaniy– maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish bilan ta'minlanganligi, obodonlashtirish va injenerlik uskunalariga kiritilgan kapital mablag'larning iqtisodiy samaradorligi bosh tarx tarkibi echimiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shahar qurilishi bahosini aniqlashda kapital mablag'lar asosiy turlari ko'rsatkichlarining quyidagi taxminiy nisbatlarini qo'llash tavsiya etiladi:

Turar joy binolari	50– 55;
Jamoat bino va inshootlari	20– 25;
Injenerlik uskunalari va obodonlashtirish	25– 30.

1.11. Tabiiy sharoitlar va shaharlashtirilgan muhit.

1.11.1. Shahar hududini tanlash mikroiklim xususiyatlari.

Shaharsozlikda sun'iy muhit va mahalliy joy tabiiy sharoitlari fizik– geografik xususiyatlari orasidagi o'zaro bog'liqlik muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Shahar hududini tanlashda mikroiklim xususiyatlarini hisobga olish tayanch meteorologik stanstiyalari ko'p yillik ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Shahar mikroiklim sharoitlari atrof muhiti iqlimidan farqli o'laroq mahalliy joy tabiiy sharoitlari, shahar qurilishi zichligi va tarkibi, obodonlashtirish sharoitlari, ko'kalamzorlashtirish darajasi, sanoat korxonalari quvvati, shahar transporti jadalligiga bog'liq holda doimo o'zgarib turadi.

Shahar tarxiy tarkibi faoliyati qator landshaft, tuproq va boshqa tabiiy sharoitlarga bog'liq, ularga joy rel'efi, tuproq holati, gidrologiya, muhandislik geologiyasi, o'simliklar dunyosi kiradi.

Mahalliy joy rel'efi tavsifi shahar qurilishi va tarxiga muhim ta'sirini o'tkazadi. Rel'efning yirik past–balandliklari shamol va havo massalarining kirib kelishiga to'sqinlik qiladi, shu munosabat bilan tog'lar, odatda, mikroiklim rayonlari chegaralari vazifasini o'taydi.

Iqlim geografik kenglik, dengiz sathiga nisbatan joylashgan balandligi, atmosfera fizik holati raqamli tavsiflari, uning harorati (quyosh faolligi), namlik, shamollar va yog'ingarchiliklar bilan aniqlanadi. Iqlim ta'sirida tuproq qatlami va o'simlik dunyosi shakllanadi. Iqlim hayvonot dunyosi, inson hayoti va uning ho'jalik faoliyatiga muhim ta'sirini o'tkazadi.

Quruqlik, suv va quyosh orasidagi doimiy o'zgarib turuvchi munosabat muayyan joy tabiiy–iqlimiy xususiyatlarini, havo o'zgarishidagi atmosfera holatini aniqlaydi. O'zgarib turadigan jarayonlar takroriyliqi quyosh energiyasi jadalligi va bu jarayonda qatnashadigan namlik miqdoriga bog'liq. Bu ikki omil – namlik va quyosh – iqlimni asosiy tashkil etuvchilaridir.

Hududi uncha katta bo'lmagan rayonlar yoki ularning ayrim qismlari iqlim sharoitlari yig'indisi mazkur joy mikroiklimini tavsiflaydi. Mikroiklim asosiy meteorologik ko'rsatkichlariga harorat, namlik, havo o'rtacha harorati, radiatsiya (nurlanish) darajasi, havo harakatlanish tezligi, yoritilganlik darajasi va yil davomida yorug'lik taqsimlanishi kiradi. Mikroiklimga joy rel'efi, shimoliy yoki janubiy nishab, hududni vodiy yoki tog' tavsifda ekanligi, grunt va tuproq xususiyatlari, o'simlik qatlami, shahar qurilishi tavsifi, havoni aerozollar bilan ifloslanganlik darajasi o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning oqibatida shahar hududi mikroiklimi tabiiy va arxitekturaviy tarxiy, ya'ni suv bilan ta'minlanish, ko'kalamzorlashtirish, yer yuzasini asfalt bilan qoplash, qurilish zichligi kabi echimlar bilan o'zaro munosabati sifatida ko'rib chiqiladi.

Radiatsiya, insolyatsiya, harorat tartibi, havo namligi, shamol tartibi kabi tabiiy–iqlimiy omillar va ularni ta'siri QMQ 2.01.01–94 da loyihalash uchun fizik–geologik va iqlimiy ma'lumotlar bo'limida ko'rib chiqilgan.

1.11.2. Shaharsozlikda iqlimiy hududlash.

Shaharsozlar uchun inson hayoti sharoitiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi issiq iqlim salbiy xossalari ma'lum. Er sharidagi tabiiy–iqlimiy sharoitlarning turli tumanligi har bir muayyan holatda batafsil iqlimiy rayonlash va shahar paydo bo'layotgan yoki rivojlanayotgan hududlarda shaharsozlik qoidalarini belgilashni talab etadi.

Iqlimiy tavsif quyidagi ma'lumotlardan yig'iladi:

- havoning o'rtacha sutkalik maksimal harorati;
- bir oy mobaynidagi o'rtacha sutkalik maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq;
- havo harorati tebranishi o'rtacha yillik amplitudasi (shrtacha oylik maksimal va minimal harorat orasidagi farq);
- yog'ingarchilikning o'rtacha yillik miqdori;
- shamol tartibi tavsifi.

Iqlimshunoslar orasida tabiiy sharoitlar majmuasini inobatga olishga qurilgan sinflanishlar keng tarqalgan. Hozirgi kungacha landshaft ko'rsatkichlar bo'yicha iqlim sinflanishi o'z kuchini yo'qotmagan. U asosan yil davomida ustun harorat–namlik tartibini inobatga oladi va iqlimning 6 turini ajratadi: issiq quruq, iliq nam, tog', dengizoldi cho'lar, musson (savanna).

Issiq quruq iqlim. Issiq quruq iqlim uchun havoning yuqori harorati, soyada – 40°C va sutkalik harorat katta tebranishlari xos. Qum bo'ronlari davrida va quruq shamollar esgan paytda quyosh radiastiyasining to'g'ridan to'g'ri va sochma nur taratishidan issiqlik miqdori oshadi, bunda nisbiy namlik juda kichik 15 dan 50%gacha bo'ladi, oz miqdorda (250 mm) yog'ingarchilik yog'adi. Bu hududlar termik holati yer yuzasida ko'p miqdorda quyosh nurlari aks etishi natijasida murakkablashadi. Ekvatordan janub va shimolga harakatlenganda haroratlarning mavsumiy o'zgarishi seziladi. Issiq quruq iqlim uchun musaffo osmon, juda issiq kunlar, qumli bo'ronlar, bulutsiz, ayrim hollarda chang bilan to'yingan osmon, yog'ingarchilikning minimal miqdori xos.

Bu hududlardagi binolarda katta sig'imli og'ir to'suvchi konstruktsiyalar keng qo'llaniladi, ular vositasida kunduzgi issiqdan va yorqin quyosh nurlaridan himoyalangani. Aholi yashash punktlarini tarxlashda qurilishning oshirilgan zichligi va yopiq kompozitsiyasi qo'llaniladi, ular vertikal va gorizontal fazolarning soyada bo'lishini ta'minlaydi, ko'kalamzorlashtirish keng qo'llaniladi.

Tog' iqlimi. Yer sharining dengiz sathiga nisbatan keskin ko'tarilgan hududlari uchun tog' iqlimi xos, bu erda balandlik oshishi bilan havo harorati

pasayadi, kunduzi va kechasi havoning keskin o'zgarishi seziladi, mavsum mobaynidagi quyosh radiastiyasi kuchli bo'ladi (kunduzgi havo harorati 35⁰S gacha), chang aerezollari mavjud bo'ladi.

Tog' iqlimi boshqa iqlimlardan rel'efining kesishganligi va rel'ef qoyalarining quyoshga nisbatan turlicha yuzlanganligi tufayli, keskin farq qiladi, tog' hududlarida tavsiflari yorqin ifodalangan vertikal minataqalanishni yodga soluvchi alohida rayonlar lokal iqlim ko'rinishlari hosil bo'ladi.

Qurilish ishlarini olib borishda jadal quyosh radiastiyasi mavjudligini, gorizontal tekisliklarni quyosh nurlari termik ta'siridan himoyalash choralarini ko'rish, changdan ko'kalamzorlashtirib, hududni suv bilan ta'minlab hamda soya joylarni yaratib himoyalaniish zarur.

Aholi yashash punktlarini loyihalash tajribasi shuni ko'rsatadi– ki, yuqorida ko'rib chiqilgan iqlimlar sinflari har doim ham aholi yashash punktlarini loyihalash uchun ishlatilib bo'lmaydi. Ayrim rayonlar bir nechta iqlim sharoitlari tavsiflariga ega bo'ladilar, ayrimlari esa ko'rsatilgan iqlim sharoitiga umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday rayonlar uchun ularning mikroiklim tavsiflarini chuqurroq o'rganish zarur.

Tabiiy omilar, harorat, namlik, shamollar, rel'ef va h.k. ning doimiy o'zaro ta'sirlashishi umumiy iqlimiy mintaqadan farqlanuvchi muayyan joy iqlim xususiyatlarini belgilab beradi.

Makroiqlim va mikroiklim orasidagi iqlim xususiyatlarini tavsiflash uchun ayrim hollarda mahalliy iqlim (mezoiqlim) tushunchasi kiritiladi. Lekin makroiqlim va mezoiqlimga bo'lish juda shartli bo'linishdir.

Mikroiqlim qurilish turi va obodonlashtirish darajasi ta'sirida o'zgaradi, shu sababli tarxlash vositalari yordamida ma'lum darajada hudud mikroiklimini boshqarish mumkin. Issiq iqlim sharoitida turar joy va jamoat binolarini dunyo tomonlariga yo'nalishiga katta e'tibor qaratish lozim, bino fasadlarini ko'proq shimol va janubga qaratib qurish maqsadga muvofiq.

Binolarning, ayniqsa, turar joy binolarining kenglik yo'nalishi quyosh radiastiyasini ancha chegaralaydi va xonalardagi tabiiy shamollatishni yaxshilaydi,

kunduzgi yoritish sharoitlariga o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Issiq o'lkalarga osmonning oddiy joylardagiga nisbatan 3–4 marotaba musaffoligi xos. Bu holatni inobatga olib, intererda nisbatan ichkariga joylashgan xonalarni ko'zda tutish hamda ularning balandligi hisobiga yorug'lik o'rinlari maydonini qisqartirish zarur. Ekvatorga nisbatan shimolda joylashgan binolarda yorug'lik o'rinlarini shimolga, ekvatoridan janubga joylashganlarida esa – janubga yo'naltirish zarur.

Janubiy rayonlarda gorizontning eng noqulay qismi g'arbiy yo'nalishda bo'ladi, chunki quyoshning g'arbiy nurlari xona ichkarisiga uzoq muddat ta'sir qilib, ichki fazo haroratini oshirib yuboradi. Choshgohda quyosh tikka turadi, uning to'ridan to'g'ri tushadigan nurlari tom va binoning chordoq qismini qizdiradi, bu holatni ikki qavatli shamollatiladigan chordoq, tom uchun soya ayvonlari o'rnatib tuzatish mumkin.

Cho'l hududlari – quyosh jadal nur sochadigan, chang to'zonlari ko'tariladigan, suv uchramaydigan va harakatdagi qumlari mavjud bo'lgan joylardir. Bulutsiz kunlar havoning yuqori haroratini va nisbatan past namlikni belgilaydi. Tunggi vaqtda havo harorati keskin pasayib ketadi.

Cho'lda yuqori havo haroratida esayotgan shamol qo'shimcha issiqlik manbai bo'lib hisoblanadi. Issiq va quruq shamollar qurilmalarni qizdirib, haroratni devor va ichki xonalarga uzatadi. Cho'llarga bir xil rel'ef, ko'rimsiz o'simlik dunyosi xos.

Cho'llarda aholi punktlarini loyihalashda quyidagi qoidalarga rioya etish zarur:

- aholi yashash punkti tarxiy tarkibi cho'ldan himoyalangan fazoda, ichki soya va salqinlik ta'minlangan holatda tuzilishi lozim;

- cho'l hududlari uchun suvsizlik xos bo'lganligi sababli suv bilan ta'minlash uchun suv resurslarini izlash, iqlimni yaxshilash va hududni suv bilan ta'minlash zarur;

- qum gruntlari ko'kalamzorlashtirish uchun yaramaydi va qayta agrotexnik ishlov berishni yoki unumdor er olib borib to'kishni talab etadi;

- qumli tuproq va harakatdagi qum havoning chang bilan ifloslanishiga olib keladi.

1.12. Issiq iqlim sharoitida shahar elementlari

qurilishi alohida xususiyatlari

1.12.1. Jamoat markazlari

Shahar tarxiiy tarkibidagi asosiy element turli vazifali markazlarning tarmoqlashgan sistemasidir.

Shahar markazlari–tarkibiga asosiy shahar va ixtisoslashgan markazlari, tarxlanish va turar joy rayonlari, sanoat rayonlari va dam olish mintaqalari markazlari, shuningdek, mikrorayonlar jamoat markazlari kiruvchi o'zaro bog'liq sistemadir. Bunda shahar jamoatchiligi eng ko'p jamlangan joy bo'lgan shahar asosiy markaziga alohida e'tibor qaratiladi. Bu erda, odatda, umumshahar ma'muriy va ishbilarmon tashkilotlar binolari, jamoat va madaniyat tashkilotlari, yirik savdo va tomoshabop korxonalar joylashtiriladi, ular yagona arxitekturaviy majmuaga jamlanib, shahar qurilishi kompozitsiyasida ustun va shahar umumiy tarxiiy tarkibi bilan uyg'unlashgan holda bo'ladi. Me'morchilik obidalarini markaz tarkibiga uyg'unlashtirib kiritish lozim.

Ixtisoslashgan markazlar (ilmiy–tadqiqot, tibbiy, o'quv, muzey–ko'rgazma, sport va b.) tibbiy markazlar qulay tabiiy muhitga, ko'proq yashil mintaqada joylashtiriladi, ilmiy–tadqiqot, o'quv, muzey–ko'rgazma va sport markazlari–tarxlanayotgan rayonlar markazlari tarkibiga, nisbatan yiriklari esa shahar oldi mintaqalariga joylashtiriladi.

Umumshahar va ixtisoslashgan markazlar o'lchamlari ularning kattaligi, xalq xo'jaligi yo'nalishi, iqlimiy hududi va aholini joylashtirish sistemasidagi ahamiyatiga ko'ra aniqlanadi. Jamoat markazlarining o'lchamlarini aniqlashda uning maksimal jadal qo'llanilishi ko'rsatkichidan kelib chiqish lozim.

1.12.2. Umumshahar markazi

Umumshahar markazini tarxiiy kompozitsiyasi shaharsozlik yo'nalishi va shahar kattaligi, joy tabiiy sharoitlari va shakllanib bo'lgan tarxiiy tashkil etilishiga bog'liq.

Issiq iqlim hududlarining iqlimiy tavsiflari nuqtai nazaridan shahar markaziy qismida qurilish zichligiga bog'liq bo'lgan yuqori issiqlik tartibi kuzatiladi, bu holat sun'iy qoplamali transport maydonlari hamda shamollatishning cheklangan imkoniyatlariga ham bog'liq. Issiqlik yukini kamaytirishga hududni keng ko'kalamzorlashtirib va suv bilan ta'minlab hamda issiq joylar uchun xos binolarni tarxlash usullarini qo'llab erishish mumkin.

Toshkent shahri markaziy qismini tarxlash va qurish ishlarimurakkab iqlim sharoitlarida markaz shakllantirish printsiplarini ishlab chiqishda asos vazifasini bajardi.

Toshkent keskin kontinental quruq issiq iqlim mintaqasida joylashgan, shu munosabat bilan qurilish usullari va iqlim sharoitlarini o'zaro bog'lash muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Markazning asosiy jamoat binolari mohirona tarxlangan o'simlik dunyosi va suv havzalari orasida joylashgan orolli shamollatish holatiga ega. Shahar markazida o'simliklarning, ochiq gazon fazolarining ko'pligi, suv yuzalarini mavjudligi muhit mikroiklim sharoitlarini yaxshilaydi, mahalliy shamollatishiga xizmat qiladi va shahar markazida nisbatan muzdek muhit yaratiladi, kunduzgi issiq paytidagi insonga tushadigan issiqlik yukini pasaytiradi.

Shahar markazida jamlangan ko'plab funktsiyalar ayrim hollarda unga og'irlik qiladi. Shu sababli zamonaviy shaharsozlikda mustaqil ixtisoslashgan shahar markazlarini, xususan, savdo, tibbiy, sport, ilm–fan markazlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq deb topilmoqda.

Savdo markazlari – savdo, jamoatchilik ovqatlanishi, dam olish korxonalari va boshqabinolarni bitta hajmga jamlash, alohida alohida joylashgan binolarga nisbatan, transport tashkil qilish va savdo qiish ilg'or usullarini qo'llash imkonini beradi.

Tibbiy markazlar davolash–tashhis qo'yish va ilmiy–tadqiqot va tibbiyot yo'nalishidagi o'quv muassasalarini birlashtiradi va odatda, seliteb hudud tashqarisiga, shaharoldi ko'kalamzorlashtirilgan mavzelarga joylashtiriladi.

Shahar markazini tashkil etishda transport aloqalari muhim o'rin tutadi, chunki shahar magistrallari va ko'chalari qisqa yo'l bilan ularni shaharning boshqa

hududlari bilan bog'lashi zarur. Buning uchun transport harakatlanishi yo'nalishini o'zgartirish va oxirgi bekatlari markazlarini, yirik jamoat binolariga o'tish yo'llarini, avtomobillar to'xtash joylarini tashki etish zarur.

Shahar markazida transport va yo'lovchilar harakati bo'linishiga alohida e'tibor qaratib, yo'lovchilar harakati ustun turishi kerak.

1.12.3. Turar joy tarkibiy qismlari

Shahar seliteb hududi asosan turar joy majmualari hamda xizmat ko'rsatish madaniy–maishiy tashkilot va korxonalar barpo etish uchun mo'ljallangan. Bundan kelib chiqib, shahar seliteb hududi tarxlash rayonlari (katta shaharlar uchun), turar joy rayonlari, mikrorayonlar va turar joy guruhlariga bo'linadi.

Turar joy guruhi – turarjoy majmuasi boshlang'ich elementi. Uning tarkibiga bir nechta turar joy uylari, bolalar bog'cha–yaslisi kiradi. Bu, odatda, ko'kalamzorlashtirilgan maydon bo'lib, faqat shu erda yashaydigan aholi tomonidan foydalaniladi. Iqlim sharoitlari, joy rel'efi va ko'rinishiga ko'ra turar joy uylari guruhlar turli kompozitsion echimga ega bo'ladi (yopiq turar joy guruhlar, chiziqli joylashish va boshq.).

Turar joy mikrorayoni turar joy guruhlar majmuasidan iborat bo'ladi. Uning tarkibiga turar joy binolari va kundalik foydalaniladigan madaniy–maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari kiradi, ular turar joy binolaridan 300–500 m masofada joylashtiriladi. Mikrorayon birlashtiruvchi elementi vazifasini maktab va xizmat ko'rsatish jamoat–maishiy markazi bajaradi. Mikrorayon hududi turar joy ko'chalari bilan chegaralangan va odatda, magistral transport aloqalari tashqarisida joylashgan bo'ladi.

Turar joy rayoni – nisbatan yirik turar joy majmuasi. Uning tarkibiga bir nechta mikrorayonlar, tarxiy o'zaro bog'langan davriy xizmat ko'rsatish tashkilotlari kiradi, ular yo'lovchilar yurishi mumkin bo'lgan 1000–1200 m chegarada joylashtiriladi. Turar joy rayoni hududida rayon ahamiyatiga ega magistral yo'llar o'tkazish mumkin, ular yordamida rayonlararo transport aloqalari amalga oshiriladi. Turar joy rayon va mikrorayonlarini tarxlash va qurish ishlari hududni yagona yoki turar joy binolari guruhlariga bo'lib arxitekturaviy– fazoviy

tashkil etib, atrof tabiiy muhiti va mahalliy iqlim sharoitlari inobatga olinib, amalga oshiriladi.



1.3. Rasm. Turar joy hududlarining rejaviy tuzilishi

1-umumshahar magistrali; 2-tuman magistrali; 3-turar-joy ko'chalari; 4-piyodalar yo'li aloqasi; 5-kichik tumanlar chegarasi; 6-uylar guruhi; 7- turar-joy tumanlari markazi; 8-kichik tumanlar markazi; 9-ko'kalamzorlashtirish maydonlari

Turar joy rayon va mikrorayonlarida transport o'tish joylaridan tashqari, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlariga, yo'lovchilar transporti bekatlariga va mehnat qilish joylariga yo'lovchilar o'tish yo'llari sistemasini ko'zda tutish lozim. Issiq iqlim sharoitli rayonlarda yo'lovchilar yo'lkalari ko'kalamzorlashtirilgan mavzelardan soya va shamollatish ta'minlanib tashkil etiladi.

Muayyan tabiiy-iqlimiy sharoitlar, aholi milliy-maishiy an'analariga ko'ra, qo'llaniladigan turar joy va jamoat binolari turlari, jamoat xizmat ko'rsatish turlari va shakllariga ko'ra turar joy majmualari va xizmat ko'rsatish sistemalari tarxiiy tarkibi juda xilma-xil bo'lishi mumkin.

MDHda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari qurilishining pog'onali sistemasi keng qo'llanila boshlandi, uning mohiyati quyidagicha:

Aholi tomonidan har kuni foydalaniladigan tashkilot va korxonalar (oshxonalar, kafe, maktabgacha tarbiya muassasalari, birinchi zarurat mollari maktab-magazinlari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, madaniy-oqartuv vazifali tashkilotlar), odatda, mikrorayonlarda joylashtiriladi va turar joy uylari bilan yo'lovchilar alleyalari vositasida bog'langan;

Aholi davriy ravishda foydalanadigan tashkilot va korxonalar (kino, klublar, kutubxona, restoranlar, sport zallari va b.) turar joy rayoni jamoat markazlarida, yashash joyidan piyoda chiqish mumkin bo'lgan chegarada joylashtiriladi;

Aholi tomonidan kam murojaat etiladigan umumshahar ahamiyatiga ega tashkilot va korxonalar (ma'muriy tashkilotlar, teatr, muzeylar, shahar savdo markazlari, sport markazlari, ko'rgazmalar va b.) umumshahar markazi mintaqasida joylashtiriladi.

Shaharni pog'onali mikrorayonlash sistemasi shahar qurilishini tashkil etishning funktsional–tarxiy qoidasi sifatida shaharsozlik amaliyotiga allaqachon kirib kelib bo'lgan.

Shaharsozlik rivojlanishining zamonaviy bosqichida aholiga xizmat ko'rsatishning iqlim, demografik, iqtisodiy va estetik sharoitlardan kelib chiqib, yangi shakl va usullari paydo bo'lmoqda. Yer hududlarini tejash, qurilish zichligini ta'minlash, binolar qavatlilikini oshirish, xizmat ko'rsatish tashkilotlarini yiriklashtirish jarayoni kechmoqda; shahar hududlari qishloq ho'jalik va ayniqsa, sug'oriladigan yerlar hisobiga kengaytirilishining iloji bo'lmay qoldi. Bu holat shaharsozlikda nisbatan yangi usullar izlashni talab etadi. Hududlardan ko'p funktsionalli va yer osti fazosidan foydalanish bunday izlanishlar samarasi bo'lib hisoblanadi.

Murakkab iqlim sharoitlari va issiq iqlimli shaharlar demografiyasi xususiyatlari bu joylar aholisiga xizmat ko'rsatishning nisbatan zamonaviy sistemalarini izlashni talab etadi. Amaliyot, issiq iqlimli hududlarda yirik turar joy majmualarini, ularning tarkibiga jamoat savdo markazida jamlangan xizmat ko'rsatish shohobchalarini barpo etishga harakat qilmaslikni tavsiya etadi. Kundalik zaruratdagi savdo va maishiy korxonalar issiq iqlimli davlatlar uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Toshkentdagi ommaviy qurilish – tabiiy–iqlimiy omillar va ijtimoiy–tarixiy an'analar xususiyatlarini loyihalashda inobatga olishning yorqin misolidir. Turar joy rayonlari funktsional yo'naltirilgan va issiq hudud mikroiklim xususiyatlarini

inobatga olib tarxlangan. Yashil ekinzorlar sistemasi asosiy shamol oqimlari yo'nalishi bilan bog'lanib, turar joy mavzellarini markazlarga ajratadi.

Yilning 9 oyi mobaynida iliq va issiq havo hukmron Toshkent shahrida turar joy qurilishi hududi ochiq havodagi turar joyning tabiiy davomidir. Maishiy jarayonlar xonadon va uyoldi hudud orasida u yoki bu nisbatda bo'linadi. Hududni tashkil etish tavsifi, o'z navbatida, qurilayotgan turar joy binolari – qavatlar soni, tarxi shakli, yozgi xonalar nisbat va o'lchamlariga bog'liq.

1.12.4. Mikrorayon qurilishi va tarxlanishi


Turar joy mikrorayonlarini tarxlashni hududni umumiy arxitekturaviy–fazoviy tashkilot asosida, mahalliy iqlim sharoitlari va atrof–muhit xususiyatlari inobatga olinib, amalga oshiriladi. Mikrorayonlarda turar joy binolari oldidagi ko'chalar va o'tish yo'llaridan tashqari transport harakatidan ozod, xizmat ko'rsatish tashkilot va korxonalariga olib boruvchi yo'lovchilar yo'llari ko'zda tutiladi.

Issiq iqlim mintaqasi uchun turar joy binolari qulay yo'nalishi – g'arbiy–harqiy tomon. Mikrorayon tarxiy tarkibini ishlab chiqishdagi asosiy shart qurilish asosiy turlarini hududdan foydalanishda rel'ef, injener–geologik va texnik–iqtisodiy rastional joylashtirish shartlaridir.

Shahar, mikrorayon yoki mavze, mahallatarxiy elementi hududi turli funktsional vazifali mintaqasiga ko'ra binolar quriladi: turar joyi mintaqasi, maktab mintaqalari, bolalar muassasalari, ho'jalik mintaqasi, mikrorayon bog'i mintaqasi va madaniy–maishiy tashkilotlar mintaqasi. Mikrorayon funktsional mintaqalari bir biridan butalar, daraxtlar yoki gazonlardan iborat o'simliklar dunyosi yo'laklari bilan ajratilishi lozim.

Turar joy mintaqasi. Bu erda ko'kalamzorlashtirilgan hovlili, pod'ezd va muhandislik tarmoqlari mavjud turar joy uylari joylashtiriladi.

Issiq iqlim sharoitli joylar iqlimiy xususiyati aholiga sutkaning ko'p qismida ochiq havoda yashil fazo orasida bo'lish imkonini beradi. Bu holat mazkur hududlarda ko'kalamzorlashtirilgan qismli, bir yoki ikki qavatli, bitta oilaga mo'ljalangan uylarni barpo etishning keng tarqalishiga olib keldi.



1.4. Rasm. Quruq issiq iqlimli joylarda qurilishning qayta tiklashishi.

Ko'p qavatli binolar kam qavatlilariga nisbatan o'zining ijobiy tomonlariga ega bo'lib, ularda tom maydoni, to'g'ridan to'g'ri quyosh nurlari tushadigan bino qismi sifatida minimum o'lchamlarga keltirilgan. Vertikal aerastiya tufayli qavatlar yaxshiroq shamollatiladi, erdagi bog' hovlilar har bir xonadon uchun ko'kalamzorlashtirilgan ayvonlar o'rnini bosadi.

To'g'ridan to'g'ri quyosh radiastiyasidan himoyalashda gorizontal yuzalar o'z afzalliklariga ega; bu qavatdagi xonadonlar shiftlari, yuqoridagisidan tashqari, quyosh nuridan yaxshi himoyalangan. Shahar rayonlarida, ayniqsa, markazda qurilish ob'ektlari zich joylashgan joylarda, ko'p qavatli binolar tarxlanishi ochiq yashil fazolar tashkil qilish imkonini beradi, ular esa hudud aerastiyasini ta'minlash, xonalarga havo kirishini yaxshilash, nurlanish ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Sekstiyali, yo'lakli turdagi uylar bilan bir qatorda issiq o'lkalarda galereyali turdagi ko'p qavatli uylar keng tarqalgan, xonadonlarni birlashtiruvchi galereya butun uy bo'yicha bo'ylamasiga cho'zilgan bo'lib, shamollatish fazosi vazifasini o'taydi. Galereyali uylar xususiyatlari – ko'ndalang va bo'ylama shamollatish, xonalar, turar joylar bir tomonlama foydali yo'naltirilganligidir. Galereya bilan ulangan ochiq zinalar va ayvonlar sistemalari issiq iqlimda joylashgan uyga hajmiy–tarxiy fazoviy kompozitsion ko'rinishni beradi. Iqlimiy sharoitlar bu uylarda kirish yo'laklarini soddalashtirish, xonadonga kirish joylarini galereya tomonidan o'rnatish imkonini beradi.




Рис. 5.40. План сечения жилого дома с различным набором квартир





Рис. 5.41. Односекционный многоэтажный жилой дом с квартирами в двух уровнях, включая двухсветные дворики-сады
а — разрез; б — план

Turar joy rayonlari va mikrorayonlari hududlarini ko'kalamzorlashtirish quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- yo'laklar va maydonlarni (trotuarlar, yo'lovchilar yo'lagi, o'tish joylari va 2/3 qismi va bolalar o'ynash maydonchasi va sokin dam olish joylarining 1/2 qismi soyalanishi zarur) maksimal havo qizishi soatlarida nurlanishdan chegaralashi;

- isib ketish davrida yonida joylashgan hududda qo'shimcha issiqlik paydo qiluvchi janubiy va g'arbiy yo'naltirilgan yaxlit to'siqlar, bino devorlarini nurlanishdan asrashi;

- tuproq nurlanishini chegaralash;

- shamollatish optimal sharoitlarini yaratish, bunga kuchli shamol esadigan hududlardagi shamol tezligini pasaytirib va shamol esmaydigan sohalarda havo almashinishini saqlab erishiladi.

1.13. Transport aloqalari va yo'lovchilar harakatlanish joylari

Turar joy rayonlari ichkarisida rayon ahamiyatiga ega bo'lgan magistrallar va turar joy ko'chalari sistemasi o'rnatiladi, ular mikrorayon hududini chegaralab beradi. Turar joy ko'chasi turar joy rayonidagi harakat oqimlarini yig'adi va ularni magistral ko'chaga olib chiqadi, mahalliy harakat oqimlarini taqsimlaydi.

Turar joy ko'chalari transport harakatlanadigan joylari minimal kenglikda va ikkita harakatlanish chiziqli qilib loyihalanadi. Transport harakatlanadigan qismi bo'ylab ko'kalamzorlashtirilgan yo'laklar o'rnatiladi, ularga trotuarlar birikadi. Turar joy ko'chasi eni unga birikkan eng baland bino ikkita balandligidan kam bo'lmagan kenglikda loyihalanadi.

Mikrorayon transport harakatlanish joylari faqat mazkur mikrorayon binolari oldiga kirishni ta'minlaydi va asosiy – uylar guruhlarini bog'lanish uchun, ikkinchi darajali – alohida binolar bilan bog'lanish uchun, ho'jalik – ho'jalik mintaqasi ob'ektlari bilan bog'lanish uchun xizmat qiladigan turlarga bo'linadi.

Mikrorayon o'tish joylari ilmoqsimon, xalqali, tor ko'cha va aralash bo'lishlari mumkin. Xalqali o'tish joylari mikrorayon butun hududini qamrab oladi, bir guruh uylar yoki alohida binolar tomonga tarmoqlanadi. Ilmoqsimon

o'tish joylari mikrorayon uylari guruhiga xizmat ko'rsatadi va alohida kirish, chiqish joylariga ega bo'lishi mumkin. Tor ko'cha o'tish joylari ham alohida binolar va guruhga xizmat ko'rsatadi va birgalikdagi kirish va chiqish joylariga ega bo'ladi. O'tish joylari yo'lovchilar yo'lkasi va mikrayon ko'kalamzorlashtirilgan joylari bilan kesishmasligi zarur. Bir tomonlama harakatlanadigan o'tish joylarida har 100 mda o'lchamlari 6x15 m bo'lgan maydonlar, tor ko'chalar oxirida – avtomobillar burilib olishi uchun tor ko'cha maydonlari o'rnatiladi. Asosiy o'tish joylaridan besh qavatli binolargacha 8 m masofa, 9–14 qavatli binolardan – 12 m ga yaqin masofa ko'zda tutiladi.

O'tish joyidan kirish joyigacha eni 1,5 m bo'lgan trotuar joylashgan, o'tish joyini ko'chalarga birikkan joylarida ho'jalik–maishiy maqsadlarda kengayishlar ko'zda tutiladi. O'tish yo'laklari va alleyalar qisqa yo'nalishlar bo'yicha yashil ekinlar orasidan shunday o'tadi–ki, tinch dam olish mintaqalarini kesmaydi. Yo'lovchilar yo'lagi eni 1,5 m li qilib loyihalanadi. Issiq iqlim sharoitli hududlarda ular uchun gruntli shag'alli yoki alohida beton plitali qoplamalar o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Mikrorayon yo'lovchilar o'tish yo'lari qurilish hamma elementlarini qisqa yo'l bilan bog'lovchi yo'llarga, bog'lardagi sayr qilish yo'llariga bo'linadi.

1.14. Bioiqlim va sanitar–gigienik talablar

Tabiiy–iqlimiy omillari sharoitini inson organizmiga ta'sirini baholash ma'lum darajada atrof muhit tavsifiga bog'liq (ochiq fazo, xona, shahar markazi hududi va b.).

Issiq iqlimli joylarning keskin iqlim ko'rsatkichlarini transformastiyasi zaruriyatini inobatga olib, maxsus sanitar–gigenik talablarni turar joy xonalari, maktab va bolalar muassasalari, turar joyi hududi ichki fazosi insolyastiyasiga nisbatan; qurilish maydonchasi va bolalar muassasalarini shovqin, tebranish va changdan himoyalashda; ichki fazolarni shamollatishda bajarish lozim. Issiq mintaqalarda bir tomonlama xonadonlar va ayvonlarni gorizontning g'arbiy va janubi–g'arbiy tomoniga yo'naltirishdan saqlanish zarur. Insolyastiyaning nisbatan qulay sharoitlarini olish uchun bu iqlimiy sharoitlarda binolarni shunday

joylashtiriladi—ki, turar joy xonalarining ko'p qismi sharqqa, janubi—sharqqa va janubga yuzlanishi zarur. G'arbiy va janubi—g'arbiy yo'naltirilgan xonalar isib ketishdan baland daraxtlar, jalyuzi o'rnatilib, tepaga intilib o'sadigan o'simliklar ekilib, himoya qilinishi mumkin.

Shovqin va changdan qurilish maydonini turar joy binolarini shahar yo'llaridan, magistral ko'chalardan va o'tish joylaridan, garajlardan, ho'jalik maydonlaridan va ochiq avtomobil to'xtash joylaridan chegaralab turuvchi yashil yo'laklar vositasida himoyalanaadi.

Xonadonlarni talab darajada insolyastiyalash, toza havo bilan ta'minlash, shovqinni pasaytirish va hududdan tejamkor foydalanish uchun binolar orasida quyidashicha masoflar saqlanishi lozim: binolar uzun tomonlari orasida — binoning ikkita balandligi, lekin 20 m dan kam bo'lmasligi kerak; binoning uzun tomoni va burchagi orasida binoning bitta balandligi, lekin 12 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Binolar orasidagi masofa ular orasidagi fazoni shamollatish va insolyastiyasini ta'minlashi zarur.

Quyoshdan himoya vazifasini qiya va yassi tomlarda qo'llaniladigan karnizlar bajaradi.

Quyoshdan himoya moslamalari vertikal plastinalari fasadlari g'arbga va shimoli—g'arbga yo'naltirilgan binolarga xos pastdagi quyosh nurlaridan himoyalaydi.

Inson organizmiga katta issiqlik yuki tushishi munosabati bilan jamoat vazifali bino va xonalarni yopiq galereyalar bilan birlashtirish lozim.

Shaharsozlikda sanitar—gigenik talablar muhim sharti seliteb hududlardan sanoat korxonalarigacha sanitar—gigenik mintaqalarni o'rnatishdir. Bu mintaqalar kattaligi texnologik jarayonlar tavsifi va ishlab chiqarish korxonalaridan ajralib chiqayotgan zararli chiqindilar miqdoriga bog'liq.

1.15. Shaharni muhandislik–texnik jihatdan obodonlashtirish.

Hududni muhandislik jihatdan tayyorlash.

Shahar bosh tarxi loyihasining tarkibiy qismi hududni muhandislik jihatdan tayyorlash chora–tadbirlaridan iborat, ular muhandislik–geologik sharoitlar, foydalanishi mo'ljallanayotgan tavsifi va hududni tarxiy tashkil qilinishiga bog'liq.

Hududni muhandislik jihatdan tayyorlash ishlari tarkibiga:

- hududni vertikal tarxlash va yuzaki suv oqishini tashkil qilish;
- daryolar qirg'oq chegarasini, suv omborlari va shahar suv havzalarini muhandislik jihatdan obodonlashtirish;
- toshqin suvlaridan hududni himoyalash;
- jarliklarni obodonlashtirish;
- hududlarni quritish (drenaj vositasida).

Nishabi 4%dan kichik pasttekislik hududlari shahar qurilishi uchun yuzaki suvlarini oqishini tashki qilish va muhandislik uskunalarini o'rnatish murakkabligi tufayli qulay emas. Bunday hududlar yuzasi shakli shahar qurilishi olib borilishi uchun yaxshilanishi talab etiladi.

Rel'efi bo'yicha nisbatan qulay maydonlar turar joy qurilishi, jamoat markazlari, sanoat korxonalari va boshqa inshootlar joylashtirilishi uchun foydalaniladi. Nisbatan qimmatli hududlar – parklar, dam olish mintaqalari, shahar suv havzalarini va b. joylashtirish uchun qo'llaniladi.

Daryo, ko'l va suv havzalarini qirg'oq joylaridan foydalanish tavsifi daryolarning gidrologik sharoitlari, uning eni, qirg'oq nishabi rel'efi, geologik tarkibi va hudud gidrogeologik sharoitlariga bog'liq.

Shahar qurilishihududi daryo boshqarish chizig'iga chiqib ketishi yoki undan ma'lum masofaga uzoqlashishi mumkin. Qirg'oq oldi hududinni toshqin suvlari bilan to'lishi, noqulay geologik va gidrogeologik sharoitlarida hamda qirg'oq nishabi murakkab rel'efida qurilish olib borish noqulay. Bu holda qirg'oqlarni shahar aholisi dam olish mintaqalari va shahar plyajlarini joylashtirish uchun qo'llash zarur.

Qurilish ishlarini olib borishda shaharning shakllangan qismidagi yoki yangi o'zlashtirilayotgan hududlardagi jarliklarni ham qo'llash mumkin. Bunday hududlardan qurilish maqsadlarida foydalanish uchun jarliklarni yanada rivojlanishini oldini bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, mavjud jarliklarga tuproq to'ldirish zarur. Jarliklarni obodonlashtirishning asosiy chora-tadbirlari yuzaki sizot suvlarini drenaj o'rnatish yo'li bilan yo'qotish, jarliklarni qisman yoki to'liq tuproq to'kib ko'mishdan iborat. Bundan keyin jarliklar nishablari tekislanishi va ko'kalamzorlashtirilishi, uning tub qismi esa tarxlanib obodonlashtirilishi lozim.

Yer osti suvlarining asosiy oziqlanish manbasi tuproq yuzasiga yog'adigan yog'ingarchilik suvlaridir. Yer yuzasidan suv ketkazishning yomon sharoitlarida va gruntning suv o'tkazmaydigan yuqori qatlami sharoitida suvning yuzadan gruntga infiltrlanishi uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Suvning gruntga doimiy kirib turishi oqibatida suv tirgagi to'shamasi gorizonti ustida yer osti suvlari to'planib boradi, to'planadigan suv miqdori yil davomida tuproq yuzasiga yog'adigan yog'ingarchilik miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Yer yuzasidan suvni oqib ketishini tashkil etish hamda hududni umumiy obodonlashtirish holatini oshirish er osti suvlari gorizontini pasayishiga olib keladi, chunki bu holatda suvning yer yuzasidan gruntga infiltrlanishi kamayadi. Yer osti suvlari gorizonti yuqori bo'lgan hududlarda qurilish ishlari olib borish uchun ularni muhandislik jihatdan obodonlashtirish lozim (hududga tuproq to'kish, yer yuzasidan suvlarni ketkazishni tashkil etish, drenajlash va h.k.).

Qurg'oqchilik hukmron bo'lgan joylarda tuproq yuzasiga yog'ayotgan yog'ingarchilik miqdori etarlicha bo'lmasligi mumkin. Tuproq yuzasiga yiliga 250 mm dan yog'ingarchilik yog'adigan hollarda o'simliklar o'sishini ta'minlash maqsadida sun'iy sug'orish usuli qo'llaniladi.

Sug'orish sistemasining tejamli usuli sug'orish tarmog'iga suvni o'zi oqadigan usulda uzatishdir. Magistral va taqsimlaydigan kanallar umumiy foydalanish yashil ekinzorlari orasiga o'rnatiladi va sug'oriladigan hudud maydoniga nisbatan ustun nuqtalarga joylashtiriladi. Suv yig'ish-tarqatish tarmog'ini oqova basseynlari talveglariga o'rnatiladi.

Amaliyotda sug'orish sistemalarining sochma, tuproq osti sug'orish, aralash sug'orish hamda magistral kanallaridan, uning tarmoqlari va rivojlangan kanal – sug'orgichlaridan iborat bo'lgan doimiy faoliyat yuritadigan sug'orish sistemasi keng tarqalgan.

Loyihalash ishlari uchun boshlang'ich ma'lumotlar tashkilot va muassasalardan materiallar yig'ish hamda qurilish olib borilishi rejalashtirilgan joyni tadqiq qilib, ixtiyoriy muhandislik–geologik surat olinib to'planadi. Bu ishlarni bajarishda hududni turlicha gruntli qismlari chegaralarini, grunt suvlari yotish chuqurligini bilish zarur. Hududlarni qurilish ishlari olib borish uchun yaroqli holatga keltirish uchun hududni muhandislik jihatdan tayyorlash maxsus chora–tadbirlari ko'riladi, ularning tarkibiga hududni vertikal tarxlash, grunt suvlari sathini pasaytirish; suv yuvib ketishini, suv bosib qolishini, sel havfini bartaraf etish, tuproq siljishini, jarlik hosil bo'lishini oldini olish; sun'iy sug'orish ishlari kiradi.

Vertikal tarxlash – hudud mavjud rel'efini loyihaviy echimga asosan yangilash.

Grunt suvlari sathini pasaytirish shahar hududlarini grunt suvlari sathini pasaytirish usulida bino poydevori o'rnatish va yer osti tarmoqlarini o'tkazish imkonini beruvchi chuqurlikkacha quritishdan iborat. Grunt suvlari sathidan yer yuzasigacha bo'lgan eng kichik masofa quritish me'yori deyiladi.

II bob. O'zbekiston Respublikasi hududini shaharsozlik nuqtai nazaridan rejalashtirish. Shaharsozlik me'yori va qoidalari, asosiy talablari

O'zbekiston Respublikasi hududiga aholi joylashtirish bosh sxemasida quyidagilar belgilab berilgan:

- aholi joylashtirish sistemasini, tabiiy resurslar va ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanishni o'zbekiston respublikasi hududini ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish taxminlariga asosan rivojlantirishning asosiy qoidalari;

- regiondagi ekologik vaziyatni yaxshilash, yerlarni himoyalash va ulardan oqilona foydalanish, madaniy meros ob'ektlari hududlarini saqlab qolish, davlat ahamiyatiga ega muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar;

- aholi joylashtirilishi sistemalari uchun qulay hududlar;

- qo'riqlanadigan tabiiy hududlar;

- qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ahamiyatidagi hududlar;

- tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulotda vaziyatlar ta'siriga moyil hududlar;

- foydali qazilmalari mavjud hududlar;

- qonunchilik tomonidan boshqa shaharsozlik turlari belgilanadigan va mazkur hududlarni shaharsozlik faoliyatida qo'llanilishi chegaralangan hududlar;

- hududni rivojlantirish bo'yicha boshqa qarorlar.

2.1. Loyihaviy– smetali hujjatlar.

Loyihaviy–smetali hujjatlarhajmiy– tarxiy, konstruktiv va texnik echimlarni, qurilish, bino va inshootlar, shuningdek boshqa ob'ektlar rekonstruksiyasi va kapital ta'miri hamda obodonlashtirish ishlari bahosini belgilab beradi.

Loyihaviy–smeta hujjati shaharsozlik hujjatlari, shaharsozlik me'yor va qoidalari asosida ishlab chiqiladi, O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish qo'mitasi mos tarkibiy bo'linmalari, sanitar–epidemiologik xizmatlar, yong'inga qarshi nazorat xizmatlari, tabiatni muhofaza qilish organlari va boshqa xizmatlar bilan qonunchilik asosida kelishiladi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik Qonuni (O'zR 04.04.2002 y. № 353–P qarori bilan tasdiqlangan. O'zR Oliy Majlisi 04.04.2002 y. № 354–P Qarori bilan kuchga kirgan.) tarkibida hududni shaharsozlik nuqtai nazaridan mintaqalanish qoidalari, o'zaro nisbatlar, turli shaharsozlik va loyihaviy hujjatlarni qabul qilish, qurilishga ruxsat berish tartibi va tarkibi, quruvchilar huquq va burchlarini o'z ichiga olgan.

Unda qonun darajasida amaliyot uchun muhim loyihalash qoidalari, loyihaviy hujjatlar ekspertizasi tartibi va tarkibi, qurilish ob'ektlarini qurish va

tugallangan qurilish ob'ektlarini qabul qilish tartibi hamda ko'chmas mulk ob'ektini o'zgartirish (ta'mir, qayta qurish) kabi qoidalari reglamentlanadi.

Shaharsozlik Qonuni shaharsozlik faoliyati, hududiy rejalash qonunchiligini boshqaradi. Shaharsozlik Qonuni tomonidan erdan foydalanish, qurilish ishlari olib borish qoidalari belgilanadi.

Boshqalar qatorida, Qonunda hokimiyat organlarining shaharsozlik faoliyatidagi vakolatlari, kapital qurilish ob'ektlarini hududiy rejalash, shaharsozlik nuqtai nazaridan mintaqalash, arxitektura–qurilish loyihalari, qurilish va rekonstruktsiya qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Muhandislik–geologik qidiruv ishlari va boshqa qator ishlarni olib borishda yo'riqnomada keltirilgan shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish, ekspertiza qilish va tasdiqlash tartibi haqidagi ma'lumotlar foydalidir.

Qonun O'zbekiston Respublikasida shaharsozlik hujjatlari materialari tarkibiga, ishlab chiqishni tashkil etishga, ko'rib chiqish, kelishish, ekspertizasi va tasdiqlanishiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Qonun texnik boshqarish qonunchiligi tomonidan belgilab berilgan texnik reglamentlarni qurilish ob'ektlari, hududlari texnik ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi hujjat sifatida qo'llashni ko'zda tutadi. Ma'lumki, texnik reglamentlarni ob'ektlarni havfsizligini aniqlovchitexnik boshqarish talablarigina belgilab berishi mumkin.

Shaharsozlik sohasida hududlarga qo'yiladigan majburiy talablarga ob'ektiv ehtiyoj seziladi, ular hayot faoliyati qulay sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Misol tariqasida, avtotransport to'xtash joyi bilan ta'minlash me'yorlarini, shahar ko'chalari va yo'llariga qo'yiladigan talablarni, bolalar maydonchalari o'rnatilishiga qo'yiladigan talablarni keltirish mumkin.

Qonunda hududiy reglamentlashga katta o'rin ajratilgan. Bu reglamentlash hududiy rejalashtirish hujjatlarida ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa omilarga ko'ra, hududlarni, ularning muhandislik, transport, va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish hamda fuqarolar va ularning birlashmalarini ehtiyojini qondirish maqsadida hududlarni belgilashga yo'naltirilishi zarur. Hududni tarxlanishi

bo'yicha ishlab chiqilgan loyihaviy hujjatlarda muayyan tarxiy echimlar aks etishi, fuqarolar hamda tashkilotlar talablari bevosita ko'zda tutilishi lozim.

Kodeksda keltirilganidek, "... hududni rejalashtirish bo'yicha hujjatlarni tayyorlashda hududiy tarxlash, texnik talablariga asoslanib tuzilgan qurilish va erdan foydalanish qoidalari, O'zbekiston Respublikasi madaniy merosi yagona davlat reestri ro'yhatiga kiritilgan madaniy meros ob'ektlari hududi chegaralari inobatga olingan shaharsozlik reglamentlari, yangi aniqlangan madaniy meros ob'ektlari hududlari, alohida sharoitli mintaqalarni chegaralari asos qilib olinadi".


Ishlab chiqilgan loyihaviy echimlar nashr qilinishi va mazkur hudud aholisi, omma e'tiboriga havola qilinishi zarur. Hammaga o'z fikrlarini bildirish huquqi berilishi shart.

Qonunda, shuningdek, loyiha hujjatlari majburiy davlat ekspertizasidan o'tkazilishi shartligi ta'kidlanadi. Qonunga ko'ra, ekspertiza vazifasi loyiha hujjatlarini texnik reglamentlarga mosligini, shu jumladan, ekologik, madaniy meros ob'ektlarini davlat himoya etish talablari, yong'indan va b. havfsizlik talablariga javob berishini tekshirib chiqishdan iborat.

Qonunga ko'ra, qurilishga ruxsat, loyiha hujjatlarini yer uchastkasi shaharsozlik tarxlash talablariga mosligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, quruvchiga ob'ektni qurish, qayta ta'mirlash yoki kapital ta'mirlash huquqini beradi. Qonun qurilishi rejalashtirilgan ob'ekt qurilishiga ruxsat beruvchi organlarni belgilab qo'ygan, qurilish ishlarini olib boruvchi shaxslar sifatida buyurtmachi shartnomaga asosan taklif qilgan mos malakaga ega bo'lgan (litsenziyaga ega) jismoniy yoki yuridik shaxslarbo'lishi mumkin. Buyurtmachi er maydonini qurilish uchun, qurilish ob'ektini qayta qurish yoki kapital ta'mirlash uchun tayyorlab qo'yishi hamda qurilish ishlarini olib boruvchi shaxsga muhandislik izlanishlar materiallari, loyiha hujjatlari va qurilishga ruxsatni topshirishi zarur. Quruvchi, o'z o'rnida, buyurtmachi topshirig'i, loyiha hujjati, er uchastkasi shaharsozlik tarxi talablari, texnik reglamentlar talablariga asosan qurilish ishlarini olib borishi, bunda aholi va atrof-muhit havfsizligini ta'minlashi, mehnat havfsizligi talablarini bajarishi, madaniy meros ob'ektlarini asrashi lozim. Quruvchi, shuningdek, qurilish

maydonchasi hududiga buyurtmachi vakillari, davlat qurilish nazorati xodimlarini kirishini ta'minlashi, ularga zaruriy hujjatlarni taqdim etishi, qurilish ishlari ustidan nazorat o'rnatishi, bajarish hujjatlarini yuritishi, buyurtmachi yoki nazoratchilarni qurilishni tugatishmuddatlari haqida ogohlantirishi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish haqidagi dalolatnoma tuzilmasdan ishni boshlamasligi, qo'llaniladigan qurilish materialari sifatini nazoratini o'rnatishi zarur.

Qonun nafaqat qurilish yakuniy natijalariga, balki, loyihalash va qurilish jarayonlariga ham talablarni belgilaydi.

ПОЛИТИКО-АДМИНИСТРАТИВНАЯ
КАРТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

21 октября 1899 г. - Принят Закон о государственном выходе Республики Узбекистан

31 августа 1991 г. - Республика Узбекистан объявила о прекращении своего членства в Советском Союзе

19 августа 1991 г. - Декларация независимости Республики Узбекистан

18 ноября 1991 г. - Учреждение Государственного банка Республики Узбекистан

29 декабря 1991 г. - Возвращение из ссылки первого Президента Республики Узбекистан

2 декабря 1992 г. - Учреждение Государственной палаты Республики Узбекистан

22 июля 1992 г. - Принятие Конституции Республики Узбекистан

18 декабря 1992 г. - Учреждение Государственной комиссии Республики Узбекистан

10 декабря 1992 г. - Учреждение Государственной палаты Республики Узбекистан

1 июля 1994 г. - Введение Национального валютного знака Республики Узбекистан

21 октября 1899 г. - Принят Закон о государственном выходе Республики Узбекистан

31 августа 1991 г. - Республика Узбекистан объявила о своем выходе из состава Советского Союза

19 августа 1991 г. - Декларация независимости Республики Узбекистан

18 ноября 1991 г. - Учреждение Государственного агентства Республики Узбекистан

29 декабря 1991 г. - Возвращение на родину первого Президента Республики Узбекистан

2 декабря 1992 г. - Учреждение Государственного правительственного аппарата Республики Узбекистан

22 июля 1992 г. - Принятие Конституции Республики Узбекистан

18 декабря 1992 г. - Учреждение Государственного аппарата Республики Узбекистан

10 декабря 1992 г. - Учреждение Национального банка Республики Узбекистан

1 июля 1994 г. - Введение Национального валютного знака Республики Узбекистан

Узбекистан на карте мира

MADHIYASI
Mutal Burhonov musiqasi

Abdulla Oripov she'ri

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo avlagan divor!

Bagri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
istiqloq mash'ali, tinchlik posboni,
laqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ullug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan divor!

Столица - г. Ташкент
Дата образования - 27.10.1924 г.
Территория - 448,97 тыс. кв. км
Население - 28 001,44 тыс. чел. (на 2010 г.)
Состоит из Республки Каракалпакстан и 12 областей

Границы государств

Граница Республики Каракалпакстан

Границы областей Республики Узбекистан

Столица Республики Узбекистан

Столица Республики Каракалпакстан

Центра области

Прочие названные пункты

Озера постоянные, пересыхающие

Озера проточные, соленые

Речи постоянные, пересыхающие

Каналы, коллекторы

Масштаб 1 : 2 300 000

2.2. Shaharsozlik me'yor va qoidalari, asosiy talablari

(SHNQ 2.07.01– 03).

SHNQ 2.07.01–03 “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurish va rivojlantirishni rejalashtirish” me'yoriy hujjati quyidagi qoidalarni ko'rib chiqadi:

I. Umumiy qoidalar;

II. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurish va rivojlantirishni rejalashtirish qoidalari;

III. Shahar aholi yashash punktlari seliteb hududlari (tarxlash tarkibi. Jamoat markazlari. Turar joy binolari).

IV. Qishloq aholi yashash punktlari seliteb hududlari.

V. Ishlab chiqarish hududlari (Sanoat mintaqalari. Kommunal– ombor mintaqalari)

VI. Landshaftli– rekreastion hududlar (regional rekreastion hududlar. Shahar va shaharoldi rekreastion mintaqalari. Shahar aholi yashash punktlari o'simlik dunyosi, yashil ekinzorlar).

VII. Xizmat ko'rsatish tashkilotlari va korxonalari (Madaniy–maishiy xizmat ko'rsatish; ma'muriy–ho'jalik va kommunal muassasalar; sanitar–kurort va sog'lomlashtirish muassasalari; oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari; internat–uyalar va qariyalar hamda nogironlar maxsus turar joy uy lari);

VIII. Transport va ko'cha–yo'l sistemasi (tashqi transport; ko'cha–yo'l tarmog'i; ommaviy passajir transporti; avtomobillar va boshqa transport vositalariga xizmat ko'rsatish korxonalariga);

IX. Muhandislik uskunalari (suv bilan ta'minlash, va kanalizatsiya; sanitar tozalash; elektr, issiqlik, sovuq va gaz bilan ta'minlash, aloqa, radio va televideniya);

X. Hududni muhandislik jihatdan tayyorlash va havfli geologik hamda gidrogeologik hodisalardan himoyalash (sun'iy sug'orish, suv vositasida obodonlashtirish, ortiqcha suvni ketkazish; vertikal tarxlash, drenaj; havfli geologik jarayonlardan himoyalash);

XI. Atrof– muhitni himoyalash (shaharsozlik ekologiyasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; atmosfera havosini, suv, tuproq va o'simlik dunyosini himoyalash; shovqin, tebranish, elektromagnit maydonlari va nurlanishdan himoya);

XII. Aholi yashash punktlarini qurishda madaniy meros ob'ektlarini asrash.

Shuningdek 10 ta ilova keltirilgan:

1. Majburiy. Yong'inga qarshi talablar.
2. Tavsiya etiladigan. Rekreatsion hududlar uchun ruxsat etilgan yuklar taxminiy ko'rsatkichlari.
3. Tavsiya etiladigan. Bino va er maydonlari qurilish hajmlari, aholiga xizmat ko'rsatadigan tashkilot va korxonalar me'yoriy hisoblari.
4. Majburiy. AZS? Quvvati va texnologik echimi bo'yicha sinflanishi.
5. Majburiy. AZS ekologik havfsizligi standart darajasini ta'minlash bo'yicha ko'riladiga chora–tadbirlar ro'yhati.
6. Tavsiya etiladigan. AZS ekologik havfsizligi yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha ko'riladigan qo'shimcha chora– tadbirlar ro'yhati.
7. Majburiy. Aviaob'ektlar qurilish tartibi.
8. Majburiy. “EVOS loyihasi” tarkibi.
9. Tavsiya etiladigan. Shovqin taralish turli manbalari ovozlari ekvivalent darajalari, ovoz darajasini yashil ekinzorlar yo'lagi yordamida pasaytirish.
10. Majburiy. Umummoddiy va maxsus omborlar er maydonlari o'lchamlari.

Me'yorlarning 1–Umumiy qoidalar bo'limida mazkur me'yor va qoidalar mavjud shahar va qishloq aholi punktlarini rekonstruktsiya qilish va yangilarini loyihalashga taaluqligi uqtiriladi, uning tarkibiga ularni tarxlash va mazkur shahar talablari asosida qurishga qo'yilgan asosiy talablar va fuqarolik himoyasiga oid chora–tadbirlar kiritilgan.

Me'yorlarning 2–shahar va qishloq aholisi yashash punktlari hududlarida qurilish ishlari olib borish va ularni rivojlantirishbo'limida quyidagilar keltirilgan:

Respublika miqyosidagi aholi joylashtirish sistemalarining elementlarini va uning tarkibiga kiruvchi viloyat, rayon va regional aholi joylashtirish sistemalarini ularning ijtimoiy, ishlab chiqarish, muhandislik–transport istiqbolli rivojlanishini inobatga olib va aholi joylashtirilshi bosh sxemasi–O‘zbekiston hududi va viloyatlarni tarxlash loyihasi asosida loyihalanadi;

Eng yirik, yirik va katta shaharlar markazlarini qurish va rivojlantirish tarxlari loyihalarini shaharoldi mintaqalari hududlari bilan birgalikda ko‘rib chiqish lozim;

Hisoblash davridagi aholi sonini aniqlashda aholi sonining o‘shishi demografik tahminini inobatga oinadi;

Aholi punktlarini rivojlantirish uchun hududlarni ulardan funktsional jihatdan oqilona foydalanish, arxitekturaviy–tarxiy echimlar, texnik– iqtisodiy, sanitar–gigienik ko‘rsatkichlari, yonilg‘i–energetik, suv va boshqa resurslari asosida tanlash zarur;

Shahar hududini funktsional jihatdan foydalanishni inobatga olib, seliteb, ishlab chiqarish va landshaftli– rekreastion hududlarga bo‘linadi.

Seliteb hudud turar joy fondi, jamoat bino va inshootlarini, shuningdek, ilmiy–tadqiqot institutlari, ko‘chalar, maydonlar, park va sanitar himoya mintaqalari o‘rnatishni talab etmaydigan alohida kommunal va sanoat ob‘ektlarini joylashtirish uchun mo‘ljallangan.

Ishlab chiqarish hududlari sanoat korxonalari va u bilan bog‘liq ilmiy–tadqiqot institutlarini hamda kommunal–ombor ob‘ektlari, tashqi transport inshootlarini, muhandislik inshootlari va b.ni joylashtirish uchun mo‘ljallangan.

Landshaft–rekreastion hudud – jamoatchilik foydalanadigan ochiq ko‘kalamzorlashtirilgan va suv bilan ta‘minlangan fazolar hamda sanitar– himoya mintaqalari sistemasi. Ko‘rsatilgan hududlar chegarasida turli funktsional vazifalariga ko‘ra: turar joy binolari, jamoat markazlari, sanoat va kommunal–ombor, ilmiy va ilmiy ishlab chiqarish, tashqi transport, ommaviy dam olish va kurort mintaqalari joylashgan.

Aholi yashash punktlari **tarxiy tarkibini** ixcham joylashishini va funktsional mintaqalarni o'zaro bog'liqligini ta'minlab, hududdan samarali foydalanib shakllantirish lozim, bunda arxitekturaviy–shaharsozlik an'alarini, tabiiy–iqlimiy, landshaft, milliy–maishiy jihatlar, atrof muhitni va madaniy merosni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Me'yorlarni shahar aholi yashash punktlari seliteb hududlari 3–bo'limida.

Tarxiy tarkibni shakllantirishda turar joy ob'ektlari, jamoat markazlari, ko'cha– yo'l tarmog'i, ko'kalamzorlashtirilgan hududlar, tabiiy xususiyatlar va mehnat qilish joylarini inobatga olish zarurligi ta'kidlanadi. Seliteb hududga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun 1000 kishiga mo'ljallangan yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar qabul qilinishi zarur: turar joy binolari o'rtacha qavatlilik – 3 qavat bo'lgan hovlisiz uylar uchun – 10 ga, 20 ga – hovlili uylar uchun; 4 qavatdan 9 qavatli binolar uchun – 8 ga. 2500 ga dan ortiq bo'lmagan maydonlarni eni 60 m dan kichik bo'lmagan magistrallar yoki yashil ekinzorlar bilan rayonlarga ajratiladi.

Shaharlarda seliteb hududlar quyidagi tarkibiy elementlarini shakllantirish zarur:

- transport ko'cha va yo'llari bilan ajratilmagan magistrallararo hudud yoki mikrorayon, maydoni 60 ga, uning doirasida kundalik xizmat ko'rsatish muassasalari joylashtiriladi, yo'lovchilar 500 m masofa bosib o'tib etib olish imkoniga ega bo'ladilar;

- maydoni 500 ga bo'lgan turar joy rayoni, uning chegarasida bir nechta mikrorayon yoki kvartallar va jamoat markazi joylashtiriladi, yo'lovchilar 1500 m yurib etib olish imkoniga ega bo'ladilar;

- tarxlanadigan rayon maydoni 2– 4 ming ga, odatda, faqat yirik va eng yirik shaharlarda shakllanadi va uning tarkibiga bir nechta turar joy rayonlari va jamoat markazlari kiradi.

Seliteb hudud tarxiy tarkibi qator omillarga ko'ra shakllanadi: shahar masshtablari, uning iqtisodiy yo'naltirilganligi, mavjud qurilish bazasi va taxmin qilinayotgan o'sish sur'atlari, qurilish rayoni tabiiy omillari va b.

Seliteb hududi tarxiy tarkibini ishlab chiqishda asosiy qoida – aholiga hayot faoliyati davomida maksimal qulay sharoitishdan iborat. Bunda aholi yashash joylarini mehnat qilish, dam olish, sport bilan shug'ullanish joylari bilan qulay jamoat transport aloqasi ta'minlanishi, turar joy majmualarida joylashgan jamoat ob'ektlariga yo'lovchi yo'lkalari orqali borish imkoniyatini yaratish zarur.

Seliteb hududi tahmini o'lchamlarini belgilashda har bir oilani alohida uy yoki xonadonda yashash shartidan kelib chiqiladi. Mazkur shahar uchun hisobiy turar joy bilan ta'minlanganlik oila o'rtacha tarkibi haqidagi demografik tahlil, turar joy binolari istiqbolli turlari va turar joy qurilishining rejalashtirilayotgan hajmiga ko'ra aniqlanadi.

Eng yirik, yirik va katta shaharlar jamoat markazlari tarkibiga umumshahar markazi, tarxlanadigan rayonlar markazlari, turar joy rayonlari markazlari, mahalliy markazlar (shu jumladan, mikrorayon, mahalla, birinchi xizmat ko'rsatish markazlari), dam olish uylari markazlari, savdo–transport markazlari hamda ixtisoslashgan markazlar (o'quv, tibbiy, sport va b.). O'rtacha va kichik shaharlarda, odatda, yagona umumshahar markaz shakllanadi, ayrim joylarda mahalliy markazlar bilan to'ldiriladi (mikrorayon yoki mahalla markazlari, birinchi xizmat ko'rsatish markazlari).

Aholiga xizmat ko'rsatish markazlari sistemalari shakllanishida shaharoldi markazlari bilan o'zaro bog'liqlik ko'zda tutiladi, xizmat ko'rsatish hisobiy radiusi chegarasida:

- Umumshahar markazlari 45 minutgacha;
- Tarxlanadigan rayon (10–300 ming kishi) 45 minutgacha;
- Turar joy rayoni markazi (25–80 ming kishi) piyoda – 15–20 min;
- Mahalliy markaz (mikrorayon 5–15 ming kishi) – 5–16 min;
- Birinchi xizmat ko'rsatish (1000 kishi) – 2–5 min;

Jamoat markazlari solishtirma maydonlari umumshahar markazlari uchun– 5–7 m²/kishi, turar joy rayonlari uchun (jamoatchilik foydalanadigan yashil ekinzorlar va ko'cha tarmog'i maydoni bundan mustasno)– 3–4 m²/kishi.

Turar joy qurilishi–turar joy xonadonlari, uylari, uy oldi hududlari, hudud yaqinida joylashgan turar joy va jamoat binolari, ko'kalamzorlashtirilgan hududlar o'zaro bog'liq birligi. Turar joy binolari va xonadonlar sig'imi va tarkibi hisoblashda aholi ijtimoiy– demografik, tabiiy–iqlimiy, shaharsozlik va boshqa tavsiflari inobatga olinadi. Qo'llaniladigan turar joy qurilish turlari: kam qavatli, hovlili; qam qavatli yuqori va o'rtacha zichlikka ega (4–5 qavat); yuqori qavatli (9– 12 qavat). Er uchastkalari o'lchamlari – 300–600 m². Turar joy fondi hisobiy zichligi (umumiy maydon m²ini hudud 1 ga) 1–2 qavatli hovlili uylar uchun – 1800 m²/ga; 1–2 qavatli bloklangan turdagi uylar uchun – 2200 m²/ga; ko'p kvartirali 2 qavatli – 3000; 3 qavatli – 3900; 4 qavatli – 420; 5 qavatli – 4800; 7 – 5400; 9– 630; 12 qavatli – 6700 m²/ga. Binoni turli qavatli qilib qurilganda turar joy fondi zichligi: 126–b. f– la., bu erda a_1 , a_2 , a_3 – qavatlilik loyihasida qabul qilingan turar joy binolari umumiy maydoni, mikrorayon hamma binolari umumiy maydoniga nisbatan foizda; n_1 , n_2 , n_3 – turar joy fondi zichligi, m²/ga bino qabul qilingan qavatlilikiga ko'ra.

Turar joy rayonlari va mikrorayonlar turar joy fondi hisobiy zichligi 5.1 va 5.2. jadvallardan olinadi. (126–b.dagi jadvallar).

Turar joy fondi zichligini hisoblashda turar joy rayoni hududi maydonidan unda joylashgan xizmat ko'rsatish tashkilot va korxonalari, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va umumshahar vazifali boshqa ob'ektlar maydonlari olib tashlanadi.

Turli qavatli binolar qurilganda turar joy fondi zichligini o'rtacha garmonik formuladan qabul qilinadi.

Jamoat va turar joy binolari orasidagi masofa insolyastiya me'yorlari (2,5 soat – 23.03–22.09) va yong'in havfsizligi talablari asosida minimal qilib olinadi, ya'ni olovbardoshligi I, II toifali binolarda 9 m dan kam bo'lmagan masofa, isitgich polimer materiallardan qoplanganda – 15 m dan kam bo'lmagan, olovbardoshligi III, IV toifali binolarda yoki zilzilabardoshlilik 9 balli sistemada bu masofa ortadi. 4 qavatli binolar uzun tomonlari orasidagi masofa 25 m dan kam bo'lmasligi, 9 qavatli binlar oraisdagi masofa – 40 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Ishlab chiqarish hududlari – tarkibida umumiy ishlab chiqarish infratuzilmali va yordamchi ishlab chiqarishli ishlab chiqarish mintaqalari shakllanadi.

Sanoat mintaqalari ishlab chiqarish – texnologik, transport, sanitar–gigienik va funktsional talablar asosida shakllanadi. O'zbekistonning tarixiy shaharlari va Toshkentda mavjud sanoat korxonalari, transport, eksperimental bazalar, omborxonalarni kengaytirish va yangilarini qurish, kommunal korxonalaridan tashqari, ta'qiqlanadi.

2.3. Sanoat rayonlari va omborxona hududlari majmualari

Shahar sanoat rayonlarida asosiy va yordamchi korxonalar ular bilan bog'liq energetik va transport tarmoq hamda madaniy–maishiy va boshqa xizmat ko'rsatish muassasalari, zavodoldi maydonlar, yashil ekinzorlar guruhlanadi. Shahar seliteb mintaqasi bilan uning transport va muhandislik kommunikatsiya mintaqalari tarxlari bilan sanoat maydonlari bog'lanishi lozim.

Shahardagi sanoat ob'ektlarini joylashtirishda shahar tashqi muhitini ifloslanishiga ta'sir o'tkazuvchi shamollar esish muddati, takroriyliigi va tezligi inobatga olinadi. Ishlab chiqarishni sanitar jihatdan sinflanishiga, uning transport aloqalari va seliteb hududlariga nisbatan joylashtirilishi sharoitlariga ko'ra sanoat rayonlari quyidagilarga bo'linadi:

Ko'p miqdorda ishlab chiqarish chiqindilari ajratib chiqaradigan korxonalari mavjud sanoat rayonlari, seliteb hududdan 50–1000 m masofada joylashtiriladi; Kam miqdorda ishlab chiqarish chiqindilari ajratib chiqaradigan korxonalari mavjud sanoat rayoni, 50–300 m masofada sanitar himoya mintaqasi talab etiladi;

Juda kam miqdorda ishlab chiqarish chiqindilari ajratib chiqaradigan korxonalari mavjud sanoat rayonlari, 50 m kenglikda sanitar himoya mintaqasi talab etiladi.

Issiq iqlim sharoitlarida sanoat qurilishida mikroiklimni yaxshilash muammolari inson mehnat faoliyatining qulay sharoitlari yaratilishi bilan uzviy bog'liq. Sanoat

majmualarini issiq iqlim mintaqalarida loyihalashning muhim sharti bino yo'nalishi, uning balandligi, to'shama va oynavandlanishi qoidalaridir.

Shaharlarni mavjud ishlab chiqarish mintaqalarini rivojlantirish va yangilarini joylashtirish hududlarini: geologik sharoitlar, seysmik mikrorayonlash; chuchuk er osti suvlari sanitar himoyasi mintaqalari, yashash joylari tarxiy tarkibi; transport xizmat ko'rsatish qulayligi; yonilg'i–energetik va boshqa sharoitlar inobatga olinib tanlanadi. Mavjud korxonalar tarkibiga boshqa yo'nalishdagi ishlab chiqarish va kichik korxonalarini joylashtirish ularning zararlilik birinchi sinfidan ortmagan holda ruxsat etiladi.

Sanoat korxonalari uchun maydonni avvaldan hisoblash texnik– iqtisodiy asoslar yoki solishtirma ko'rsatkichlar qo'llanilgan texnik–iqtisodiy hisoblar bilan aniqlanadi. Sanoat korxonalari maydoni bu korxonalar tarxlash loyihalari va bosh tarxlar ishlab chiqish talablari bilan aniqlanadi. Sanitar–gigienik, yong'inga qarshi, portlashga qarshi, shovqin talablariga javob beradigan sanoat korxonalarini seliteb hududlarga joylashtirishda ularni turar joy, maktab, kasalxonadan 50 m dan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi lozim.

Zararli moddalar to'planishi, shovqin darajasi talablar va me'yorlar darajasida bo'lsa, sanitar–himoya mintaqalari ko'zda tutilishi lozim. Sanitar–himoya mintaqasida turar joy, bolalar, umumta'lim muassasalarini joylashtirish ruxsat etilmaydi. Sanitar–himoya mintaqalarini ko'kalamzorlashtirish minimal maydoni ajralib chiqayotgan zararli moddalar miqdori va mintaqa kengligiga nisbatan qabul qilinadi 300 m gacha – 60; 301–1000 m – 50; 1001–3000 m – 40%.

Kommunal–ombor mintaqalar – bu erda oziq– ovqat sanoati korxonalari; ixtisoslashgan omborlar (muzlatgichlar, kartoshka, sabzavot va mevalar saqlanadigan omborlar), kommunal transporti va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari joylashtiriladi. Kommunal–ombor mintaqalarini eng yirik, yirik va katta shaharlarda tarqoq holda joylashtirish lozim, kichik shaharlarda markazlashgan holda joylashtirish zarur. Er maydonlari – bitta odamga 2 m².

Landshaft–rekreastion hududlar – aholi yashash punktlari tarxiy tarkibiy sistemasidan, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy landshaftni va

parklarni saqlab qolish shartidan ko'rib chiqiladi. Bu hududlar ilmiy, madaniy–oqartuv va rekreastion maqsadlarda ho'jalik faoliyati mintaqalari belgilanib olinib, foydalaniladi. Hududni tanlashda tabiiy resurslar, funktsional mintaqalanish va dam olish hududi arxitekturaviy– tarxiy tashkil qilinishi kompleks baholanadi. Rekreastion rayonlar chegarasi tabiiy to'siqlar (tog' tizmalari, daryo, ko'lar va b.)ni inobatga olinib qabul qilinadi. Rekreastion hududlarga bo'lgan talab hisobiva bitta dam oluvchiga to'g'ri keladigan maydon dam olish muddati uzun yoki qisqaligi hamda tog' yoki tekislik joyiga ko'ra qabul qilinadi 20–40/150–300 m² va 10–150/50–100 m² (suratida – uzoq muddatli dam olish va tog' hududlari – birinchi raqamlar, maxrajida – qisqa mudatli dam olish mudati va teksilik hududlar – ikkinchi raqamlar). Suv havzalari plyajlari hududlari maydonlari – bitta tashrif buyuruvchiga 5 m², sanatoriylar uchun – 0,6–0,8; sog'lomlashtirish lagyerlari uchun – 0,2–0,4 va mustaqil dam oluvchilar uchun – 0,5 koefitsientga teng. Rekreastion muassasalar bilan turar joy qurilishi orasidagi masofa 500 m dan kam bo'lmasligi zarur, rekreastion qurilish joylari funktsional mintaqalar hududining 2– 5%ini, 400 kishi/ga tashkil etadi. Bu hududlarda madaniy– maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari shakllanadi, ya'ni me'yoriy 1000 dam oluvchiga – 28 o'rinli kafe, 40 o'rinli oshxona, 12 o'rinli restoran, 1–1,5 ish o'rinli magazin, 20–25 o'rinli kino ko'rish maydonchasi, 15–20 o'ringa mo'ljаланan sport maydonchasi tashkil qilinadi. Yo'l trassalari transport, yo'lovchilar yurish yo'lari yagona sistemasini yaratib, ularni dam olish joylarini kesib o'tmasdan, aholi yashash punktlari magistralari bilan bog'lashi zarur. Shaharoldi landshaftli– rekreastion mintaqasi chegarasida shahar tashqarisidagi parklar, hayvonot bog'lari, dam olish uylari, pansinatlar, mehmonxona, plyajlar, sport inshootlari, sog'lomlashtirish lagyerlari, davolash–profilaktika muassasalari joylashtiriladi.

Dam olishning turli shakl va ko'rinishlariga aholining me'yoriy ehtiyoji hisobi–ularning shaharda shahar oldi mintaqasida (70%) qulay–noqulay joylashish holatiga ko'ra (20 %)va shaharlar toifasiga ko'ra belgilanadi. Ko'kalamzorlashtirilgan hududlarga tashrif buyuruvchilar hisobiy qiymati shahar parklari uchun 150–200, turar joy parklari uchun – 100 deb qabul qilinadi.

Shahar aholisi yashash punktlari yashil ekinzorlari quyidagilarga bo'linadi: umumiy foydalaniladigan yashil ekinzorlar; chegaralanib foydalaniladigan va maxsus vazifali yashil ekinzorlar. Umumiy foydalaniladigan rayon yashil ekinzorlari maydonlari me'yor bo'yicha – 3–4 m², xiyobon va bog'lar – 2–4 m² shahar toifasi va iqlimiy sharoitlariga ko'ra belgilanadi. Eng yirik shahar uchun bu maydon 13–15 dan 17–19 m² ni tashkil etsa, kichik shahar uchun 8–10 dan 11–13 m² gachani tashkil etadi. Mikrorayondagi yashil ekinzorlar ekinlar elementlariga ko'ra m²/kishida belgilanadi, qulay sharoitlardagi bog', xiyobonlar uchun – 3–4 m²/kishini tashkil etadi.

Xizmat ko'rsatish korxona va muassasalari xizmat ko'rsatish korxona va muassasalari turar joylari, xizmat ko'rsatish markazlariga yaqinlashtirilib loyihalanadi, ularning sig'imi haqiqiy imkoniyatlar va ta'minlanganlikning ijtimoiy me'yoriy ko'rsatkichlaridan foydalanib hisoblanadi. Bino qurilish hajmi va yashil ekinzorlar maydoni, aholiga xizmat ko'rsatish muassasalari me'yoriy hisoblari SHNQ 3-ilovasida keltirilgan.

Bino qurilish hajmi va yashil ekinzorlar maydoni, aholiga xizmat ko'rsatish muassasalari me'yoriy hisoblari

2.1– jadval

Hizmat ko'rsatuvchi muassasa nomi	O'lchov birligi	1000 yashovchilarga me'yor		Bino qurilish hajmi, m³		Yashil ekinzorlar maydoni, m²	
		1 navbat	Hisobiy muddat	Hisobiy muddat		Hisobiy muddat	
				o'lchov birligi	1000 kishiga	o'lchov birligi	1000 kishiga
1. Kundalik xizmat ko'rsatish muassasalari							
Maktablar	o'rin	165-280	175-280	24,0	4200-6720	20-38	3300-10640
Bolalar bog'chalari	o'rin	70-125	90-155	33,0	2305-4115	33-35	2315-4325
Oziq-ovqat do'konlari	m²,savdo maydoni	60	70	11,4	798	4-5	280-350/140
Ромешенија културно-массовоу работу	m², pola	50-60	50-60				
2. Navbatma-navbat hizmat ko'rsatuvchi muassasalar							
Oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari do'koni	m²	85	100	21,6	1200	8-10	440
Klublar, san'at saroylari	O'rindiqlar	35/70	40-80	33,5	1340	13-20	520-800
Poliklinikalar	Qabul qilinuv-chilar		52	295	8891	100-200	1360-2700
Banklar	o'rin	5	7	95	1064	30	336
Sportzallari va boshq.	m²	36-50	60-80	-		-	-
Dorixonalar		0,1-0,16	0,1-0,16	1257	201	500/250	75/37

Madaniy–maishiy xizmat ko'rsatish, turar joy qurilishi muassasalari yo'lovchilar piyoda etib olishlari imkoni bo'lgan masofada, ya'ni 300–500 m da – maktabgacha ta'lim muassasalari; umumta'lim maktablari – 500–750 m; mahalla markazlari – 150–300 m; savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari – 300–350 m joylashishi kerak. Umumta'lim o'quv muassasalari 100% bolalarni qamrab olishi zarur, 1 ta o'quvchiga – 50–60 m² er uchastkasi to'g'ri kelishi, maktabgacha 1shdagi bolalarning qamrab olish darajasi 50–70% ni tashkil etishi lozim.

Seliteb hududning hamma darajalarida jimoniy tarbiya va sport inshootlarini joylashtirish lozim, 1000 kishiga 20–40 m² hisobidan mikrorayon uchun va 15–20 m² er uchastkasi o'lchamlari 0,31 dan 0,15 ga gacha bo'lgan umumshahar markazlari uchun.

Transport va ko'cha–yo'l tarmog'i – yuklar tashish va odamlarning minimal vaqt va mablag' sarflab harakatlanishlarini ta'minlash yagona sistemasini ko'zda tutadi, bunda aholi soni o'sishi ehtimoli ham inobatga olinadi.

Aholisi soni 10 ming kishini tashkil etuvchi shahar aholi yashash punktlari uchun ko'cha harakati va yo'lovchilar harakati oqimlari kattaligi hisoblar natijasida aniqlanadi. Magistral sxemalarini tanlash, ko'cha o'lchamlarini va uning ko'ndalang profili elementlarini belgilash, umumiy sxema va ommaviy yo'lovchilar transporti alohida turlari sxemasini tanlash variantlar solishtirilib aniqlanadi. Yashash joylaridan ish joylarigacha bir tomonga harakatlanish vaqti ularning soniga ko'ra 35–45 minutni, million kishidan ortiq aholi uchun 55 minutni tashkil etadi.

Tashqi transport. Temiryo'l, avtomobil va havo transporti yo'lovchilar vokzalini aholi yashash punktlari, vokzallar o'rtasida, turar joy va sanoat mintaqalari hamdatashqi avtomobil yo'llari bilan transport aloqalarini ta'minlab joylashtirish zarur. Turar joyni temir yo'ldan kengligi 10 m bo'lgan sanitar–himoya mintaqasi bilan ajratish lozim, bu erga yo'llar, garajlar, avtomobilar to'xtash joylari, avtomobillarga xizmat ko'rsatish korxonalari, omborlar va 50%

gacha ko'kalamzorlashtirilgan kommunal–maishiy vazifali muassasalar joylashtirilishiga ruxsat etiladi.

I, II, III toifali umumiy tarmoq avtomobil yo'llarini aholi yashash punktlaridan chetda loyihalashtirish maqsadga muvofiqdir. Qurilish joyini shovqindan va avtomobil zararli gazlaridan himoya qilish uchun yo'l bo'ylab 10 m kenglikdan kam bo'lmagan yashil ekinzorlar yo'lagi ko'zda tutiladi.

Aerodromlar seliteb hududlar va ommaviy dam olish joylaridan uchishlar havfsizligini ta'minlash, shovqin va elektromagnit nurlanishdan saqlanish maqsadida, shuningdek, uchish–qo'nish chizig'ini shaharga nisbatan joylashishi, aerodrom sinfiga ko'ra mos ravishda 5–10 va 6–30 km uzoqlikda joylashtiriladi.

Ko'cha–yo'l tarmog'iaholi yashash punktlarining barcha funktsional mintaqalari orasidagi qulay bog'liqlikni ta'minlashi, transport oqimlariniboshqarishi, yuk mashinalari va yengil avtomobilar oqimlarini ajratib turishi lozim. Magistral ko'cha sistemasining o'rtacha zichligi shahar qurilish hududining 2,2–2,4 km/m² ni tashkil etadi. Ko'cha va yo'llar toifalari harakatlanish jadalligi, transport oqimi tezligi va tarkibi asosida qabul qilinadi. Shaharlar ko'cha–yo'l asosiy sinflanishi va tavsiflariga ko'ra ular shahar ahamiyatiga ega magistral ko'chalarga(betanim boshqariladigan harakat); rayon ahamiyatiga ega bo'lgan magistral ko'chalarga va niyahoyat, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'chalarga bo'linadi. Bu 3 toifa ko'chalarga me'yorlarda quyidagi ko'rsatkichlar keltirilgan: harakatlanish hisobiy tezligi (10 dan 60–40 km/soatgacha); harakatlanish yo'li kengligi (3,5–3,75 m); harakatlanish oqimlari soni (6–8 dan 2–4 gacha);tarxdagi eng kichik egrilik radiusi (500–250 m); eng katta nishab (50–80%); trotuar eng katta kengligi (4,5–1,5 m) va boshqalar. Ko'cha harakatlanish qismi bitta yo'lini o'tkazuvchanlik qobiliyatini transport turi, harakatlanish hisobiy tezligi, bo'ylama nishab, harakatlanish yo'llari soni, o'ng yoki chap burilishni amalga oshirish uchun transport vositasini bir yo'ldan boshqasiga o'tish jadaligiga ko'ra hisoblab topiladi. Ko'cha harakatlanish qismi bitta yo'li o'tkazuvchanligi qobiliyatini kesishishda: turli sathlarda – 1200–150 keltirilgan avt/soatiga; bitta sathda – 750–850 keltirilgan avt/soatiga deb qabul qilinadi. Magistrallar tinimsiz

harakatlanish qismi chekkasidan turar joylari qurilishigacha bo'lgan masofa 50 m dan kam bo'lmasligi zarur. Umumshahar ahamiyatidagi magistral ko'chalar hamda boshqa ko'chalar bir-birlari bilan 500 m masofada kesishishiga ruxsat etiladi, chorrahadan 10 m dan kam bo'lmagan masofada o'tish joylarini umumshahar ahamiyatidagi magistral ko'chalarga birikishiga ruxsat etiladi. Turar joy va jamoat binolariga yong'in havfsizligi mashinalari to'siqsiz o'tishi ta'minlanishi lozim. Yo'lovchilar o'tish yo'kalarini kengligi – 4 m dan kam bo'lmasligi zarur. Tramvay yo'llarini maxsus joylarga o'rnatish zarur. Ikki yo'lli tramvay joylashish joyi kengligi – 10 m dan kam bo'lmasligi, bitta yo'lligining kengligi esa – 3,8 m bo'lishi kerak. Tramvayga chiqib tushish joyi maydonchasi poezdning hisobiy uzunligidan 5 m ga ortiq bo'lishi, kengligi – 1,5 m dan kam bo'lmasligi kerak.

“Shaharsozlik” SHNQsida avtomobil yonilg'i quyish shahobchalari loyihalaniishi, ularni tanlash, joylashtirish, quvvati, texnologik echimlariga qat'iy talab va me'yorlar belgilanib berilgan.

Tashkilotlar yengil va yuk mashinalari garajlari, tramvay va trolleybus depolarini shaharlar ishlab chiqarish mintaqalariga yer uchastkalari sig'imi va minimal maydonlari inobatga olinib joylashtiriladi.

Muhandislik uskunalari va obodonlashtirish aholi yashashi, mehnat qilishi va dam olish uchun zaruriy sanitar–gigienik talablar va yuqori qulaylik sharoitlari ta'minlashi zarur. Muhandislik uskunalari suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, elektr, issiqlik va gaz bilan ta'minlash, aloqa va boshqa muhandislik sistemalari bilan birgalikda kompleks loyihalash zarur. Sanitar himoya mintaqalari va sanitar– himoya chiziqlari suv bilan ta'minlash manbalari, suv quvurlari va kanalizatsiya inshootlari suvlari va suv balansini tozalash stanstiyalari maydonlari belgilab berilgan; aholi yashash punktlari guruhiga ko'ra qattiq va suyuq chiqindilarini zararsizlantirish talablari keltirilgan.

Elektroenergiya sarfi, issiqlik, gaz va elektr ta'minoti quvvatlariga bo'lgan ehtiyoj me'yorlari keltirilgan, elektr tarmoqlari, elektr uzatish liniyalari o'rnatish, taqsimlash punktlari va transformator podstanstiyalarga qo'yiladigan talablari asoslab berilgan. SHNQ 56-jadvalida eng yaqin joylashgan muhandislik yer osti

stanstiyalarigacha bo'lgan gorizontali bo'yicha masofalari keltirilgan (suv quvuri, kanalizastiya, gaz quvuri, issiqlik, kabel va b.bino poydevorlarigacha, avtomobil yo'larigacha, havo liniyalari tayanchlari poydevorlarigacha, temir yo'l o'qlarigacha bo'lgan masofalar va b.), alohida e'tibor bu sistemalarni o'zaro kesishishiga qaratilgan, irrigastion kanallar, temir yo'lari va tramvay yo'llari, avtomobil yo'llari, kabel liniyalari va h.k.

2.4. Hududlarni muhandislik jihatdan tayyorlash va havfli geologik va gidrogeologik hodisalardan himoyalash.

Hududni muhandislik jihatdan tayyorlashchora–tartiblari tarkibi iqlimiy tavsiflar, fizik–geologik va girogeologik qidiruv va radioekologik tadqiqotlar bilan shartlanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- yashil ekinzorlarni sun'iy sug'orish;
- qirg'oq oldi yo'lakdagi suvni ketkazish va obodonlashtirish;
- antiseysmik chora–tadbirlar;
- vertikal tarxlash;
- grunt suvlari yuqorida joylashgan hududlardagi grunt suvlari sathini pasaytirish;
- qirg'oqlar ko'chishi, cho'kishi va buzilishidan himoyalash;
- suv toshqinlari va yog'ingarchilik suvidan toshishdan himoyalash.

Hamma yuqoriida sanab o'tilgan suv sarfi, sug'orish usuli, yuzaki suvlarni ketkazish, suv sifati chora–tadbirlariga quyoshdan himoya moslamalarini, suv bosishiga qarshi chora–tadbirlarni qo'shimcha qilish mumkin.

2.5. “Atrof muhitga ta'sir loyihasi” doirasida (EVOS) atrof muhitni himoyalash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Mazkur loyihadagi chora–tadbirlar quyidagilarni ko'zda tutadi:

- shaharsozlik chora–tadbirlari;
- tabiiy karkasni rivojlantirish va asrash (suv aylanishi, ko'kalamzorlashtirish);
- suv himoyaladigan mintaqalardan funktsional foydalanish;
- yo'l transport sistemasini qayta qurish va rivojlantirish;

– zararli ishlab chiqarishni boshqa joyga ko'chirish yoki yo'nalishini o'zgartirish va b.

Shaharlar (cho'l, dashtlar) atrofida shamol va changdan himoyalash uchun o'rmonlarni yaratish, yirik shaharlarni 500 m gacha kenglikda, o'rta shaharlarni 100 m kenglikda va kichik shaharlarni 50 m kenglikda ko'kalamzorlashtirish. Foydali qazilmalar koni aniqlangan yerlarda, qo'riqxonalar, botanika bog'lari, parklar, ko'chish havfi bor yerlarda, sel oqimlari, qor ko'chkilari sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan yerlarda, suv toshishi mumkin bo'lgan yerlarda shahar va sanoat mintaqalarini loyihalash ta'qiqilanadi.

SHNQ 2.07.01–03 da shamol esadigan tomondan seliteb hududlarni joylashtirishga, atmosfera havosini, suv, tuproq, foydali qazilmalar va o'simlik dunyosini asrash hamda shovqin, tebranish va nurlanishdan himoyalashning mos chora–tadbirlari va ularga qo'yiladigan talablar keltirilgan.

Madaniy meros ob'ektlarini himoyalash – shaharsozlik himoyasi arxitekturaviy–shaharsozlik loyihalashining hamma bosqichlarida madaniy merosni tiklab amalga oshirilishi lozim. rayonlar qimmatbaho tarixiy muhitini himoyalashni kompleks rekonstruktsiya, restavratsiya, yangilash va kapital ta'mirlash usulini qo'llab amalga oshirish, bunda avval ilmiy asoslangan loyihaoldi echsimlarini tuzish zarur bo'ladi. Mazkur ob'ektlardan transport va muhandislik kommunikatsiyalarigacha bo'lgan masofa 50–10 m, suv quvuri va issiqlik bilan ta'minlash va boshqa er osti muhandislik tarmoqlarigacha bo'lgan masofa – 5 m ni tashkil etishi lozim.

2.6. Seliteb hududlar tarkibi qisqacha tavsiflari va asoslanganligi

Shahar seliteb hududi hamma elementlarining birligini hamda uning funktsional mintaqalarining o'zaro bog'liqligini shahar tarxlash loyihasi, tarxiy tarkibi belgilaydi. Seliteb hudud tarxiy tarkibi uni tashkil etuvchi elementlarini maqsadli va rastional joylashishini belgilaydi: turar joy binolari, jamoat markazlari, aholi dam olish hududlari. Tarxiy tarkibda asosiy funktsional tugunlar va ularni bog'lovchi transport magistralari va yo'llar hamda shaharning funktsional

hududlari joylashtiriladi. Jamoat markazlari va korxonalarni asosiy transport tugunlari va magistralariga yaqin joylashtirish afzal, bu esa aholi uchun transport qulayligini yaratadi.

Seliteb hududni tarxlash sanitar–gigenik talablarni qondiradigan atrof muhit ko'rsatkichlarini ta'minlashi hamda aholi yashash joylarini estetiklashtirishga xizmat qilishi, mazkur shahar arxitekturaviy o'ziga xosligini yaratishi lozim.


Seliteb hududi o'lchamlariga bo'lgan ehtiyoj yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar asosida 1000 kishiga mo'ljallanib aniqlanadi: bino qavatligi 3 qavatgacha bo'lgan shaharlarda – 10 ga (er uchastkasisiz uylar) va 20 ga (er uchastkasi bo'lgan uylar uchun); bino qavatligi 4 dan 8 qavatgacha bo'lgan shaharlarda – 8 ga; 9 qavatli va undan baland binolar quriladigan shaharlarda – 7 ga.

Shahar seliteb hududi tarxiy tarkibi ikkita sath funktsional fazoviy maydonlari bilan aniqlanadi: mikrorayon (mavze) – turar joy qurilishi elementi, maydoni 10–60 ga, 80 ga dan oshmagan; turarjoy bo'lmagan rayon – maydoni 80 dan 250 ga gachabo'lgan seliteb hududi elementi. Bu ko'rsatkichlar muayyan shaharsozlik holati, iqtisodiy, demografik va boshqa omillardan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin.


Seliteb hudud hisobiy tavsiflari mikrorayon va turar joy rayoni aholisi hisobiy zichligini olishni tavsiya etadi. Bu ko'rsatkichlar mamlakat turli shahar va rayonlari uchun turlicha bo'lishi mumkin, chunki muayyan shaharsozlik holati, iqtisodiy, demografik va boshqa omilar bilan bog'liq. hisobiy ko'rsatkichlarni differentsiastiyalash asosi vazifasini qurilayotgan hudud shaharsozlik ahamiyati darajasi o'taydi va mahalliy sharoitlar majmuasi inobatgsha olinadi: yer narhi, muhandislik va transport magistral tarmoqlarini zichligi, jamoat ob'ektlari mavjudligi, mazkur hududni muhandislik jihatdan tayyorlashga sarflangan mablag', tarixiy, madaniy, me'moriy va landshaft obidalarini mavjudligi. Hisobiy ko'rsatkichlar joylardagi mutaxassislar va hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Mikrorayon chegarasida turar joy binolaridan tashqari jamoat vazifali ob'ektlar tarmog'i–kundalik foydalanish 500 m radiusda xizmat ko'rsatuvchikorxonalari joylashtiriladi. bunday korxonalar qatoriga savdo, umumiy ovqatlanish va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, dorixonalar, aloqa bo'limlari va b. kiradi (2.1., 2.2., 2.3-rasmlar).


Mikrorayon hududi magistral yoki turar joyko'chahamdayo'llari bilan chegaralanadi. bunday kommunikastiya vositalari bilan mikrorayon hududi bo'linishiga yo'l qo'yilmaydi. Chegara vazifasini tabiiy suv havzalari qirg'oqlari bajarishi mumkin. mikrorayon aholisi soni shahar masshtabiga ko'ra quyidagi chegaralarda bo'ladi: kichik shaharda – 4–6, o'rta va katta shaharlarda – 6–12, yirik va eng yirik shaharlarda 20 ming kishigacha bo'lishi mumkin.



2.1– rasm. Mikrorayon loyihasi: b – o'quv– tarbiyaviy muassasalarni tashkil etish sxemasi: 1 – oziq– ovqat do'konlari; 2 – nooziqovqat mahsulotlari do'koni; 3 – umumiy ovqatlanish korxonalari; 4 – maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari; 5 – dam olish muassasalari; 6 – biriktirib qurilgan xizmat ko'rsatish majmualari; 7 – maktab majmualari madaniy– soprt faoliyati bloklari bilan; 8 – o'quv– tarbiyaviy majmua; 9 – maktabgacha tarbiya markazlari; 10 – yasli guruhlar bo'limlari filiallari.



2.2– rasm. Mikrorayon loyihasi: *a* – bosh tarx sxemasi: 1 – 10 – ko'p qavatli turar joy binolari; 2– 5...7 – qo'p qavatli uylar; 3..4 – ko'p qavatli uylar; 4 – maktab majmua klub– sport faoliyati bloki bilan; 5 – maktabgacha tarbiya markazlari; 6 – jamoat– savdo ko'chasi; 7 – dam olish markazi; 8 – savdo markazi; *b* – jamoat– savdo ko'chasi.



2.3– rasm. Mikrorayonlar bosh tarxlari sxemalari: *a* – turar joy rayonidagi 2 ta mikrorayon bosh tarxlari; 1 – umumta'lim maktabi; 2 – bog'cha– yaslisi; 3 – dam olish joylari; 4 – sport maydonchalari; jamoat madaniy– maishiy markazlari; 6 – birinchi xizmat ko'rsatish bloklari; 7 – turar joy binolari.

Turar joy rayoni mikrorayonga nisbatan yirikroq bo'lib, seliteb hudud elementi bo'lib hisoblanadi. Turar joy rayoni tarkibiga, odatda, 1500 m radiusda aholiga xizmat ko'rsatuvchi jamoat markazi bilan birlashtirilgan bir nechta mikrorayonlar kiradi. Turar joy hududi umumshahar ahamiyatidagi magistral

yo'llar va ko'chalar, tabiiy yoki sun'iy to'siqlar (rel'efning faol o'zgarish joylari, kengligi 10 m dan kam bo'lmagan yashil ekinzorlar va h.k.) bilan chegaralanadi. Turar joy hududida shahar ahamiyatiga ega bo'lgan jamoat ob'ektlarining bir qismini joylashtiriladi.

Turar joy hududi aholisi hisobiy zichligi

2.2-jadval

Hudud shaharsozlik jihatdan ahamiyatliligi	Aholisi soni, ming kishi bo'lgan shaharlar guruhlar uchun aholi zichligi kishi/ga						
	20 gacha	20– 50	50– 100	100–250	250– 500	500	ortiq
Yuqori	130	165	185	200	210	215	220
O'rtacha	–	–	–	180	185	200	210
Past	70	115	160	165	170	180	190

Ko'p qavatli uylar yonida joylashgan hudularga turar joy qurilishi loyihalanganda dam olish, sport, ho'jalik va boshqa maydonchalar ko'zda tutilishi lozim. turar joy va jamoat binolarigacha bo'lgan masofa va maydonchalar o'lchamlari 5.5-jadvalda keltirilgan

2.3-jadval

Maydonchalar	Maydonchalar solishtirma o'lchamlari, m ³ /kishi	Maydonchadan turar joy va jamoat binolari oynalarigacha bo'lgan masofa, m
Bolalar o'ynashi	0,7	12
Kattalar dam olishi	0,1	10
Jismoniy tarbiya bilan shug'ulanish	2,0	10– 40
Ho'jalik	0,3	20
Itlarni aylantirish	0,3	40
Ochiq avtomobil to'xtash joyi	0,8	5.6– jadvalga ko'ra

Ochiq vaqtincha avtomobil to'xtash joylarini loyihalashda har bir avtomobil uchun 25 m² joy, maydonchadan turar joy uylariga kirish joylarigacha 10 m dan kam yuo'lmagan masofa qabul qilish zarur. Garaj va avtomobil to'xtash joylaridan mashina soniga qarab turar joy va jamoat binolarigacha talab qilinadigan masofa 5.6-jadvalda keltirilgan.


2.4-jadval

Masofa aniqlanishi zarur bo'lgan binolar	Avtomobilar soniga ko'ra garaj va ochiq avtomobillar to'xtash joylaridan binolargacha bo'lgan masofa, m				
	10 va undan kam	11– 50	51– 100	101– 300	300 dan ortiq
Turar joy binoari	10	15	25	35	50
Turar joy binolari derazasiz burchak qismlari	10	10	15	25	35
Jamoat binoari	10	10	15	25	25
Umumiy ta'lim maktablari va maktabgacha tarbiya muassasalari	15	25	25	50	*)
Stasionarli davolash muassasalari	25	50	*)	*)	*)

* Davlat sanitar nazorati organlari bilan kelishib aniqlanadi.

2.7. Seliteb hudud qurilishi tarxiy sxemalari

Shahar qurilishi kompleks tarzda olib borilishi, turar joy binolari bilan birgalikda jamoat ob'ektlari ham qurilishi lozim. jamoat xizmat ko'rsatish muassasalari tarmog'i, odatda, ikkita asosiy qoida asosida pog'onali sistemada quriladi: kundalik xizmat ko'rsatish ob'ektlarini maksimal darajada turar joy majmualariga yaqinlashtirish (selitebda joylashgan tashkilot va muassasalarga ham) va davriy va kam tashrif buyuriladigan xizmat ko'rsatish ob'ektlarini rayon va shahar ahamiyatidagi yirik markazlarga jamlash (2.4-2.5-rasm). aholi ehtiyojlarini to'liqroq qondirish maqsadida jamoat markazlarida ham turli sohalar xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish mumkin.



2.4– rasm. Chekka rayon (loyiha): a – bosh tarx sxemasi; 1 – dam olish markazi; 2 – savdo markazi; 3 – kafe, dorixona, jamg'arma banki, maishiy xizmat ko'rsatish qabul punkti; 4 – hammom– sog'lomlashtirish markazi; 5 – poliklinika; 6 – bolalar musiqa maktabi; 7 – umumta'lim maktablari; 8 – bolalar bog'cha– yaslilari; 9 – turar joy binolari; 10 – yotoqxonalar; b – madaniy– maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish sxemasi; v – o'quv– tarbiyaviy muassasalar tarmog'ini tashkil etish sxemasi; 1 – oziq– ovqat do'konlari; 2 – nooziqovqat do'konlari; 3 – umumiy ovqatlanish korxonalari; 4 – maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari; 5 – madaniyat, dam olish muassasalari; 6 – biriktirib qurilgan xizmat ko'rsatish punktlari; 7 – maktab majmuasi klub– sport faoliyati bloki bilan; 8 – bolalar bog'chalari.


Xizmat ko'rsatish ob'ekti vazifalari va aholi joylashgan joyiga ko'ra shahar hududida quyidagi ob'ektlar ajratiladi:

A. Turar joy yaqinida joylashgan ob'ektlar (kundalik ehtiyoj ob'ektlari) – bolalar bog'cha–yaslilari, sport zalari va b.

B. Piyoda qatnash iloji bo'lgan, lekin insonlar turar joylari bilan bog'liq bo'lmagan ob'ektlar – kafe, oshxona, dorixona, aloqa bo'limi, oziq–ovqat do'konlari va boshq.

V. Davriy va kam tashrif buyuriladigan ob'ektlar.

G. Noyob, ixtisoslashgan ob'ekt va majmualar.



2.5– rasm. Shahar jamoat markazlari tarkibi: 1 – umumshahar markazi; 2 – turar joy, sanoat va ommaviy dam olish mintaqalari markazlari; 3 – ixtisoslashgan markazlar (o'quv, tibbiy, sport va b.); 4 – aholi joylashtirish sistemalaridagi xizmat ko'rsatish markazlari.

Madaniy–maishiy aloqalarni rasionallashtirish xizmat ko'rsatish

ob'ektlarini maqsadga muvofiq joylashtirish imkonini beradi. Xususan, A guruhi ob'ektlarini qurilish maydoni ichkarisiga joylashtiriladi; B guruhi ob'ektlarini bir–biridan 1000 m masofada bir tekisda, shahar tarxiy tuzilmalari chegarasini inobatga olmasdan joylashtiriladi; V guruhi muassasalarini A guruhi ob'ektlari bilan birgalikda seliteb hududi doirasida joylashtirish maqsadga muvofiq; G guruhi

korxonalarini shahar hamma rayonlari aholisi tashrif buyurishi imkoni bo'lishi shartidan kelib chiqib joylashtiriladi – turar joy va tarxiy rayonlar markazlarida yoki umumshahar markazida. Umumshahar markazi shahardagi xizmat ko'rsatish ob'ektlarini joylashtirish sistemasi fazoviy tarkibini shakllantiruvchi asosiy element bo'lib hisoblanadi.


Turar joy mikrorayoni jamoatchilik markazi sport, kino va klub zalari, mehmonxona, do'konlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish majmualarini birlashtirgan binoda jamlangan. Franstiyadagi Il–dAbo shahri turar joy majmualaridan birining ko'p funktsiyali xizmat ko'rsatish markazi shahar tarxiy tarkibidan kelib chiqib barpo etilgan: nisbatan avtonom joylashgan, bir–biridan rel'ef past–balandliklari, suv to'siqlari, yashil ekinzorlar, qishloq ho'jalik ekinlari bilan ajralgan rayonlardan iborat.

Jamoat markazining ko'p yarusli kompozitsiyalarini qo'llash ehtimoli yer osti fazosini madaniy–maishiy xizmat ko'rsatish, omborlar, transport yo'lari, parkinglar va avtomobil to'xtash joylari uchun faol qo'lash imkonini beradi. Bunda yuqoridagi sath to'liqligicha yo'lovchilar uchun ozod qilinadi.

Yer osti fazosinidan foydalanish shaharsozlikda katta ahamiyatga ega ekanligini amaiyot ko'rsatmoqda. Bu holatning muhimligi, ayniqsa, binolar qayta qurilganida yoki tarixan shakllanib bo'lgan hududlarda yangi qurilish ishlarini olib borishda sezilmoqda.

Qator hollarda muhim jamoat fuekstiyalari o'zining arxitekturaviy–fazoviy echimini ixtisoslashtirilgan markazlar, alohida shahar rayonlari va ixtisoslashgan aholi yashash punktlari ko'rinishida topmoqda. Ixtisoslashgan tibbiy markaz loyihasi maydonda har biri alohida binoni egalaydigan tibbiyot muassasalarini qurishni ko'zda tutadi. binolar asosiy guruhi qizil chiziqdan 120 m tashlab, magistral bo'ylab joylashtiriladi, bu esa o'z o'rnida bu erda himoya yashil mintaqasini yaratish imkonini beradi. bir chiziqda tortilgan kasalxona binolari turli qavatligiga qaramay, to'shama yuqorisining bir xil belgisiga ega, bu echim esa joy rel'efi pastligi oqibatida qabul qilindi.

Katta sig'imli vaxtali poselkalarda (200–300 kishi) fazoviy jihatdan ixcham, 25 hajmdan iborat turar joy majmualari loyihalanadi, ular maxsus turar joy va jamoat bloklaridan jamlangan.



2.6– rasm. Naberejnie– Chelnidagi 1800 o‘ringa mo‘ljallangan tibbiyot markazi (Rossiya): 1 – tug‘ruqxona; 2– bolalar kasalxonasi; 3 – ruhiy dispanser; 4 – teri tanosil dispanseri; 5 – sil kasalliklariga qarshi dispanser; 6 – yuqumli kasalliklar kasalxonasi; 7 – kattalar uchun poliklinika; 8 – bolalar poliklinikasi; 9 – ko‘p profilli kasalxona; 10 – ovqatlanish bloki; 11 – kirxona; 12 – markaziy sterillash bo‘limi va dorixona; 13 – hamshiralar maktabi; 14 – gaz bug‘xonasi.

Bu hududlar shaharlari va turar joy poselkalari uchun turar joy qurilishi sxemasi mahadiy noqulay tabiiy–iqlimiy omilarni (kuchli shamol, qor bo‘ronlari) inson tanasiga ta’sirini maksimal pasaytirishni ko‘zda tutadi. qurilish alohida jihatlari ularning ixchamligi, xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini iloji boricha turar joy binolari burchaklariga qo‘shib qurib yaqinlashtirishdir. qo‘shib qurilgan joylar turar joy binolari bilan isitiladigan kommunikasion koridorlar bilan bog‘langan, bu ese ob– havo sharoitlari yomonlashganda ham aholi majmuaga tashrif buyurishi imkonini yaratadi. Qator loyihalarda bu kommunikastiyalar vazifalari kengaytirilgan: qishki bog‘, issiqxona ko‘kalamzorlashtirish ko‘zda tutilgan. Binolarni bloklash amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston qurilish–iqlim mintaqasi noqulay tabiiy iqlim sharoitlari 1 A, B, V, G qurilish ishlari olib borish va turar joy hamda jamoat binoarining hajmiy–tarxiy echimlariga maxsus talablar majmuasini ilgari suradi.

Ko'rsatkichlariga ko'ra issiq iqlim quruq va nam turlarga bo'linadi. Quruq issiq iqlim o'simlik dunyosi bilan tavsiflanadi (bu esa havodagi kislorod miqdorini kamaytiradi), shuningdek qumli va lessli gruntlar kuchli shamol ta'sirida va past nisbiy namlikda chang bo'ronlari hosil qiladi.

Issiq quruq iqlim sharoitda shahar qurilishini loyihalashda nafaqat insonlar doimiy joylashgan joylarni, balki qurilish konstrukstiyalari, uskunalari, texnikasini ham zararli iqlim ta'sirlaridan himoya choralarini ko'rish zarur.

Shahar bosh tarxini ishlab chiqishda ikkita asosiy shaharsozlik masalalari hal etiladi: aholi hayot faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va mahalliy tabiiy muhitni asrash, tabiiy majmualarni saqlash, ulardan oqilona foydalanish. Shahar atrof muhiti holati sanitar–gigienik va ekologik me'yorlar, cheklovlar – nazorat xizmatlari tomonidan aniqlanadi.

Sanitar–gigienik me'yorlar va kriteriylar: havo, tuproq, suvdagi ruxsat etilgan zararli modalar konstantriyasi, muhit jismoniy omilari chegaraviy ruxsat etilgan darajalari – shovqin, tebranish, elektrmagnit maydonlari va b.nisbatan to'liq ishlab chiqilgan.

Shaharsozlik muvaffaqiyati rayonlash sxematik xaritasi, ya'ni yomg'ir, qor t, ϕ , ψ , l lari, iqlim ko'rsatkichlarini belgilovchi rayonlar va rayonoldi mintaqalar ajratilishi bilan ta'minlanadi. Rayonlash asosida uy joy va mavzu jamoat binoarining faqat asosiy tipologik jihatlari – xonadonli uylat, bog'chalar, yaslila, maktab va b. tarxlanishi me'yorlanadi, shaharsozlik qurilishining majmuaviy masalalarini tabiiy–iqlimiy va ekologik masalalarni inobatga olib echish uchun iqlimiy baholash va kompozitsion tarkibni nipsbatan chuqurroq differenziatsiya qilish zarur bo'ladi.

Issiq iqlim sharoitda hudud, turar joylar yaxshi shamollatilishi zarur, qisqa va nuqtali binolar bilan tarqoq holda qurilish ishlarini olib borish zarur.


Binolar qizib ketishini oldini olish uchun – qurilish maydonlari uchun tog' rayonlari yoki daryo, suv havzalari bo'ylarini tanlash lozim. Aholi yashash punktlarini vodiya joylashtirish, uni o'rab turgan rel'ef chang to'zonlaridan himoyalashiga xizmat qiladi, zich ixcham qurilish turidan, iloji boricha kam qavatli

yopiq yoki yarimyopiq tarxiy tarkibli qurilishdan foydalanish maqsadga muvofiq; uy–ekranlarni barpo etish samarali – mavze ichidagi fazoni qum bo’ronlaridan himoyalaydi, keng, gruntlarga chuqur joylashgan ichki hovlili binolar qurilganda shamollatish va yorug’lik ta’minlanadi.


Генплан микрорайона




2.7. Rasm




2.8. Rasm.




2.9. Rasm




2.10. Rasm



2.11. Rasm



2.12. Rasm



2.13. Rasm

III bob. O'zbekiston rivojlanishining yangi sharoitlarida shaharsozlik faoliyati.

3.1.Umumiy qoidalar.

Hozirgi kunda jahonning yirik shaharlarida shahar aholisining deyarli uchdan bir qismi joylashgan. Bu shaharlar tarkibi va dinamik shakli juda murakkab aholi joylashtirishning yangi turlariga yo'l ochib berdi.

Shahar mamalakatlar va regionlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining markaziy omili bo'lib qoldi va bu hol shaharni ijtimoiy va ekologik rivojlantirishiga yo'naltirilgan yangi yondoshuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Shahar – murakkab va xilma-xil dunyoning bir qismi bo'lib, unda aholi yashaydi va u rivojlanishning ob'ektiv qoidalariga bo'ysunadi. O'zbekiston shahar tarmoqlarini sifat tarkibi va shaharlashtirilishining alohida xususiyati shahar aholisining yirik, aholisi soni 100 ming kishidan ortiq bo'lgan shaharlarda jamlanishidir. 1926 yilda O'zbekistonda faqat ikkita yirik shahar – Toshkent (323,6 ming kishi) va Samarqand (105,2 ming kishi) bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda bunday shaharlar soni 17 taga etdi, bu esa yirik shaharlarning muhim tashkiliy-ho'jalik, ijtimoiy-madaniy va sanoat markazlari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy va sanoat jihatdan rivojlanishioqibatidir. bu shaharlar ichida mamalakatimiz poytaxti – Toshkent shahri ajralib turadi, aholisi soni 2 milliondan ortiq, bu raqam O'zbekiston shaharlari aholisi sonining 23,5% ini tashkil etadi. Hammasi bo'lib hozirgi kunda respublikamizda 234 ta shahar poselkalari, shu jumladan 121 ta shahar va 113 ta shahar poselkalari mavjud.

Shahar tarmog'i o'sishi jarayoni shahar aholi joylashgan joylari tarkibidagi o'zgarishlarga ham olib keldi (shaharlar soni 2,4 marotaba, shahar poselkalari soni 6,6 marotaba oshdi), bu esa respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining natijasidir. Natijada respublika aholisining umumiy sonidan (27,1 mln. kishi) 9,1 mln.kishi (37,7%) shaharlarda va 15 mln.kishi (62,3%) qishloq joylarida istiqomat qiladi, yuqorida keltirilgan raqamlar respublika shaharlashtirilgani darajasi tavsiflaydi.

Rayon va viloyatlarni hududiy–shaharlashtirish aholi joylashtirish tarkibini takomillashtirish va ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish uchun kichik va o'rta shaharlarni hamda aholisi soni 11,6 ming kishini tashkil etuvchi qishloq joylarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish lozim.

Tarixiy shaharlarda qadimiy o'tmishdan meros qolgan rayonlar tarxlarini zamonaviy hayotga moslashtirish, eski qurilish ob'ektlarini faol rivojlanayotgan shahar tarkibiga kiritish shaharsozlikning murakkab vazifasidir. Zamonaviy shaharsozlik ongi shahar xo'jaligidagi, uni qayta qurish texnologiyasidagi va madaniyatini rivojlanishidagi real holatni inobatga olishga intilmoqda. Insoniyat planetadagi tirik mavjudot ekologik jihatdan o'zaro bog'liqligini yanada chuqurroq anglay boshladi. Shaharsozlikda tabiiy sharoit va resurslardan to'liqroq va rastional foydalanishga intilish, oxir oqibat nojo'ya oqibatlarga olib kelishi mumkin va bu masalada inson faoliyati va tabiat ongli hamohanligiga erishish zarur. Bunda shaharlar atrofidagi ekologik, tabiiy resurslar krizislarini oldini olish zarur.

Shaharga, inson tomonidan yaratiladigan ikkinchi tabiatga, bo'lganidek munosabat ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sistemalarni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi. Shaharlar kelajagi ekologik muvozanatlashgan, dinamik, o'zaro bog'liq rivojlanish fazosi bo'lib qolishi zarur.

3.2. Shaharsozlik tarxlash va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish sistemasi

Shaharsozlik, yashash moddiy muhitini tashkil etish faoliyati sifatida, uning tarxlanish jihatlarini belgilaydi. Shaharsozlik tarxlash muhitni maqsadli yo'naltirilgan o'zgartirishlar jarayoni bo'lib, uning hamma jihatlarini qamrab oladigan rivojlantirish asosiy maqsadlaridan kelib chiqib tuziladi. Maqsadlar orasida asosiy o'rinni aholi hayoti moddiy va madaniy darajasini oshirish, hayotning yangi ko'rinishi shakllantirish egallaydi. Ijtimoiy maqsadlar hududlarni istiqbolli rivojlanishidagi tarxlash va boshqarishga jidiy o'zgartirishlar kirituvchi iqtisodiy maqsadlar bilan o'zaro bog'liq.

Bozor iqtisodi talablariga ko'ra markazlashmagan iqtisodga o'tish, shaharsozlik loyihalashdan avvalgi shaharsozlik nazariyalarini, aholi yashash

punktlarini tarxlashni, hududlar funktsional–tarxiy tashkil etilishini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

O‘zbekiston shaharsozlik siyosatiga hozirgi kunda qator omilar o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda: siyosiy va iqtisodiy reformalar, bozor iqtisodi sharoitlariga ko‘ra davlat korxonalarini qayta qurish, xususiylashtirish va inflyatsiya. Shaharsozlikdagi yangi jarayonlar va ziddiyatlarni harakatlantiruvchi kuchi yer va turar joy siyosati reformalari, turar joy va ko‘chmas mulk bozorining paydo bo‘lishi va rivojlanishidir.

Yangi ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish sharoitida shaharlar rivojlanishi, erdan yuqori daromad olib foydalanishga kapital mablag‘larni kiritishni o‘lishi, shahar markaziy mavzellariga elit turar joy binolarini qurilishi bilan bog‘lanmoqda.

Bozor iqtisodi sharoitidagi mamlakatlarda zamonaviy shaharsozlik tarxi ilmiy–texnik bilimlarni davlat dasturlari bilan bog‘lashga intilmoqda va quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- yerdan foydalanish (mintaqalash, erdan foydalanish turlarini o‘zaro bog‘lash, davlat ob‘ektlarini joylashtirish);
- transport (yo‘llar, avmagistrallar, tezkor shahar transporti, aeroportlar, vokzalar);
- muhandislik– texnik va infratuzilma;
- tarixiy muhitni saqlab qolish;
- tabiatni asrash chora–tadbirlari.

O‘zbekistonning murakkab demografik holati sharoitida shaharsozlik tarxlash bevosita ijtimoiy–demografik muammolarni demografik siyosat ishlab chiqib, hal etish bilan bog‘liq. Tarxlash vaqtincha chegaralari, faoliyati va mazmuni uning qo‘llanish darajalari bilan belgilanadi.

Umumdavlat darajasida shaharsozlik tarxlash respublika aholisi hayoti faoliyati muhitini fazoviy tashkil etishdan iborat, O‘zbekiston Respublikasi aholisini joylashtirish Bosh sxemasi ko‘rinishida amalga oshiriladi. aholi joylashtirish sxemasi jamiyat rivojlanishi yo‘nalishlarini o‘zida aks ettiruvchi umumdavlat ishlanmalari qoidalariga ko‘ra bajariladi:

- O‘zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish sxemasi;

- O‘zbekiston Respublikasi tabiatidan foydalanish sxemasi. Istiqbolli tashhis mudati 30 (50) yil deb belgilanadi.

Viloyatlar va Qoraqalpoq avtonom Respublikasi uchun bajariladigan rayonli tarxlash asosiy vazifasi hududni funktsional mintaqalash va xalq xo‘jaligi muhim ob‘ektlarini o‘zaro bog‘lab kompleks joylashtirishni ishlab chiqish va ularni birinchi navbatda (5–7 yil) va hisobiy mudatda (20– 25 yil) rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Shahar *aglomerastiyalari*, shaharvaboshqaaholiyashashpunktleri darajasida bosh tarxlar tuziladi, ularning asosiy vazifasi shahar muhiti sifat o‘zgarishlari kompleks kelishilgan echimlarini ishlab chiqish va uni rivojlanishini boshqarishdan iborat. Mavjud amaliyotda bosh tarx shaharsozlik loyihalanishida,shahar yoki alohida poselka hududida inson hayot faoliyati muhitini yaqni 20–25 yilga mo‘ljalangan istiqbolli rivojlanishini aniqlashda, asosiy o‘rinni egallaydi. unda tarxiy tarkib, sanoat va seliteb, kommunal–ombor va boshqa funktsional mintaqalar, jamoat xizmat ko‘rsatish, transport sistemalari, muhandislik infratuzilma hamda ekologik vaziyatni yaxshilash masalalari hal etiladi.

Bosh tarx ishlab chiqilishi uzoq muddatli (20–25 yil) shaharsozlik siyosatini kuzatish va asoslashga yo‘naltirilgan:

- yaqin istiqbolga (10 yil) shaharsozlik siyosatiga kiritish;
- o‘rtacha va joriy tartiblarda (5 yil va 2–3 yil) loyihalash uchun topshiriqlar ro‘yhatini aniqlash.

Tarkibiga to‘rtta o‘zaro bog‘liq loyihalash bosqichlari – strategik, taktik, besh yilik va joriy tartiblar kiruvchi shaharsozlik loyihalash bosqichlari ajratiladi.

Strategik loyihalash bohqichida rivojlanishning muhim ijtimoiy va ekologik–shaharsozlik asosnomalari, uzoq yilarga mo‘ljalangan istiqboli shaharsozlik sistemasi rivojlanishi ssenariylari tuziladi.

Shaharsozlik strategiyasi ishlab chiqarish jarayoni tarkibiga ikkit yiriklashtirigan bosqichlar kiradi:

- tashxisiy–tahliliy tadqiqotlar, uzoq yillarga mo’ljalangan shaharsozlik rivojlanishi va maqsadlarni asoslab berish. Bu tarxlash bosqichi natijasi “Shahar aglomerastiyasi, shahar shaharsozlik rivojlanishining asosiy yo’nalishlari va konstepstiyalari”dir.

Taktik loyihalash darajasida ham ikkita bosqich belgilanadi:

- strategiya bosh muammolarini tarkiblashtirish va birinchi navbatdagi yo’nalishlar va ularni hal etish usullarini dastur–asosnomalar ishlab chiqish asosida aniqlash;

- yaqin kelajakka shaharsozlik talablari ro’yhatini belgilovchi shaharsozlik siyosatini, shahar turli mintaqalarida shaharsozlik tartiblari tavsiflarini, davr cheklangan aniqlashtirilgan resurslarini shakllantirish. Loyihalashning taktik tartibini kiritilishi shaharsozlik tarxi bosqichini yakunlaydi.

Bu bosqichga “Bosh tarx loyihasi” va “transport, muhandislik, ijtimoiy va ekologik sistemalar sohalar bo’yicha rivojlanishi sxemasi” mos keladi.

Shaharsozlik siyosati qoida va ko’rsatmalaridan kelib chiqib, besh yillik tartibda loyihalalanadigan binolar majmuasi aniqlanadi, uning tarkibiga kompleks dasturlar ishlab chiqish, qurilish ob’ektlarini joylashtirish tarxlari, shahar ma’muriy markazlarini, ho’jalik sohalarini, detalli loyihalash loyihalari uchun topshiriqlar kiradi. sanab o’tilgan materiallar besh yillik loyihalash bo’limida ishlabyu chiqiladi, keyin joriy tartibda loyihalash darajasida muayyanlashtiriladi.

Joriy shaharsozlik tarxlash tarkibiga yaqin 2–3 yil ichida amalga oshiriladigan qurilishni joylashtirish loyihalari ko’rinishidagi, qurilish ob’ektlarini loyihalash va rekonstruktsiya qilish, turar joy kvartallari va shaharsozlik majmualarini qurish loyihalari, qisqa mudatli dasturlar kiradi.

3.3. O’zbekistondagi shaharsozlik huquqiy va me’yoriy bazasi.

Shaharsozlik huquqini shakllantirishning asosiy maqsadi – aholi yashash joylari va alohida aholi punktlari sistemasini rivojlantirish, fuqarolar to’laqonli

hayot faoliyati muhitini shaharsozlik vositalari yordamida yaratishga qaratilgan shaharsozlik munosabatlarini boshqarishdan iborat.

Shaharsozlik munosabatlari shaharsozlik huquqi bilan umumiy ahamiyatli va maxsus qonunchilik dalolatnomalari, er, suv, tog', o'rmon munosabatlari maxsus qonunchiligiga mos ravishda boshqariladi.

Huquqiy munosabatlar ob'ektlari quyidagilar:

- yer resurslari;
- tabiiy resurslar;
- bino va inshootlar;
- transport va muhandislik–tuxnik infratuzilma ob'ektlari;
- tarixiy– madaniy hudud ob'ektlari.

Huquqiy boshqarish tashkiliy; mazmuniy; texnologik huquqiy boshqarish va davlat me'yoriyo bazasi – QMQ asosida hujjatli boshqarishdan iborat.

3.4. Hududni tarxiy tashkil etish va funktsional mintaqalash

Respublika aholini joylashtirish sistemasi 3 ta darajadan iborat: Yagona (miliy) joylashtirish sistemasi, regional joylashtirish sistemasi va aholi yashash punktlari subregional sistemalari. Yagona (miliy) joylashtirish sistemasi Respublika xalq xo'jaligi majmuasi asosida shakllanadi. Aholi joylashtirilshining regional sistemalari hosil bo'lishiga asos vazifasini bir–biridan tog' tizmalari, cho'llar va boshqa tabiiy chegaralr bilan to'silgan oazislar bajaradi. Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Buxoro–Navoiy, Janubiy va Quyi Amudaryo oazislari shakllangan.

Aholi joylashtiriladigan rayonlar turlari. Tabiiy–iqlimiy va landashft sharoitlarining xilma–xilligi, bu oazislardagi ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi farq, ularning tabiiy–ekologik va tarxiy holatlaridagi farqni ham belgilab beradi, shu sababli, oazislar farqlarini aholini joylashtirish sistemasini loyihalashda inobatga olish uchun O'zbekistondagi aholi joylashtirish rayonlari turlari keltirilgan:

1 turi – tog' va cho'l orasida joylashagn oazislar asosida shakllanadigan aholi joylashtirish rayonlari. Tarxiy tarkib murakkabligi ko'rsatkichi – yuqori (aholi joylashtirish Toshkent va Samarqand rayonlari).

2 turi – hamma tomonidan tog' bilan o'ralgan oazislar asosida shakllanadigan aholi joylashtirish rayonlari. Tarxiy tarkib murakkabligi ko'rsatkichi – o'rtacha (aholi joylashtirish Farg'ona va Janubiy rayonlari).

3 turi – atrofi cho'l bilan o'ralgan, pasttekisliklarda shakllanadigan aholi joylashtirish rayonlari. Tarxiy tarkib murakkabligi ko'rsatkichi – past (aholi joylashtirish Quyi Amudaryo va Buxoro–Navoiy rayonlari).

Tarxiy tarkib. Hudud tarxiy tarkibi aholi joylashtirish regional sxemalari, rayonli tarxlash sxema va loyihalarining muhim bo'limlari bo'lib sanaladi. Rayonli tarxlashda hudud tarxiy tarkibi deganda, xalq xo'jaligi ob'ektlari va tabiiy landshaft elementlarini o'zaro fazoviy bog'lab joylashtirishning bosh modeli tushuniladi.

Respublika tarxiy tarkibini quyidagicha o'zgartirish rejalashtirilmoqda: – shahar– markazlar, transport magistrallari, suv arteriyalari, tabiiy–iqlimiy o'qlar; 3– 4 shahar markazlari bo'lgan o'rtacha tarxli tarkiblar. Shu sababli shahar– markazni iqtisodiy bazasini kengaytirib va nisbatan yuqori ijtimoiy infratuzilma shakllanishini tezlashtirib rivojlanishini ta'minlash; regional markaz bilan tashqi transport aloqalarini ta'minlash istiqbolli vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Funksional mintaqalash. Aholini joylashtirish sistemasining istiqbolli tarxiy tarkibini detallashtirish va konkretlashtirish maqsadida undan bevosita keyin hududni funksional mintaqalanish sxemasini ishlab chiqiladi. Funksional mintaqalar o'lchamlari hududni kompleks baholash natijalari, rayondagi muayyan ijtimoiy– iqtisodiy holat va demografik hajmi asosida belgilanadi.

Respublika hududini shaharsozlik jihatidan makromintaqalashda quyidagi mintaqalar ajratiladi: ho'jalik faoliyati va shaharsozligi jadal rivojlangan; buferli; ekstensiv ho'jalik faoliyatli; ekologik jihatdan rivojlangan.

– bolalar va kattalar uzoq muddatli dam olish mintaqalarini tog' hududlarida va suv omborlari bo'yidagi tabiat qo'ynida joylashtiriladi.

O'rtacha aholi yashash punktlarida quyidagicha mintaqalar bor:

– shaharlar rivojlanishini tutib turuvchi mintaqalar, shahar– markazgacha bir soatlik transport yo'li chegarasidagi hududlarni qamrab olgan;

– shaharlarni rivojlanishiga xizmat qiluvchi mintaqani xordali tarxiy o'q bo'ylab joylashtiriladi;

– texnik qishloq ho'jalik ekinlari mintaqasini yuqorida keltirilgan mintaqalar orasiga, daryo va kanallar ekologik yo'lagi kesishadigan hamda bog' va bog'dorchilik dalalari kesishgan joylarga joylashtiriladi;

– himoyalananadigan tabiiy landshaftlar mintaqasini hali o'simlik va hayvonot dunyosining noyob turlari saqlanib qolgan tog' hududlariga o'rnatish lozim;

– qisqa muddatli dam olish mintaqalarini kanal va suv omborlari bo'yiga, qisman tog' hududlariga joylashtiriladi;

– kattalar va bolalar uzoq muddatli dam olish mintaqalarini suv omborlari bo'yiga, tog' daralariga joylashtirish mumkin.

Kichik aholi yashash punktlari zaif iqtisodiy va ijtimoiy– madaniy rivojlangan shahar– markazga ega. Kichik aholi yashash punkti hududida quyidagi mintaqalarni ajratish maqsadga muvofiq:

– shaharni rivojlantirishni ta'minlovchi mintaqani markaz atrofida shakllantirish lozim;

– qishloq ho'jalik texnik ekinlari maydonini ekologik yo'laklar bilan bo'ylama va ko'ndalangiga kesishishi mumkin;

– qisqa muddatli va uzoq muddatli dam olish mintaqalarini daryolar, suv omborlari bo'yida, tog' daralarida joylashtirish mumkin;

– himoyalananadigan tabiiy landshaftlarni tog' va boshqa noyob landshaft, o'simlik va hayvonot dunyosiga ega bo'lgan joylarda shakllantirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida avtomobil, temiryo'l va havo transporti faoliyat yuritadi. Respublikaning shakllangan transport sistemasi tavsifi, yuk tashishda vazifalar taqsimlanishi va xalq xo'jaligi rivojlanishidagi turli transport

vositalarining ahamiyati, mamalakatning geografik joylashishi va uning tarixiy rivojlanishi bilan belgilanadi.

Aholi joylashishining oazisli tavsifi va o'zaro bog'liq aholi joylashtirilishining mavjudligi respublika hududi bo'yicha transport oqimlarini taqsimlanishini tavsiflaydi va ham yuk ham yo'lovchilar avtomobil transportida ko'proq tashilishiga sabab bo'ladi. avtomobil transporti vositasida yiliga 100 mln.tonnaga yaqin yuk tashiladi va 70 mln. xalqaro yo'lovchilar tashiladi.

Avtomobil yo'lari tarmog'i zich joylashgan, 97% ga yaqin avtomobil yo'lari qattiq qoplamaga ega.

Temir yo'l transporti yordamida yiliga 43 mln tonna yuk va 17 mln yo'lovchilar tashiladi. Shu o'rinda xalqaro yuk tashish butun hajmining 80% i temir yo'llarda tashilishi ahamiyatli. Temir yo'llar tarmog'ining asosiy qismi bir yo'lli (81%), elektrlashtirigan qismi uzunligi – 16,1% ni tashkil etadi. Mamlakat temir yo'llarining umumiy uzunligi 6,06 ming km, zichligi – 1 kv. km ga 13,5 km ni tashkil etadi.

Respublikada 13 ta aeroport mavjud bo'lib, ulardan 1999 yilda 2,7 mln. yo'lovchi, jumladan "O'zbekiston havo yo'llari" havo kemalarida 1,7 mln yo'lovchi, ulardan xorijga – 425,1 ming kishi, MDHga 490 ming kishi, Respublika miqyosida 793 ming yo'lovchi uchgan. Aeroportlardan uchadigan yo'lovchilar soni yiliga 10–79 mingtani tashkil qiladi. Toshkent aeroporti alohida o'rin tutadi – bu aeroport xizmatidan yiliga 994 ming yo'lovchi foydalanadi.

Shunday qilib, mamlakat transport kommunikastiyalari etarlicha rivojlangan, transport sistemasi mos texnik baza va infratuzilmaga ega.

Bunday shakllangan sistemaning asosiy kamchiliklari quyidagilar:

- sobiq Ittifoq davrida shakllangan temir yo'l va avtomobil yo'llari magistral yo'llari boshqa davlatlar hududlaridan o'tadi; shu sababli bu yo'llar mamalakat ishonchli transport karkasi vazifasini o'ta olmaydi;

- sobiq Ittifoq davrida ho'jalik aloqalarini Shimolga yo'naltirilganligi va shunga mos shakllantirilgan transport liniyalari mustaqilliy yillarida mamlakat ehtiyojlarini to'la qonli qondira olmaydi;

– yangi hududlarni o'zlashtirilishi transport yangi magistral liniyalarini o'tkazilishini talab etadi.

Mamalakat transport sistemasini davlat manfaatlariga xizmat qiladigan, kutilayotgan yuklamalarga mos va jahon standartlariga javob beradigan darajaga etkazish bosh maqsad bo'lishi kerak.

3.5. Muhandislik infratuzilmasi

Shahar va qishloq aholisini qulay, havfsiz yashash sharoitlarini yaratish, qishloq ho'jalik va sanoatni dinamik rivojlanishi hududlarni muhandislik infratuzilmasi darajasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Turli hududlarda va viloyatlarda ob'ektiv sabablarga ko'ra muhandislik infratuzilma rivojlanish darajasi turlicha.

Yurtimiz kelgusi yillarda hal qilishi lozim bo'lgan ko'pgina masalalar echimi muhandislik tarmoqlari va inshootlari qurilishiga va mavjudlarini qayta qurishga katta sarmoyalar sarflanishini talab etadi. Bu masalalarni hal qilishda uzoq mudatga tashhis qo'yish va davlat imkoniyatlaridan foydalanish yo'larini ko'ra bilgan holda hududlarni iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirishni takomilashtirish, fan– texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish asoslanish mumkin.

O'zbekistonning qator sohalarida aholini sifatli ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash muammosi darhol hal qilinishi lozim, barcha qishloq poselkalarida va ko'pgina shaharposelkalarida ham kanalizastiya qurilishi yoki rekonstruktsiya qilinishi zarur, seliteb hududlarini sug'orish masalasi ham dolzarbdir, ko'pgina hududlar muhandislik jihatdan tayyorgarlik chora– tadbirlar o'tkazilishiga muhtoj, minglab gektar yerlar shamol va suv eroziyasiga uchragan, yuzlab axlat chiqindilari uyulgan joylar qattiq maishiy chiqindilarni utillashtirish muammosini yaratib, ekologik holatga salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Hududlar muhandislik infratuzilmasini shaklanishi ko'pgina omilarga bog'liq, bunda ularning har birini ta'siri echim hal qilishda turlichadir. Muhandislik infratuzilmasi shaklanishiga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omillar tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tabiatni asrash (ekologik), texnik, tarxiy omillardir.

Tabiiy omillar hudud muhandislik infratuzilmasi shakllanishiga hamda aholi joylashgan hududga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. shaharlar va sanoat korxonaalari qurilishi uchun maydon tanlashda hudud rel'efi muhim: tozalash inshootlarini joylashtirish, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tarmoqlarini o'rnatish, suv omborlari, kanallar, dambalar qurilishi. ustun shamol yo'nalishlari hududlarni mintaqalash, sanoat, kommunal, ombor ob'ektlarini joylashtirish, seliteb hududlarni tanlashga ta'sir qiladi. Muhandislik– geologik, gidrogeologik sharoitlar qurilish maydonlarini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, qurilish va ekspluatatsion ko'rsatkichlar (cho'quvchanlik, gruntlar tarkibi, grunt suvlari yotish tarkibi)ga ta'sir qiladi. Geologik sharoitlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim, foydali qazilmalar, suvli gorizontlarni mavjudligi qurilish maydonini tanlashga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Iqtisodiy omillar yakuniy qaror qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Masalan, Qo'ng'iro't soda zavodi qurilishi birinchi navbatda iqtisodiy sabablarga ko'ra amalga oshirilgan (respublika har yili ko'plab valyuta mablag'larini xorijdan soda sotib olish uchun sarflagan). Sanoat ob'ektlarini joylashtirish variantlari solishtirilganda, har doim ham optimal variantga emas, balki iqtisodiy jihatdan samarali variantga ruxsat beriladi.

Ijtimoiy omillar shaharsozlik bosh vazifasi – inson hayoti, mehnat qilishi, turmushi va dam olishi uchun eng yaxshi sharoitlarni ta'minlash, uning salomatligini zararli tabiiy, ishlab chiqarish va boshqa sharoitlardan (sanoat hududlari va yashash joylari orasida sanitar mintaqalar yaratish, tabiatni muhofaza qilish chora–tadbirlari) himoyalashni ko'zda tutadi. U yoki bu shaharning malakali kadrlari darajasi ham sanoat ob'ektlari qurilishi maydonini tanlashda muhim (ko'pgina xorijlik investorlar qurilish ishlari qimmatga tushishiga qaramay, Toshkent, Samarqand, Navoi, Andijon shaharlarini tanlaydilar).

Siyosiy omil muhandislik kommunikatsiyalari tarmog'i va qator ob'ektlarini qurish masalalarini hal etishda ta'sir qiladi. Masalan, G'uzor–Qumqo'rg'on, Beruniy–Buxoro temir yo'llari, Tuyamo'yin suv ombori shimolidan gaz quvuri va boshqa qator ob'ektlar siyosiy omil ta'sirida qurilmoqda.


Tabiatni muhofaza qilish omili qurilish maydonlarini tanlashla, muhandislik kommunikatsiyalarini o'tkazishda, muhandislik inshootlarini o'rnatilishida e'tiborga olinadi.

Texnik omil hududni infratuzilma va boshqa sharoitlar bilan ta'minlanganligini inobatga oladi. Masalan, Toshkent sanoat hududi o'zining salohiyatiga ko'ra mavjud infratuzilmani rekonstruktsiya qilish va uning yangi elementlarini qurishga katta sarmoyalar kiritish istagidagi investorlarni jalb qilmoqda.

Tarxiy omil qurilish maydonini tanlashda, kommunikatsiya o'tkazishda inobatga olinadi. Aholi joylashgan hudud, sanoat maydonining ixchamligi yoki tarqoqligi turli loyihaviy texnik echimlar qabul qilishni talab etadi.

3.6. O'zbekistonning hududiylandshaft–rekreasion sistemalari

O'zbekiston aholisi rekreasion faoliyati dam olishning turli xil va shakllarini qamrab oladi – kurortli davolash, turizm va havaskor sport. U ham hududiy ham texnologik tarkibga ega bo'lib, uning asosini sutkalik, haftalik va yillik rekreasion faoliyat davrlari tashkil etadi. Shakllangan rekreasion tarmog'i tavsifi, dam olish joylari va muassasalarini joylashtirish rekreasion resurslar geografiyasi, aholi joylashtirilishi, erdan foydalanish, transport sharoitlari xususiyatlari va b.bilan belgilanadi.



3.2. Rasm

O'zbekiston hududi va rekreastion ob'ektlarida davolash, sog'lomlashtirish, sayohat qilib dam olish funksiyalari qisqa va uzoq muddatli davrlargaega.

Rekreastion jihatdan ko'proq o'rganilgan hudud Toshkent viloyatidir. Toshkent viloyati hududida respublikaning barcha davolash– sog'lomlashtirish ob'ektlarining 33% i – 10502 ta ob'ekt joylashtirilgan, ularning sig'imi – 284376 o'rin, shu jumladan, 878 nafar ob'ekt – uzoq mudatli dam olish joylari (94413 o'rin) va 10121 ob'ekt qisqa mudatli dam olish joylari (187963 o'rin).

Uzoq mudat dam olish ob'ektlariga: sanatoriylar – 38 nafar ob'ekt (5420 o'rin); dam olish uylari – 39 (5851 o'rin); pansionatlar – 20 (4928 o'rin), bolalar sog'lomlashtirish lagyerlari – 178 (62838 o'rin); sport– sog'lomlashtirish lagyerlari – 29 (6851 o'rin); turistik bazalar – 8 nafar ob'ekt; korxona va tashkilotlar xodimlari dam oladigan joylar – 63 (10525 o'rin); ijodiyot uylari – 1 ob'ekt kiradi.

Qisqa muddatli dam olish ob'ektlari: shahardan tashqari mintaqalar va dam olish bazalari – 113 ta ob'ekt (27137 o'rin); jamoaviy bog' va chorbog'lar – 10 000 (60550 o'rin); plyajlar – 3 (79376 o'rin); 20830 o'ringa mo'ljallangan boshqa dam olish joylari.

Toshkent viloyatidagi mavjud rekreastion muassasalarni ta'minlanganlik ko'rsatkichi me'yordagidan ancha past va o'rtacha uzoq muddatli dam olish bo'yicha – 28%ni, qisqa muddatli dam olish bo'yicha – 6%ni tashkil qiladi.

Respublika boshqa viloyatlaridagi uzoq va qisqa mudatli dam olish muassasalari bilan ta'minlanganlik holati Toshkent viloyatiga qaraganda ancha past.

3.7. Yangi ijtimoiy– iqtisodiy sharoitlarda tarxiy tashkil qilishning alohida xususiyatlari

Mamalakat shaharlarining demmografik xususiyat tufayli hududiy o'sishining jadal sur'atlari: shahar yaxlitigini ta'minlaydigan, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan, muhit masshtabini buzmasdan shahar o'sishiga xizmat qiladigan, hayotiy jarayonlarning oliyjanob munosabatda kechishini ta'minlaydigan fazoviy shakllarini shakllantirish singari bosh maqsadni belgilab beradi.

Ikkita global ulkan omil O'zbekiston shaharlarining hududiy– fazoviy rivojlanishini ta'minlaydi:

Shaharsozlik qurilishi uchun yaroqli hududiy resurslarning kamyobligi;

Aholi sonining tabiiy o'sishi, aholi punktlari hududiy o'sishiga olib keladi.

Bu omillar respublikadagi erning bahosi qimmatligini va hududiy resurslar kamyobligini oshishini belgilaydi. Shunday qilib, hududdan jadal foydalanish fazoviy tashkil etishning asosiy maqsadidir.

O'zbekiston shaharlarining fazoviy tarkibini yo'naltirilgan shakllanishi shahar faoliyat ko'rsatishini yaxshilash, qulay muhitni shakllantirish, hududdan foydalanishni optimallashtirish, shahar estetik sifatini oshirish vositalaridan biridir.

Hududni majmuaviy shakllantirish zarurati tarxiiy sistemani barcha sistemalar va aholi punktlari elementlarini o'zaro ta'siri muvofiqlashtirilishi sohasi ekanligi bilan belgilanadi. Bu erda shaharsozlik faoliyati sub'ektlari zidiyatli manfaatlari to'qnashadi.

3.8. Shaharlar tarxiiy tashkil qilinishi rivojlanishining muammolari va zididiyatlari

Shahar rivojlanishi, aholi sonini o'sishi hstdstdni kengaytirishni qurilish qavatlilik va zichlilikni oshirishni, yangi markazni hosil qilishni, yangi transport turlarini, muhandislik infratuzilmalarini kiritishni talab etadi. Hududiy zahiralar mavjud bo'lmaganda bu masala echimi murakkablashadi.

Oxirgi yillar zididiyati – individual uy joy qurilishini keng rivojlanishidir. Bunda aholi nisbatan qulay uy– joyga ega bo'ladi. Bu jarayon salbiy tomonlari:

Hududiy zahiralar mavjud bo'lmaganida bunday qurilish ishlari qimmatbaho haydaladigan yerlar hisobidan yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz hududlarda amalga oshiriladi. Keyingi holatda suv kelish joylari to'silib qolishiga, quruq oqimlarni tuproq to'kib to'ldirilishiga, suvni ifloslanishi va gidrogeologik jarayonlarni buzilishiga olib keladi. Qurilish ishlari yirik shaharlar chegarasida olib borilmoqda va shahar idoralari tomonidan nazorat qilinmaydi.

Hududlar tejalmasdan foydalanilmoqda, bunday holar, ayniqsa, yirik shaharlar uchun maqsadga muvofiq emas. Transport va muhandislik

kommuniastiyalari uzunligi o'smoqda. Bundan tashqari O'zbekistonning ko'plab shaharlarida tarxiy tashkil qilishning quyidagi kamchiliklari kuzatilmoqda: harakatlanishga ko'p vaqt sarflanmoqda, bu esa sanoat va seliteb hududlarini muvofiqlashtirilmasdan rivojlantirilishi oqibatidir; yashashning noqulayligi; xizmat ko'rsatish sistemalari echimlarining samarali emasligi; hududlarni ekstensiv va qadrsiz turar joy va ishlab chiqarish binolari bilan band qilish; bosh ko'cha sistemalari va jamoat markazlarini hududiy zahiralarni mavjud emasligi tufayli rivojlantirishning imkoni yo'qligi.

3.9. Tarxiy tashkil qilishning asosiy tushunchalari

Shaharni tarxiy tashkil qilish tarkibiga quyidagilar kiradi:

Funksional mintaqalarni o'zaro joylashishi va o'zaro bog'liqligi;

Shahar mintaqalari, bosh magistrallari, tabiiy komponentlar sistemasi;

Fazoviy tarkib (funksional– fazoviy tarkib) shaharsozlik ob'ekti kompozitsion va tarxiy elementlarini, funksional mintaqalarni fazoviy joylashishi va o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Fazoviy tarkib –tarkibiga arxitekturaviy– tarxiy va funksional mintaqalanish kiradigan kompleks tushuncha kiradi.

